

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMINI
RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

A.Soliyev, I.Safarov

IQTISODIY VA SIYOSIY GEOGRAFIYA ASOSLARI

*Akademik litsey va kasb-hunar
kollejlari uchun darslik*

«TALQIN» NASHRIYOTI
TOSHKENT — 2003

Mazkur o'quv darsligida iqtisodiy va siyosiy geografiya fanining mazmuni va maqsadi, uning asosiy tushunchalari va bozor munosabatlariga o'tish davrida rivojlanishi, ishlab chiqarishni ijtimoiy hamda hududiy tashkil etish, siyosiy geografiyaning ba'zi bir masalalari to'g'risidagi mavzular yoritilib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus va kasb-hunar markazi tomonidan akademik liseylar, kollejlarda uchun o'quv darsligi sifatida tavsiya etilgan.

Ma'sul muharrir — Z.M. Akramov g.f.d., professor

Mualliflar: **A. Soliyev** g.f.d., professor,

I. Safarov g.f.n., dosent

Taqrizchilar: **E.A. Ahmedov** g.f.d., professor

Z.T. Abdalova g.f.n., dosent

A. Xasanov oliy toifadagi o'qituvchi

SO‘ZBOSHI

Aziz talabalar! Siz O‘zbekiston hamda jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kursini o‘qigansiz. Ushbu darslik mazkur fan bo‘yicha olgan bilimlaringizni yanada chuqurlashtirish va mukammallashtirishga mo‘ljallangan bo‘lib, u Sizning geografik fikrlashingizni takomillashtirishga xizmat qiladi, kelajakda oliy o‘quv yurtlarida tahsilni davom ettirishga va keyingi mehnat faoliyatingizga zamin yasaydi.

Xo‘sh, iqtisodiy geografiya nima, u nimaga kerak?

Iqtisodiy geografiya (va umuman geografiya) to‘g‘risidagi bilimlar barcha uchun, hatto kasb va vazifasi bevosita geografiya bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday madaniyatli kishi uchun ham kerak. Hozirgi kunda bu fan oddiy tadbirkordan tortib davlat miqyosida bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni mintaqaviy siyosat doirasida tartibga solib boruvchi boshqaruv hamda statistika tashkilotlariga qo‘l kelmoqda.

«Iqtisodiy geografiya» — demak, bu yerda iqtisodiyot va uning hududiy tashkil etilishi nazarda tutilmoqda. Binobarin, mazkur fan mutaxassisdan ayni vaqtda ham iqtisodchi, ham geograf bo‘lmog‘ini talab qiladi; bu uning betakror va jozibali xususiyati, maqsadi, mohiyati va mazmunidir.

Biz kundalik hayotimizda iqtisodiy geografik fikrlashdan foydalanamiz, shunga ehtiyoj sezamiz. Zero, har qanday iqtisodiyot va ijtimoiy hodisa, albatta, ma‘lum vaqt va muayyan joyda sodir bo‘ladi. Masalan, Toshkent aholisi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Navoiy tog‘-kon metallurgiya kombinati, Sho‘rtang gaz majmuasi, Xiva gilam kombinati, Samarqand turizmi, Farg‘ona pillachiligi, Marg‘ilon atlaslari, Asaka avtomobil zavodi, Chortoq sanatoriyasi kabi tushunchalar bir vaqtning o‘zida u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy voqealikni ham, uning qayerda joylashganligini ham anglatadi.

Biroq iqtisodiy geografiya ma'lum voqelik va hodisalar-ning faqat qayerdaligini emas, balkim avvalo nima uchun aynan shu joyda rivojlanish xususiyati va qonuniyatlarini o'rgatishi kerak. U kishilarni kompleks, atroflicha mushohada yuritishga, «tabiat-aholi-xo'jalik» tizimida fikrlashga undaydi. Tabiiy resurslarga, mamlakat va mintaqalar geografik o'rniga iqtisodiy baho berish, hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish va turli shakldagi hududiy majmualarni tahlil qilishga o'rgatuvchi fan xuddi shu Iqtisodiy geografiya hisoblanadi. Binobarin, uning ilmiy va amaliy ahamiyati katta. Qolaversa, bu fanning tarbiyaviy, ma'naviy, madaniy va ma'rifiy jihatlari ham kam emas.

Darslikning kirish, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 11, 12, 13, 14 boblari geografiya fanlari doktori, professor A. Soliyev, 8, 9, 10 boblari esa geografiya fanlari nomzodi, dosent I.Safarov tomonidan yozilgan.

Mualliflar ushbu ishga bevosita o'z fikrlarini bildirgan hamda rasmiy taqrizchilar (g.f.d., professor E.A. Ahmedov, g.f.n., dosent Z.Abdalova va oliy toifadagi o'qituvchi A. Hasanov)larga ma'sul muharrir — g.f.d., professor Z. Akramov o'zlarining chuqur minnatdorchiliklarini izhor etadilar.

I BOB

IQTISODIY GEOGRAFIYA FANINING OB'YEKTI, PREDMETI VA VAZIFALARI

Har qanday fan singari iqtisodiy geografiya ham o'z tadqiqot ob'yekti va o'rganish predmetiga ega. Uning **ob'yekti** sifatida ma'lum bir joyning (mamlakat, rayon va h.k) xo'jaligi, iqtisodiyotining hududiy tarkibi, hududiy ishlab chiqarish tizimlari xizmat qiladi. Biroq, bu ob'yekt faqatgina iqtisodiy geografiyaga tegishli emas, u, jumladan, iqtisodiyot uchun ham shunday vazifani bajaradi.

Fanning **predmeti**, ya'ni nimani o'rganishi esa ob'yektdan farq qilib, u ancha aniqlikka ega. Shu nuqtai nazardan predmet ob'yektga ko'ra torroq, ammo aniqroqdir; u ob'yektning muayyan bir jihatini o'rganishga qaratilgan. Masalan, iqtisodiyot ishlab chiqarish korxona yoki tarmoqlari qay darajada samarali faoliyat ko'rsatishi, ularning xom ashyo, mehnat resurslari va ishlab chiqarish texnologiyasidan foydalanish holati, moliyaviy hamda moddiy jihatlarini o'rgansa, iqtisodiy geografiya aynan shu masalalarni kompleks, ya'ni atroflicha hududiy nuqtai nazardan o'rganadi. Binobarin, bu fan uchun **hududiylik** va **komplekslik** nihoyatda muhimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda iqtisodiy geografiya fanining predmetini quyidagicha ta'riflash mumkin: **«Iqtisodiy geografiya iqtisodiy va sotsial (ijtimoiy) geografiya fanining bir qismi bo'lib, u turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashuv xususiyatlari hamda hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanish qonuniyatlarini o'rganadi.»** Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, uning aynan geografiya faniga tegishli ekanligidan dalolat beradi. Chunonchi, agar yuqoridagi jumladan «turli mamlakat va rayon» yoki «hududiy» tushunchalari olib tashlansa, u holda mazkur ta'rifning iqtisodiy geografiyaga taalluqliligi qolmaydi.

Demak, aytish mumkinki, ko'rsatilgan so'zlar iqtisodiy geografiya fani ta'rifining «egasi» hisoblanadi. Uning kesimi esa «xususiyatlar» va «qonuniyatlarni» aniqlashdan iboratdir.

Darhaqiqat, agar har bir joyning o'ziga xos betakror xususiyati asoslab berilmasa, o'rganilayotgan hodisa yoki voqelik hududiy majmua shaklida ko'rilmasa va uning shakllanish, rivojlanish qonuniyatlari ochib berilmasa u holda iqtisodiy geografiya alohida, mustaqil **fan** bo'la olmaydi. Zero har qanday fan o'zining tadqiqot predmeti, metodologiya va metodikasiga ega bo'lgan holda albatta u qonuniyatlar, hodisa va voqeliklar orasidagi qonuniy aloqadorliklarni aniqlashi shart. Aks holda u fan emas, oddiy o'quv predmeti bo'lib qoladi.

Iqtisodiy geografiya uchun hudud, hududiy tarkib va tizim, hodisalarning hududiy birligi yoki majmuasi, hududiy iqtisodiy aloqa va munosabatlar asosiy tushunchalar hisoblanadi. Biroq, har bir hudud, joy boshqa joydan farq qilishi lozim. Shu bois, mashhur olimlar aytganlaridek «hamma joyda bor narsa geografiyada mutlaqo bo'lmasligi kerak».

Chindan ham, yer yuzining barcha joyida aynan bir-biriga o'xshash sanoat korxonalari, qishloq xo'jalik ekinlari, shahar va qishloqlar yo'q; aholi joylashuvi ham birday emas. Modomiki shunday ekan, demak hududiy farq bor, bir joyning ikkinchi joyga mutloq o'xshamasligi aniq. Bu esa bevosita iqtisodiy geografiyani qiziqtiradi. Qolaversa, agar hamma joy bir xil relef shaklidan (tekislik yoki tog'likdan), bir xil xo'jalik ixtisoslashuvidan tashkil topganda edi dunyoning o'zi ham bo'lmasdi.

Chunonchi, O'zbekistonning barcha viloyatlarida paxta ekiladi. Agar o'quvchilar viloyat iqtisodiy geografiyasini ta'riflaganlarida faqat shu bilan cheklanishsa, ularning javoblari «qolibli», quruq, barcha joyga tegishli, zerikarli bo'lib, yuqoridagi shartga to'g'ri kelmay qolar edi. Binobarin, bir hududning ikkinchi hududdan farqi ochib berilishi lozim; hatto paxta to'g'risida so'z yuritilganda ham uning turli viloyatlardagi bir-biridan farqi, qanday joyda yetishtirilishi, navi, hosildorligi, yangi yoki eski o'zlashtirilgan joylarda ekilishi kabi hududiy xususiyatlarining yoritilishi talab etiladi.


Ko'rinib turibdiki, geografiya hamma vaqt hududiy tafovut, hududiy tengsizlik bilan ish tutadi; uning uchun makonning turli tumanligi muhimdir. Xuddi shunday, tarix uchun davrning, o'tgan kunlarning bir-biriga mutloq o'xshamasligi, zamonning, jamiyat taraqqiyotining aynan bunday kechmas-

ligi katta ahamiyatga ega (agar o'tgan kunlar birday bo'lganda edi, davrlar ham ajralmasdi, tarix fanining o'zi ham bo'lmasdi).

Iqtisodiy geografiyada o'rganilayotgan hodisa avval alohida-alohida tahlil etiladi, so'ngra birgalikda ko'riladi, hududiy majmua shaklida umumlashtiriladi. Masalan, sanoat geografiyasida avval sanoat korxonalari va tarmoqlari, so'ngra sanoat tuguni yoki rayonlari o'rganiladi; shaharlar geografiyasida dastavval alohida shaharlarning vujudga kelishi va joylanishi ko'rib chiqilib keyinchalik ular ma'lum hududiy birlikda — shaharlar aglomerasiyasi yoki ularning boshqa tizimlarida (TPK, klass) rivojlanish qonuniyatlari yoritilib beriladi va h.k.

Mazkur fanning uch asosiy hududiy shakli, «geometriyasi» mavjud; ular areal (maydon), nuqta yoki tugun, lenta yoki tasmaimon bo'ladi. *Birinchi* shaklga qishloq va o'rmon xo'jaligi mos keladi, *ikkinchisi* sanoat, aholi va aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasiga, *uchinchisi* transport geografiyasiga tegishlidir. Demak, nuqta, chiziq, maydon va ular orasidagi hududiy aloqa, munosabat iqtisodiy geografiya fanining tub mazmunini tashkil etadi.

Umuman iqtisodiy geografiyaning tadqiqot darajasi ancha keng. Uni quyidagicha tasvirlash mumkin:



1-chizma. Iqtisodiy geografiyaning tadqiqot doirasi.

Keltirilgan chizmada 4 xil asosiy soha va 6 turda ular orasidagi aloqadorlik iqtisodiy geografiyasining asosiy tadqiqot yo'nalishlari sifatida o'z aksini topgan. Jumladan, bu fan eng avvalo ishlab chiqarish, transport, aholi va tabiiy boyliklarni alohida o'rganadi, shunga mos holda ishlab chiqarish, aholi, transport hamda tabiiy resurslarning hududiy tarkibi (tizimi) ajratiladi.

Bulardan tashqari, oraliq yo'nalishlar ham mavjud:

1. Aholi ↔ ishlab chiqarish;
2. Ishlab chiqarish ↔ transport;
3. Transport ↔ tabiiy boyliklar;
4. Tabiiy boyliklar ↔ aholi;
5. Aholi ↔ transport;
6. Tabiiy boyliklar ↔ ishlab chiqarish.


Ta'kidlash joizki, iqtisodiy geografiya alohida sohalarni o'rganishda birmuncha yutuqlarga ega. Ammo oraliq (qirraviy) yo'nalishlar hozircha sustroq tadqiq etilgan va ularni rivojlantirish mazkur fanning istiqbolida katta ahamiyatga ega.

Yana shuni e'tiborga olmoq lozimki, ushbu o'quv kursi faqat iqtisodiy geografiyani o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham berilgan ta'rifda u iqtisodiy va sotsial hamda jahon andozalariga muvofiq holda ijtimoiy geografiyaning bir bo'lagi tarzida keltirilgan. Binobarin, iqtisodiy geografiya sotsial-iqtisodiy va sotsial geografiyaga¹ o'xshash ijtimoiy geografiyaning bir qismidir (2-chizmaga qarang).

O'z navbatida bevosita iqtisodiy geografiyaning tarkibi sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, tabiiy resurslar kabi iqtisodiyot, ishlab chiqarish bilan bog'liq geografiya yo'nalishlari kiradi. Ayni vaqtda iqtisodiy geografiya ijtimoiy geografiyaning qolgan bloklari (qismlari) bilan ham aloqadordir.

Iqtisodiy geografiya ijtimoiy geografiyadan tashqarida boshqa geografik fanlar va eng avvalo tabiiy geografiya bilan bog'liq. Tabiiy va ijtimoiy geografiya inson va tabiat, tabiat va jamiyat juftligini aks ettirgan holda yagona yoki umumiy geografiyani tashkil qiladi. Ammo ular orasida farq ham yo'q emas. Chunonchi, ijtimoiy, shu jumladan iqtisodiy geografiya uchun **joylashuv** xosdir, chunki bu fan turli iqtisodiyot so-

¹ «Sotsial» va «ijtimoiy» tushunchalar ko'p hollarda aynan bir mazmunga ega emas.



2-chizma. Ijtimoiy geografiya.

halarining joylashuv xususiyatlarini o'rganadi. Tabiiy geografiyada esa tabiiy komponentlarning yer yuzida joylashuvi emas, balki ularning vujudga kelish qonuniyatlari, tabiiy geografik jarayonlar tahlil etiladi, baholanadi va bashorat qilinadi.

Iqtisodiy geografiya hodisa va voqeliklarni o'z tadqiqot doirasida o'rganar ekan u muayyan **usul (metod)** lardan foydalanadi. Ular, eng avvalo, kartografik, geografik taqqoslash, statistik, tarixiy, kuzatuv, modellashtirish va boshqalardir.

Ma'lumki, geografik fikrlashni hududsiz va uni xaritada tasvirlashsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Binobarin, xaritani geografiyaning «tili» ham deyishadi. Qolaversa, geografik bilimning chegarasi aynan ana shu o'rganilayotgan hodisaning hududiyligi va uni xaritaga tushira olishi bilan ifodalanadi.

Geografik taqqoslashning ham ahamiyati katta, chunki taqqoslamasdan turib o'rganilayotgan joyning xususiyati, betakrorligini aniqlab bo'lmaydi. Bu esa iqtisodiy geografiyaning asosiy predmeti, maqsadidir. Masalan, O'zbekistonning o'ziga xosligini faqat jahon hamjamiyatidagi boshqa davlatlar bilan taqqoslangan holda aniqlash mumkin, xolos.

Taqqoslash ikki, umumiy holatiga ko'ra o'xshash va o'xshash bo'lmagan ob'ektlar asosida olib boriladi. Tahlil jarayonida har ikki taqqoslanayotgan ob'yekt bir-biridan «uzoqlashib», ularning o'zaro farqi ko'payib boraveradi va, natijada bu ikki voqelikning o'ziga xos, individual xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Biroq, ushbu metoddan foydalanishning eng muhim talabi shundaki, taqqoslash ayni vaqtda (sinxron), parallel holda (birin-ketin emas) amalga oshiriladi. Ikkinchidan, taqqoslanayotgan ob'ektlar ko'lami bo'yicha mumkin qadar bir-biriga tengroq bo'lishi ma'qul. Shu bois O'zbekistonni AQSH bilan yoki Bo'ka shahrini Toshkent bilan taqqoslash unchalik to'g'ri bo'lmaydi.

Modomiki, iqtisodiy geografiya raqam va ko'rsatkichlardan iborat ekan uning uchun statistik metod ham muhimdir. Ushbu metodda jadval va grafik, diagramma, turli ko'rsatkich (indeks, koeffitsiyent, prosent, promille va b.) va guruhlash usullaridan foydalaniladi.

Iqtisodiy geografiya, umuman geografiyaning eng asosiy xususiyati shundaki, har bir voqelik yoki jarayon albatta qayerdadir va qachondir, ya'ni muayyan makon va zamonda

sodir bo'ladi. Shu jihatdan, tarix bilan geografiya, xronologik yondashuv bilan xorologik (hududiy) yondashuv ajralmas, dialektik dunyoqarashning mukammal birligidir. Tarix va geografiya o'zaro aloqadordir, bugungi geografiya ertangi kun uchun tarixdir, tarix esa o'tmishning geografiyasi hisoblanadi; tarixni to'g'ridan-to'g'ri ko'rib, geografiyani — eshitib bo'lmaydi. Binobarin, geografiya tarixini tarixiy geografiyadan farq qila olish kerak.

Geografiyada tarixiy metoddan foydalanishda o'tmishning barcha «ikirl-chikirlariga» berilmasdan, hozirgi geografik voqelikning vujudga kelishiga sabab bo'lgan muhim tarixiy omillar ko'rib chiqiladi. Shuning uchun bu yerda geografiya oddiy tarixga aylanmasligi lozim.

Shunga o'xshash iqtisodiy geografik bilim va fikrlashning shakllanishida *kuzatish, anketa — so'rov, turli xil bashorat qilish* usullari ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunday bilim faqat «*nima qayerda?*» savollariga emas, balki «*u nimaga aynan shu joyda joylashgan?*» savoliga javob bera olishidan ham iborat bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, har qanday bilim singari iqtisodiy geografik bilim ham uch asosiy qismdan tashkil topgan. Bu ham bo'lsa *tahlil* (analiz), *tashxis* (diagnoz) va *bashorat* (prognoz)dir. Afsuski, hozirgi iqtisodiy geografiya ko'proq fakt va raqamlarni yodlab olish, miqdoriy ko'rsatkichlar yoki nomenklatur masalalar to'g'risida ma'lumot beradi, xolos, hodisa va voqeliklar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligi, qonuniy bog'lanishlar esa e'tibordan chetda qoladi.

Shu o'rinda kartografik metod to'g'risida ham aytish lozimki, xaritani bilish geografiyaning asosiy maqsadi bo'lmay, balki u asosiy maqsadga erishish uchun vosita, qurol, usulidir. Qolaversa, xaritani bilish faqat geograflar uchun emas; u barcha, o'zini savodli hisoblanganlarga ham zarurdir.

Iqtisodiy geografiyaning asosiy vazifasi, davr talabiga mos holda, iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi va jahon geosiyosiy tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Shulardan kelib chiqqan holda, talabalar iqtisodiyot tarmoqlarining joylanish va rivojlanish qonuniyatlarini, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining mustahkamlanishi, uning hududiy xususiyatlari, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi kabi masalalarni bilib olishlari zarur.

Mazkur fanning nazariy va amaliy ahamiyati eng avvalo xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiyotning globallashuvi, integratsiya jarayonlari, turli mamlakatlarda mintaqaviy siyosatning amalga oshirish yo'llari, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning ekologik muammolari, urbanizatsiya va shaharlar rivojlanishi to'g'risida ilmiy g'oya va tushunchalarni yaratishdan iborat. Bundan tashqari, ushbu fanning dunyoviy va diniy, madaniy, ma'rifiy ahamiyati ham katta. **«Vatanni sevmoq iymondandir»**, bu haq gap. Ammo Vatanni sevish uning ichki jihatlari, imkoniyat va boyliklari, shahar va qishloqlari, voha va vodiylari, tog' va tekisliklari, iqtisodiyotning ixtisoslashuviga o'xshash xususiyatlarini, betakrorligi va jozibaligini, geosiyosiy mavqei hamda jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini chuqur anglamoq talab etiladi. Shu nuqtai nazardan iqtisodiy geografiyaning tarbiyaviy, vatanparvarlik ahamiyati ham beqiyosdir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Iqtisodiy geografiya fani nimalarni o'rganadi?
2. Ushbu fanning boshqa fanlar bilan qanday aloqalari bor?
3. Iqtisodiy geografiyada qaysi metodlardan foydalaniladi?
4. Ijtimoiy geografiya va uning tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering.
5. Iqtisodiy geografik bilim nima uchun kerak?

II BOB

IQTISODIY GEOGRAFIYANING ASOSIY TUSHUNCHALARI

Har bir fanning o'ziga xos tushuncha va qonuniyatlari bo'ladi. Iqtisodiy geografiyada ular: *hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari va iqtisodiy geografik o'rin* hisoblanadi. Aytish mumkinki, bular iqtisodiy geografiyaning «**oyoq va qo'llari**» tayanch ustunlaridir. Ana shu to'rtlikni yaxshi o'zlashtirgan kishi iqtisodiy geografik fikrlash va bilimga ega bo'la oladi. Ularni qisqacha ko'rib o'tamiz.

Hududiy mehnat taqsimoti — iqtisodiy geografiyaning asosiy, fundamental tushunchasi hisoblanadi. Chunki ushbu fanning qolgan barcha tushunchalari, hududiy mehnat taqsimoti bilan bog'liq.

Hududiy mehnat taqsimotini iqtisodiy geografik jarayon, uning natijasida vujudga kelgan rang-barang iqtisodiy makonni, ishlab chiqarishning hududiy tarkibini, «*areal, nuqta va chiziqlarning*» o'zaro munosabatini iqtisodiy geografik vaziyat yoki holat sifatida ko'rish mumkin.

Hududiy mehnat taqsimoti ijtimoiy mehnat taqsimotining bir tomonidir. Agar ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida kishilarning kasb-hunari, nima bilan mashg'ul bo'lishi (o'qituvchi, muhandis, tabib va h.k.) shakllansa, hududiy mehnat taqsimoti Iqtisodiy rayonlarning vujudga kelishiga, iqtisodiy makonning turli-tumanligiga olib keladi.

Hududiy mehnat taqsimotining doimiy «*yo'ldoshi*» yoki uning ajralmas jihati **ixtisoslashuvdir**. Ammo ixtisoslashuv ham ijtimoiy va hududiy bo'ladi. Bu yerda hududiy ixtisoslashuv nazarda tutiladiki, u turli joylarning ma'lum mahsulot ishlab chiqarishi bilan shug'ullanishini anglatadi.

Ta'kidlash lozimki, ixtisoslashuv barcha narsa yoki mahsulotni ishlab chiqarish bilan belgilanmaydi. Uning uchun quyidagilar talab etiladi:

— mazkur tarmoq mintaqa yoki milliy iqtisodiyot tarkibida salmoqli o‘ringa ega bo‘lmog‘i lozim;

— yaratilgan mahsulot mahalliy ehtiyojni to‘la qondirgan holda tovar sifatida bozorga chiqarilishi kerak;

— ixtisoslashuv rayonlararo yoki mamlakatlararo tovar ayirboshlash, tashqi savdo aloqalarini taqozo etadi va h.k.

Yuqoridagi talablarga muvofiq aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi tabiiy gaz, paxta va paxta tolasi, ipakchilik, qorako‘lchilik, meva va sabzavotchilikka ixtisoslashgan. Aynan ana shu va yana bir qator iqtisodiyot tarmoqlari mamlakatimizning xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rnini belgilab beradi.

Demak, hududiy mehnat taqsimoti ishlab chiqarishni iqtisodiy makonda alohida sohalar bo‘yicha «*bo‘lib*» yuboradi. Natijada har bir joyning «*kimligi*», nima bilan shug‘ullanishi vujudga keladi. Shuning uchun ixtisoslashgan tarmoq orqali joy (mamlakat, viloyat, rayon, shahar va h.k.) tushuniladi, joy esa — uning nima bilan mashhurligini bildiradi. Masalan, *kofe* deganda **Braziliya**, Braziliya deganda *kofe*; **O‘zbekiston** deganda *paxta*, paxta deganda O‘zbekiston; *ko‘mir* deganda **Angren**, Angren deganda *ko‘mir* ...

Hududiy mehnat taqsimotining shakllanishiga qator omillar ta’sir qiladi. Ularga *tabiiy sharoit va tabiiy boyliklar, aholi va mehnat resurslari, iqtisodiy geografik o‘rin, bozor iqtisodiyoti* (talab va taklif munosabati) kabilar kiradi. Jumladan, tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning turli tumanligi mamlakat yoki mintaqada xo‘jalik yuritishning turli yo‘nalishlarini vujudga kelishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Tog‘, voha va vodiylar, cho‘l, o‘rmonzor, issiq iqlim yoki qurg‘oqchilikda shularga mos holda iqtisodiyot ixtisoslashuvi ham turlicha bo‘ladi. Faraz qilaylik, agar O‘zbekiston hududi (tabiati) faqat Qizilqum cho‘llari yoki Ustyurt platosi yoki faqat Farg‘ona vodiysidek bo‘lganda, ehtimol, xo‘jalik tizimi ham ancha bir tomonlama bo‘lar edi.

Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, mamlakat, mintaq hududining yer usti tuzilishi, iqlim, qazilma boyliklari qanchalik turli-tuman bo‘lsa bu yerda hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiyotni kompleks rivojlantirish uchun shunchalik katta imkoniyatlar mavjud bo‘ladi. Hududning tabiiy geografik jihatdan har xilligi bu uning «*baxtidir*», zero tabiatda, Yer

ki, ularni boshqarish boshqa tipdagi rayonlarga qaraganda osonroq va qulayroq.

Xo'sh, iqtisodiy rayonlar nima uchun kerak? Avvalambor bu rayonlarsiz iqtisodiy geografiya fanining o'zi ham bo'lmaydi (rayon — *joy, yer, hudud*, demak «**geo**»). Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, iqtisodiy rayon-iqtisodiy geografiyadir. Binobarin, iqtisodiy geografiya fanining tarixi iqtisodiy rayonlarning shakllanishi, hududiy mehnat taqsimotining natijasidir.

Iqtisodiy rayonlarsiz, hududning ichki jihatdan iqtisodiy turli-tumanligini anglamasdan turib mamlakat iqtisodiy geografiyasini o'rganish mumkin emas. Zero, har qanday davlatning iqtisodiy salohiyati va xavfsizligi uni tashkil qilgan mintaqalar birligi bilan ifodalanadi; mintaqalar, ichki hududlarsiz «mamlakat» mavhum tushuncha bo'lib qolaveradi. Bundan tashqari, mamlakat iqtisodiy geografiyasini faqat xo'jalik tarmoqlari orqali, «yoppasiga», umuman yoki «o'rtacha» o'rganib bo'lmaydi.

Nazariy va asosiy jihatdan iqtisodiy rayonlar har qanday davlatning mintaqaviy siyosatini olib borishda zarur. Sababi, davlat o'zining barcha ichki qismlariga, ularning imkoniyat va ehtiyojlari, muammolaridan kelib chiqqan holda «muomala» qiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning mintaqaviy siyosati maxsus vositalar (byudjet-kredit, soliq, investitsiya mexanizmlari) yordamida ishlab chiqarish kuchlarini hududiy jihatdan tartibga solib, boshqarib boradi.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari. Iqtisodiy geografiya-dagi bu tushuncha ham uning tub mohiyatini belgilaydi. O'z nomidan ma'lum bo'lishicha, u ma'lum hududda xo'jalik tarmoqlarining joylanishi, majmua (kompleks) shaklida faoliyat ko'rsatishini bildiradi.

Alohida olingan hududda (u aholi punkti, viloyat yoki real iqtisodiy rayon bo'lishi mumkin) ishlab chiqarish korxona va tarmoqlari oddiy, birga joylashgan yoki ular o'zaro aloqadorlikda rivojlanib borayotgan bo'ladi. Huddi shu ikkinchi ma'noda hududiy ishlab chiqarish majmualari ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning eng samarali shakli hisoblanadi. Chunki, korxonalarni alohida-alohida, tarqoq joylashtirgandan ko'ra ularni bir-biriga yaqin qurish katta samara beradi. Bunda har bir korxona uchun emas, balki ularning

uning «Oybek» jamoa xo'jaligi ham rayondir. Demak, rayon ichida rayon, uning tarkibida yana «rayoncha», (xuddi «matryoshka» o'yinchog'idek). Ehtimol, geografiya fanining muhim bir xususiyati aynan ana shunday turli masshtabda fikrlay olish qobiliyatiga ega bo'lishidadir.

Uchinchi qiyinchilik ilmiy adabiyotlarda rayonga o'xshash tushunchalarning mavjudligida bo'lsa kerak. Jumladan, ingliz tilidagi *region*, nemis tilidagi *landshaft*, fransuzcha *peyzaj*, o'zbek tilida *mintaqa*, *tuman*, *nohiya* kabilar ham, umuman olganda, hududning bir qismini bildiradi. Bu atamalarning barchasi ishlatishga haqli, biroq ularning o'z o'rnida qo'llanilishi ma'qul. Masalan, **region** kattaroq hududni (xususan xalqaro iqtisodiy munosabatlar va siyosiy geografiyada), **landshaft** — tabiiy geografik muhitni, **peyzaj** — qaysi bir joy manzarasini tavsiflashda qo'l keladi.

Yana boshqa bir chalkashlik bor: baynalminal mazmun-ga ega bo'lgan «**rayon**» tushunchasi haqiqiy geografik borliq va shu bilan birga ma'muriy hududlarga ham tegishli. Uning ustiga, ushbu so'zni barcha holatlarda mahalliyashtirish — nohiya yoki tumanga o'girish maqsadga muvofiq emas. Shu nuqtai nazardan oddiy tabiiy geografik rayonlarni (tog', cho'l voha va h.k.) tuman, iqtisodiy rayonlarni-iqtisodiy nohiya shaklida aytish mutlaqo noto'g'ri.

Iqtisodiy rayon hosil qiluvchi omillar ham hududiy mehnat taqsimoti omillariga o'xshab ketadi. Chunki, iqtisodiy rayonlar hududiy mehnat taqsimoti jarayonining hosilasi, natijasidir (hududiy mehnat taqsimoti → ixtisoslashuv → iqtisodiy rayon). Bu omillar tabiiy boyliklar, mehnat resurslari, hududning yaxlitligi, yirik rayon hosil qiluvchi markaz yoki markazlarning mavjudligi va, albatta, iqtisodiy geografik o'rin hamda ixtisoslashgan xo'jalik tarmoqlarining shakllanganligidir. Demak, bu yerda eng avvalo ikki muhim omilni ko'rsatish mumkin: iqtisodiy (tabiiy va mehnat resurslari asosida ixtisoslashuv) va geografik (hududning yaxlitligi va uning geografik joylashganligi).

Iqtisodiy rayonlar dunyoning barcha mamlakatlarida, ularning maydonini katta-kichikligidan qat'iy nazar, mavjud. Bu rayonlar yirik iqtisodiy mintaqa (zona), asosiy va mahalliy darajada bo'ladi. Shuningdek, iqtisodiy rayonlarni ma'muriy-hududiy birliklar, masalan, viloyat miqyosida ham ajratiladi-

yuzida yomon joy yo‘q, balki *nodon* geograf bor. Sababi, har bir joy, landshaft albatta ma‘lum bir sohaga qulay, boshqasiga noqulay bo‘lishi mumkin; **asosiy maqsad** — ana shu joyning nimaga qulayligini aniqlash va undan to‘g‘ri foydalanishdir. Shunday qilinsa, ko‘pgina ekologik muammolarning oldi ham olinar edi.

Yer yuzida tog‘ ham yaxshi, tekislik ham, suv ham, quruqlik, cho‘l va voha ham, shahar va qishloq ham va h.k. Lekin ularning har biri ma‘lum, muayyan maqsadda yaxshi. Ayni vaqtda bunday «*geojuft*»larning borligi dunyoning butligi, jamiyat taraqqiyoti, hududiy mehnat taqsimotining amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

Tabiiy omillardan tashqari hududiy mehnat taqsimotiga ijtimoiy-iqtisodiy omillar, xususan hozirgi vaqtda bozor iqtisodiyoti omili katta ta‘sir ko‘rsatadi. Qolaversa, tabiiy va mehnat resurslari xo‘jalikning rivojlanish va joylanishiga qulaylik yaratish mumkin, ammo shu mahsulotni yetishtirish yoki yetishtirmaslik talab va ehtiyojga, bozorga bog‘liq. Binobarin, hozirgi davrda nimaga ixtisoslashuvni eng avvalo bozor belgilaydi.

Hududiy mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, tashqi iqtisodiy aloqalar transportsiz amalga oshmaydi. Transport iqtisodiy geografik jarayonlarni harakatga keltiruvchi asosiy kuch, iqtisodiyotning qon tomiridir.

Hududiy mehnat taqsimotining bir necha bosqichlari (darajalari) mavjud:

- xalqaro mehnat taqsimoti;
- mamlakatlararo mehnat taqsimoti;
- mamlakat ichidagi mehnat taqsimoti;
- yirik iqtisodiy mintaqalar (viloyatlararo) doirasidagi mehnat taqsimoti;
- viloyat ichidagi (quyi ma‘muriy rayonlar yoki tumanlararo) mehnat taqsimoti;
- mahalliy mehnat taqsimoti (qishloq tumanlari doirasida).

Birinchi va ikkinchi bosqichlarning har ikkisida ham mehnat taqsimoti davlatlararo bo‘ladi. Biroq, ikkinchisida bu taqsimot yirik hududiy-iqtisodiy Ittifoq yoki uyushmalar doirasida, masalan, Yevropa Ittifoqi, Shimoliy Amerika erkin savdo mintaqasi kabilarda amalga oshiriladi.

Hududiy mehnat taqsimotining bosqichlariga mos holda bozorlar shakllanadi va tovarlarning yuqori bozorlarga chiqishi, ixtisoslashuv faqat pastki, quyi darajadagi bozorlar to'yin-gan, to'ldirilgan holdagina sodir bo'ladi. Aynan shu maqsadda mamlakatimiz rahbariyati eng avvalo mahalliy, mintaqaviy va milliy bozorlar talabini to'la qondirish asosida xalqaro bozorga chiqishga, respublika mehnat taqsimotini rivojlanti-rishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

Iqtisodiy rayonlashtirish. Har bir fanning o'ziga xos va o'ziga mos, birlamchi tushunchasi bor. Masalan, biologiya-da *hujayra*, kimyoda *malekula*, fizikada *atom*, tarixda — *davr* va h.k. Geografiyaning bosh tushunchasi rayondir.¹ Iqtisodiy rayon esa iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchasi hisoblanadi.

Boshqa fanlarda bo'lganidek, birlamchi tushuncha ham oson va ham qiyindir. Umuman, rayon deganda ma'lum o'xshashlikka ega bo'lgan hududning bir qismi nazarda tu-tiladi. Tabiiy geografiyada, masalan, *botqoqlik*, *tepalik*, *tog'lik*, *tekislik*, *cho'l* va boshqa *landshaft* turlari **rayon** hisoblanadi, chunki ular shu jihatlari bilan atrof, qo'shni hududlardan farq qiladi. Iqtisodiy geografiyada *tog'-kon*, *dehqonchilik*, *chorvachilik*, *dam olish* kabi mintaqa-rayonlarni ajratish mumkin.

«Rayon» tushunchasining *murakkabligi* shundaki, u tash-qaridan qaraganda oddiy ko'rinsada, ichki tuzilishi bo'yicha rang-barang, murakkab hududiy tizimdir. Masalan, **Farg'ona** iqtisodiy rayonini olaylik; ushbu rayon (mintaqa) respublika mehnat taqsimotida avtomobilsozlik, oziq-ovqat sanoati, pax-ta va pilla, meva yetishtirishga ixtisoslashgan. Ammo mazkur tarmoqlar vodiyning barcha qismlariga ham xos emas; qolaversa bulardan tashqari mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlari ham mavjud.

Mazkur tushunchaning *yana bir mushkullik tomoni* uning hududiy ko'lami bo'yicha ko'p bosqichli, ko'p «qavatli», ekanligidir. Chunonchi, Janubi-sharqiy Osiyo, Yevropa, Si-bir, Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyati, Bekobod tumani,

¹ «Rayon» — fransuz tilidan olingan bo'lib, joy ko'rinishi, peyzaj ma'nosini bildiradi va shu mazmunda u xalqaro terminga aylangan. Bino-barin, uni hamma vaqt ham o'zbek tiliga o'girish shart emas.

barchasiga yagona **infrastruktura tizimi** — *yo'l, yer osti* va *yer usti qurilmalari, suv, elektr energiya* va boshqa shaxobchalar quriladi, natijada anchagina (taxminan 40 foizgacha) kapital mablag' tejraladi. Ana shunday masofa-transport harajatlarini kamaytirish hamda korxonalarining o'zaro faoliyat ko'rsatishi tufayli yuzaga kelgan samaradorlikni **iqtisodiy-geografik samaradorlik**, deb ta'riflash to'g'ri bo'ladi.

Masalan, paxta tozalash zavodlari odatda paxta yetishtiruvchi rayonlarda quriladi. Agar ularga yaqin joyda yog' zavodi qurilsa, yana ayni muddao bo'ladi, ushbu korxonalar chiqindilari asosida esa chorvachilik fermalarini ham rivojlantirsa bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bir hududda ishlab chiqarishning qator korxona yoki tarmoqlari: paxta dalalari, paxta tozalash va yog' zavodlari, chorva fermasi mavjud. Ularning barchasi uchun yagona infrastruktura va aholi joylashuv tizimlari xizmat qiladi.

Yana boshqa bir misol: sho'x oqar tog' daryosiga GES qurildi, deb faraz qilaylik. GES, ya'ni arzon elektr energiya asosida «energiyatalab» sanoat korxonalari, jumladan alyuminiy zavodi tashkil etiladi, uning negizida esa kabel yoki elektrtexnika mashinasozligi, radio va priborsozlikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratiladi. Bulardan tashqari, suv ombori pastki hududlarni sug'orishda, uning atrofida sport, dam olish (rekreatsiya) zonalarini barpo qilishda ahamiyatli bo'ladi. Ko'rib turibsizki, bir hududda ishlab chiqarishning qator tarmoqlari mavjud.

Yuqoridagi misollardan ayon bo'lishicha, hududiy ishlab chiqarish majmualari ma'lum bir joyda ishlab chiqarish korxona tarmoqlarini yagona infrastruktura hamda aholi joylashuvi va tizimlari asosida barpo etish va ularni o'zaro uyg'unlashtirilgan holda rivojlantirishni anglatadi. Shu ma'noda ular, shubhasiz, iqtisodiy geografiya fanining eng katta yutug'idir.

Hududiy majmualar faqat iqtisodiyotdagina emas, balki noishlab chiqarishda, jumladan aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etishda ham bor. Chunonchi, *tibbiyot, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo majmualari* (komplekslari) shular jumlasidandir. Masalan, korxona yonida *dorixona, poliklinika, diagnostika markazi; bolalar bog'chasi* va *yaslining* birgalikda joylashuvi; *sartaroshxona, turli xil*

ta'mirlash korxonalari, kimyoviy tozalash, hammom va boshqalar bir joyda hududiy majmua shaklida tashkil etiladi.

Hududiy ishlab chiqarish (va noishlab chiqarish) majmualari *kombinatlashuv* jarayoni asosida vujudga keladi. Ma'lumki, ishlab chiqarishni ijtimoiy va hududiy tashkil etishning bu shaklida bir xom ashyodan bir necha xil mahsulot yetishtirish yoki bir hududda — joyda turli korxonalarni qurish mumkin.

Albatta, hududiy mujmualarning iqtisodiy samaradorligi ma'lum bir chegarada yuzaga keladi. Agar bunday majmualar haddan tashqari hududiy va tarkibiy jihatdan kattalashtirilsa iqtisodiy samaradorlik evaziga qator qiyinchiliklar, muammolar vujudga keladi: xom ashyo va mehnat resurslari yetishmaydi, transport harajatlari ko'payadi, ekologik vaziyat buziladi, boshqarish qiyin bo'ladi va h.k. Binobarin, hududiy majmualarning nisbatan kichikroq bo'lgani ma'qul (aksariyat rivojlangan xorijiy davlatlarda xuddi shunday).

Endi, hududiy ishlab chiqarish majmualarini iqtisodiy geografiyaning oldingi tushunchalari bilan munosabati, aloqasini ko'rib chiqaylik. Bu o'rinda aytish mumkinki, har qanday iqtisodiy rayon o'ziga xos hududiy ishlab chiqarish majmuasidir (bu yerda majmua mintaqaviy rivojlanishning maqsadi yoki real holati bo'lishi mumkin). Ammo, yuqorida aytganimizdek, hududiy ishlab chiqarish majmualarini iqtisodiy rayonlarning quyi, mahalliy bosqichlariga muvofiq holda qarash ma'qulroq.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari ham hududiy mehnat taqsimotining natijasidir. Shu bilan birga ular ma'lum ma'noda bu taqsimotning aksi, hisoblanadi. Chunki, agar hududiy mehnat taqsimoti oqibatida ishlab chiqarish iqtisodiy makonda parchalansa, hududiy majmuasida ular, aksincha, birlashadi, to'planadi, ya'ni *differensiatsiya integratsiyaga* olib keladi. Biroq, hududiy majmualar doirasida ham mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, hududiy va ishlab chiqarish mujasamlashuvi mavjud.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari iqtisodiy yo'nalishlari bo'yicha turlicha; ular *tog'-kon, qayta ishlash, qishloq xo'jaligi, agroindustrial, rekreatsiya-turizm, dengiz xo'jaligi, poytaxt shaharlar ta'sir doirasida* shakllanishi mumkin. Har qanday holda ham ular iqtisodiy geografiyaning eng muhim,

sifat jihatidan mukammal tizim ko'rinishiga ega bo'lgan belgisidir. Balkim iqtisodiy geografiyaning iqtisodiyot geografiyasi emas, iqtisodiy geografiya bo'lishiga ham aynan ana shu hududiy majmualar sababchidir. Shu bois hududiy ishlab chiqarish majmualari hozirgi iqtisodiy geografiyaning asosiy tadqiqot ob'yekti hisoblanadi.

Iqtisodiy geografik o'rin — iqtisodiy geografiyaning aniq tushunchasi, uning «kalitidir». Chunki, ushbu tushuncha orqali korxona, shahar yoki boshqa hududiy ob'ektlarning nima uchun xuddi shu joyda qurilganligi va nima sababli shu darajaga yetganligini anglab olinadi. Shu naqta nazaridan iqtisodiy geografik o'rin iqtisodiy geografik bilimning o'ziga xos usulidir (iqtisodiy rayonlashtirishga ham xuddi shunday metod sifatida qarash mumkin).

Iqtisodiy geografik o'rin — bu ma'lum bir hududiy ob'yektning, ya'ni korxona, shahar, viloyat, yoki mamlakatning o'zidan tashqarida yotgan geografik ob'ektlarga (tog', daryo, dengiz, chegara, konlar, yo'l va h.k.) nisbatan joylashuvi va ularning ko'rilyotgan ob'yektning iqtisodiy rivojlalishiga ta'siri demakdir.

Bu yerda quyidagilarga e'tibor bermoq lozim:

— iqtisodiy geografik o'rin tushunchasida ko'rilyotgan ob'yekt bitta, yagona, uning tashqarisidagi, atrofdagilar esa bir nechta;

— markaz va tashqi ob'ektlar o'rtasida hududiy-iqtisodiy aloqa va munosabatlar bo'ladi va ular bir tomonga, ya'ni ko'rilyotgan joyga nisbatan tahlil etiladi;

— iqtisodiy geografik o'rin tarixiy tushunchadir, chunki ma'lum bir joyning o'rni vaqt o'tishi bilan qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin;

— iqtisodiy geografik o'rin turli bosqichli (mikro, mezo va makro o'rin) va har xil tarkibiy qismlarga ega (gidrogeografik, agrogeografik, transport-geografik o'rin va h.k.);

— iqtisodiy geografik o'rin davlat darajasida ko'rilganda u siyosiy mazmunga, ya'ni siyosiy geografik o'rin ma'nosini oladi.

Qator misollarga murojaat qilaylik: Toshkent viloyatidagi **Bekobod** shahrida respublikamizda yagona qora metallurgiya korxonasi qurilgan. Nima uchun ushbu korxona aynan shu shaharda joylashtirilgan? Sababi — Bekobodning iqtisodiy

geografik o'rni qulay: u Toshkent, Mirzacho'l hamda Farg'ona iqtisodiy rayonlariga yaqin joylashgan; shahar yaqinida Farhod GES, qurilish bazasi — sement zavodi ham mavjud; korxona mahsuloti asosan Toshkent sanoati uchun kerak.

Nima sababdan **Chust, Nurota, G'ijduvon, Xiva, Shahrisabz** kabi shaharlar juda qadimiy, boy tarixga ega bo'lishiga qaramasdan hamon katta markaz emas, yaqindagina vujudga kelgan **Navoiy** esa tez orada katta shaharlar qatoriga kirdi? Bu savolga ham javobni ko'proq ularning iqtisodiy geografik o'rnidan qidirish kerak.

Yer yuzidagi aksariyat yirik shaharlar ularning qulay geografik o'rni orqali mashhurdir. Masalan, **Stambul, Singapur, Aleksandriya, Volgograd, Novosibirsk, Shanxay, Sankt-Peterburg, London, Rim, Rio-de-Janeyro** va h.k.

Jahon geosiyosiy xaritasida va hamjamiyatida **Buyuk Britaniya, Yaponiya, AQSH** kabi davlatlarining yuqori darajada taraqqiy ekanligi va, ayni vaqtda, **Afg'oniston, Nepal, Butanga** o'xshash mamlakatlarning nisbatan sust rivojlanganligini, qoloqligi ko'p jihatdan ularning geografik o'rni bilan izohlanadi. Vatanimiz — **O'zbekiston** bir vaqtlar «*Buyuk ipak yo'lida, katta karvon yo'li*»da joylashganida juda qulay geografik mavqega ega edi. Keyinchalik jahon madaniyati va savdosida dengiz hamda okeanlar ahamiyatining oshishi natijasida bu qulaylik o'z kuchini yo'qotdi. Hozirgi kunda esa yurtimizning iqtisodiy geografik o'rnini yana yaxshilashga katta e'tibor berilmoqda.

Iqtisodiy geografik o'rin katta harbiy va siyosiy mazmunga ega. Bunga misol qilib, Ikkinchi Jahon urushida Gitler qo'shinlarining Moskva va Staliningradga jon-jahdi bilan hujumi yoki Misr Arab Respublikasidagi Aleksandriyadagi bo'lgan janglarni keltirish mumkin. **Napoleon:** «Agar Kiyevni olsam Rossiyani oyog'idan ushlayman, Peterburgni zabt etsam uni bo'g'izlayman, Moskvani egallasam Rossiyaning yuragini majoqlayman», — degan edi. Mashhur rus olimi **N.N. Baranskiy:** «Dnepr Rossiyani O'rta dengiz mamlakatiga Volga esa uni Osiyo mamlakatiga aylantiradi», — deb yozgan edi.

O'zbekiston Respublikasining geosiyosiy va geostrategik mavqei, uni yaxshilash va undan samarali foydalanish masalalari mamlakat Prezidenti **I.A. Karimov**ning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik

shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (T., 1997) kitobida keng yoritib berilgan.

Iqtisodiy geografik o‘rin mamlakat va mintaqalar xo‘jaligining tarkibiy tuzilishi, ixtisoslashuvi hamda ularning istiqbolda rivojlanish yo‘llarini ham ma‘lum darajada belgilab beradi. Shu bilan birga u qulay investitsiya makonini vujudga keltirishda, qo‘shma korxonalar qurishda, erkin iqtisodiy mintaqalarni shakllantirishda ham muhim, ba‘zan hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Iqtisodiy geografiyani «sher» deb bilsak, uning «oyoqlari» qaysilar?
2. 14 kishidan iborat talabalar guruhini O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy tuzilishiga muvofiq holda ajrating (12 viloyat, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahri), ularning mamlakat hududiy mehnat taqsimotida tutgan o‘rni bo‘yicha o‘zaro iqtisodiy aloqalarini tushuntirib bering.
3. O‘zingiz yashab turgan joyda hududiy majmualarga misollar toping.
4. Nima uchun iqtisodiy rayon kerak va uning iqtisodiy geografiya faniga qanday aloqasi bor?
5. Xohlagan shahar, iqtisodiy rayon yoki mamlakatning iqtisodiy geografik o‘rnini ta’riflab bering.

III BOB

IQTISODIY GEOGRAFIYA FANINING TARIXI, SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Odatda, u yoki bu fanning vujudga kelishi uchun ijtimoiy talab, ehtiyoj yoki «buyurtma» bo'lishi kerak. Bundan oldin esa shu fanga tegishli turli axboriy ma'lumotlar, ob'yektiv borliqdan olingan, to'plangan dastlabki bilimlar va taxminlar shakllanadi, so'ngra turli voqeliklar orasidagi sabab-oqibat munosabatlari hamda ma'lum sharoitda takrorlanib turadigan qonuniyat, aloqadorliklarni asoslash imkoniyati tug'iladi. Demak, ob'yektiv borliqni kuzatish, mushohada qilish tez-tez uchraydigan voqealarni tahlil qilish negizida muayyan fanga doir bilimlar majmuasi vujudga keladi, ular asta-sekin ilmga va fanga aylanadi.

Har qanday fan haqiqiy fan maqomiga ega bo'lishi, shakllanishi uchun o'zining ob'yekti, predmeti, metodi va metodologiyasi (usuli va uslubiyoti), asosiy tushuncha, kategoriya va qonuniyatlari, maktab, markaz va yo'nalishlariga, salmoqli ilmiy asarlar, tadqiqotlarga ega bo'lishi va uning boshqa fan vakillari tomonidan tan olinishi va hurmat qilinishi talab etiladi. Shuningdek, mazkur fanning o'quv predmeti sifatida o'qitilishi, maxsus fakultet, kafedra yoki laboratoriyalarning tashkil etilishi ham katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy geografiya fani ham yuqoridagi shart-sharoitlar, ob'yektiv zaruriyatlar asosida vujudga kelgan va rivojlanib borgan. Dastlab «iqtisodiy geografiya» tushunchasini buyuk rus qomusiy olimi **M.V. Lomonosov** XVIII asrning oltmishinchi yillarida ishlatgan, uni fan va muomalaga kiritgan («tabiiy geografiya» tushuncha va fanining asoschisi mashhur nemis olimi **A. Humbold** hisoblanadi). Biroq u davrda iqtisodiy geografiya fani shakllanmagan, faqat shunday atama yoki tushuncha paydo bo'lgan, xolos.

Mazkur fanning aniq bir tashkil topgan yili, joyi ma'lum emas. Har holda tadqiqotlar ko'rsatishicha, u XIX asrning

birinchi yarmida, asosan Germaniyada ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalarini o'rganish va statistika fanining vujudga kelishi bilan bog'liq holda faoliyat boshlagan.

Iqtisodiy geografiya fanining shakllanish jarayoni uning asosiy tushunchalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan sodir bo'lgan. Masalan, avvalgi bobda ko'rganimizdek, bu fanning «poydevorini» eng avvalo hududiy mehnat taqsimoti hamda iqtisodiy rayonlashtirish ta'limotlari tashkil qiladi. Binobarin, iqtisodiy geografiyaning tarixini aynan ana shu ikki nazariy tushunchalar belgilaydi. Jumladan, **Yu.G. Saushkin**ning aytishicha, iqtisodiy geografiya fanining tarixi — bu *iqtisodiy rayonlashtirish* tarixidir. Agar ana shundan kelib chiqadigan bo'lsak, iqtisodiy geografiya fanining yaratilishida rus olimi *K.I. Arsenyevning* xizmatlari ham buyuk bo'lgan. (u 1818 hamda 1848 yillarda Rossiyani iqtisodiy rayonlarga ajratgan).

Umuman olganda, mazkur fanning shakllanish va rivojlanishi O'zbekiston nuqtai nazardan kelib chiqqan holda 3 asosiy davrga bo'lish mumkin: *sovetlargacha, sovet davri va mustaqillik* yillari.

Birinchi davr iqtisodiy geografiyaga doir ma'lumot va bilimlarning shakllanishi, uning fan sifatida vujudga kelishini o'z ichiga oladi (taxminan XX asrning 20-yillarigacha).

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy geografik mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlar bizning yurtimizda ham bo'lgan. Bunday ma'lumotlar vatandoshlarimiz **Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur, Behbudiy** kabi allomalarning asarlarida bor (ammo ularning geografik meroslari yaxshi o'rganilmagan). Shu bilan birga ko'pgina iqtisodiy geografik ma'lumotlar Xitoy va Arab sayyohlarining kitoblarida ham yoritilgan. Ular yurtimizda savdo, hunarmandchilik va ayniqsa, bozorlar va shaharlarga katta e'tibor berishgan. Demak, aynan ana shu shahar va bozorlar tafsiloti orqali o'lkamizning o'sha davrdagi iqtisodiy tarixiy geografiyasini bilib olishimiz mumkin.

Hududiy mehnat taqsimoti keng ko'lamda XIX asrda, yirik sanoat ishlab chiqarishi hamda xalqaro savdo-sotiq va transport tizimi asosida rivojlanib bordi. Bu esa iqtisodiy makonning ichki turlanishiga va ayni vaqtda iqtisodiy geografik bilimlarga bo'lgan ehtiyojlarga olib keldi.

Shu bilan birga buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng Yer sharida ochilmagan joy qolmadi. Endi geotizim o'zining

«berk» xususiyatini oldi. Bu esa shakllanib bo'lgan jahonnnig geoiqtisodiy va geosiyosiy makonini mamlakat va mintaqalar doirasida chuqur o'rganishni dolzarb qilib qo'ydi, ekstensiv, oddiy-kuzatish va tanishishdan intensiv ilmiy tadqiqotlarga, hududiy tahlil, tashxis va bashorat qilishga o'tildi.

1749 yilda nemis olimi **N. Anxenval** statistika to'g'risidagi kitobini nashr ettiradi va ushbu fanga asos soladi. Uning statistikasi mamlakat hayotiga oid barcha miqdoriy ko'rsatkichlarga (davlat chegarasi, maydoni, aholisi, armiyasi, qazilma boyliklari va h.k.) bag'ishlanganligi sababli u davlatshunoslik (state — shtat, ya'ni davlat), kameral statistika mazmuniga ega edi. Germaniya statistikasida fakt va raqamlar juda ko'p bo'lib, u eng avvalo mamlakat hayotini miqdor jihatidan tasvirlab berardi, xolos («opisatel'naya statistika»). Shu sababdan uning tahliliy, ilmiy ahamiyatiga ko'ra axboriy tomonlari ko'proq bo'lgan.

Shu davrda ingliz iqtisodchisi **U. Pettining** ham statistika to'g'risidagi asari chop etiladi. Uning bu kitobida mamlakat siyosiy-iqtisodiy hayoti va savdo-sotiq bilan bog'liq ma'lumotlarga, ularning tahliliga hamda ayrim qonuniyatlarga e'tibor berilgan. Demak, U. Petti statistikasining, aniqrog'i matematik statistikasining fanga yaqinligi ancha yuqori (uni ba'zilar «siyosiy arifmetika» deb yuritishgan).

Bizning taxminlarimizga ko'ra, nemis statistikasi keyinchalik iqtisodiy geografiyaga, ingliz statistikasi esa avvalgi siyosiy iqtisod — hozirgi iqtisodiy nazariya fanlariga asos bo'lib xizmat qilgan. Aynan nemis statistikasi ta'sirida Rossiyada ham statistika va iqtisodiy geografiya fanlari shakllangan.

Geografiya va shu jumladan iqtisodiy geografiyaning vujudga kelishida geografik determinizm yo'nalishi hamda nemis olimi **F. Ratselning** «Antropogeografiya» va «Siyosiy geografiya» kitoblari ham qisman sababchi bo'lgan. Ayniqsa bu borada Germaniyada ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan bog'liq tadqiqotlarning ahamiyati katta. Jumladan, **I. Tyunen** (1826 y.) qishloq xo'jaligini shahar atrofida xalqasimon joylashtirish, **A. Veber** (1909 y.) sanoat korxonalarini turli omillardan kelib chiqqan holda hududiy tashkil qilinishini o'rganishgan. Keyinchalik ularning vatan-doshlari **V. Kristaller** va **A. Leshlar** aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini joylashtirish va umuman xo'jalik tarmoqlarini

hududiy tashkil etishni tadqiq qilishgan; A. Lesh (XX asr 40-chi yillari) iqtisodiy landshaft yoki, hozirgi zamon tili bilan aytganda, iqtisodiy rayonlar, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalikni joylashtirish masalalarini chuqur va atroflicha tahlil etgan.

Shunday qilib, iqtisodiy geografiyaning fan maqomida shakllanishida nemis statistikasi va «shtandort» (joy, joylashtirish) yo'nalishining ahamiyati katta bo'lgan. Qolaversa, dunyoda ilk bor geografiya fakulteti va kafedralari ham aynan Germaniya oliy o'quv yurtlarida tashkil etilgan.

Ta'kidlash lozimki, Germaniyada vujudga kelgan bu ilmiy yo'nalishlar shu vaqtda Rossiyaga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Chunonchi, **V.N. Tatishev** (XVIII asr) **P.P.** va **V.G. Semenov-Tyanshanskiy, K.I. Arsenyev** (XIX) kabi rus olimlarining tadqiqotlari asosan nemis statistikasi va geografiyasi ruhida olib borilgan. 1820 yillarda Peterburg universitetining tarix fakultetlarida tashkil etilgan dastlabki kafedralarning nomi ham «**geografiya va statistika**» deb atalgan. Bevosita iqtisodiy geografiya fani uchun esa **K.I. Arsenyevning** Rossiyan iqtisodiy rayonlashtirilishi to'g'risidagi ishlari katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilish mumkinki, birinchi davrda iqtisodiy geografiya fanining vujudga kelishiga zamin yaratilgan. Ammo aynan shu nomda bu fanning rasmiy paydo bo'lishi keyinroq sodir bo'lgan. Chunonchi «**iqtisodiy geografiya**» nomli ilmiy jurnal AQSHda, shu nomdagi kafedra Germaniya va Rossiyada XX asrning birinchi choragida tashkil qilingan.

O'zbekistonda iqtisodiy geografiya fanining tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonini o'rganishda **sobiq Ittifoq davrini** ham e'tiborga olmoq zarur. Bu davrda mazkur fan, asosan nemis maktablari ta'sirida, avval Peterburgda rivojlanib borgan. Unda sof iqtisodiy va xususan tarmoq hamda statistik raqamlarga ko'p ahamiyat berilganligi sababli iqtisodiy geografiyada «**tarmoq-statistika**» yo'nalishi ustuvor bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, XX asrning 20-yillarida iqtisodiy geografiya iqtisodiyot fanlari tizimiga kiritilgan.

Albatta, fanni faqat raqamlar bilan to'ldirish va geografiyani faqat tarmoqlar tahlili bilan tushuntirish maqsadga muvofiq emas. Binobarin, asosiy ilmiy manbalari iqtisodchi bo'lgan **Bernshteyn-Kogan** va **N.N. Baranskiylar** iqtisodiy

geografiyaning hududiy jihatlariga ko'proq ahamiyat berishning tarafdorlari bo'lib chiqishgan va natijada ular iqtisodiy geografiyada rayonlar yo'nalishini kuchaytirishgan. Demak, iqtisodiy geografiya yanada geografiylashtirilgan, rayonlar ta'rifi va tavsifiga katta urg'u berilgan. Ehtimol bu holat iqtisodiy geografiyani iqtisodiyot tizimidan geografiya fanlari blokiga kiritilishiga sabab bo'lgandir.

Iqtisodiy geografiya Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillardagi xo'jalikni qayta tiklash ishlarida katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan. Shu nuqtai nazardan 20-yillarda Moskvada tashkil etilgan KEPS («Комитет по использованию природных ресурсов») va uning asosida SOPS («Совет по изучению производительных сил») ning vujudga kelishi nihoyatda muhim bo'lgan. Ushbu ilmiy-tadqiqot tashkilotlari mamlakatning turli hududlarida tabiiy resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha ilmiy g'oyalar sxemalarini yaratgan-ki, mohiyatan bu ishlar iqtisodiy geografiya fani doirasida olib borilgan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasidagi SOPS ham boshqa ilmiy-tadqiqot institutlari va 1940 yilda Toshkent Davlat Universiteti — hozirgi O'zbekiston Milliy Universitetida ochilgan iqtisodiy geografiya kafedrasida olimlari bilan hamkorlikda yirik hududiy-iqtisodiy tadqiqotlarni bajargan. Masalan, Farg'ona vodiysining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, Angren—Olmaliq, Buxoro—Navoiy, Qashqadaryo, Mirzacho'l, Quyi Amudaryo hududiy ishlab chiqarish majmualari to'g'risidagi ishlar shular jumlasidandir. Mazkur tadqiqotlarni amalga oshirishda **S.K. Ziyodullayev, V.I. Chetirkin, Cherdansev, K.N. Bedrinsev, K.I. Lapkin, V.I. Popov, Z.M. Akramov, SH.N. Zokirov, I.I. Iskanderov, M. Abdusalomov, E.A. Ahmedov, A.S. Soliyev** kabi olimlarning xizmatlari katta bo'lgan.

Sobiq Ittifoq davrida iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishida Moskva, Peterburg, Kiyev, Qozon, Perm, Irkutsk, Voronej, Boku, Tbilisi, Toshkent, Almati va boshqa shaharlardagi universitetlarning roli muhim bo'lgan. Ayniqsa, bu xususda, N.N. Baranskiy, N.N. Kolosovskiy, B.N. Semevskiy, O.A. Konstantinov, V.V. Pokshishevskiy, Yu.G. Saushkin, I.A. Vitver, I.M. Mayergoyz, S.B. Lavrov, A.T.Xrushev kabilar juda samarali xizmat qilishgan.

O'zbekistonda, asosan ToshDU ning iqtisodiy geografiya kafedrasida ikki ilmiy yo'nalish: qishloq xo'jaligi va aholi geografiyasi mutaxassisligi shakllangan. Ushbu yo'nalishlar bilan aloqador bo'lgan iqtisodiy rayonlashtirish, shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy muammolari, aholishunoslik (demografiya) masalalari ham keng tadqiq qilib borilgan, qator ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etilgan. Respublikada asta-sekin ilmiy maktab va markazlar ham shakllanib borgan va bu borada **Z.M. Akramov, M. Qoraxonov, O.B. Otamirzayev, A.S. Soliyev, A.N. Ro'ziyev, X.S. Salimov, A.A. Qayumov** va boshqa olimlarning xizmatlari kattadir.

O'rta maktabga doir darsliklar avval **N.G. Sapenko** va **N.V. Smirnov**, keyinchalik **Z. Akramov** va **P. Musayevlar** hammuallifligida yozilgan. Toshkent, Farg'ona, Nukus, Samarqand, Namangan, Termiz, Qarshi universitet va institutlari o'rta va oliy maktablar uchun ko'pgina mutaxassislar tayyorlab berishgan. Sobiq Ittifoq davrida yuqoridagi olimlardan tashqari, **T. Raimov, G. Asanov, T. Egamberdiyev, S. Saidkarimov, O. Abdullayev, M. Yangiboyev, T. Mallaboyev, T. Jumanov, Ye. Umarov, I. Safarov, M. Bo'riyeva, M. Yusupov, T.R. Tillayev, Sh. Imomov, N. Sultonov, A. Sodiqov** va boshqa bir necha o'nlab mutaxassislar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Ko'rilayotgan davrda iqtisodiy geografiya fanining ta'rifi ham o'zgarib, zamon talabiga moslashib borgan. Masalan, agar u, avval turli mamlakat va rayonlar xo'jaligini, ishlab chiqarish kuchlarini joylanish xususiyatlarini o'rganuvchi fan hisoblansa, keyinchalik uning predmeti hududiy ishlab chiqaruvchi majmualar, jamiyatni hududiy tashkil etish va boshqarish bilan tavsiflandi.

O'tgan asrning yetmishinchi yillarida iqtisodiy geografiya sobiq Ittifoqda rasman «**iqtisodiy va sotsial geografiya**» nomini oldi. Tabiiyki, uning ilgarigi ta'rifi, ishlab chiqarish geografiyasi ekanligi sharoitida to'g'ri kelmay qoldi. Shuning uchun an'anaviy iqtisodiy geografiyaning ta'rifi ijtimoiy, noishlab chiqarish sohalari, aholining turmush sharoiti va tarzining hududiy jihatlarini bilan boyitildi.

Mustaqillik davrida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya yangi siyosiy va iqtisodiy sharoitda rivojlanib kelmoqda. Eng avvalo

ta'kidlash lozimki, mazkur fanning asosiy g'oya va tushunchalari hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari va boshqalar ilmiy ahamiyatini hozir ham saqlab qolgan, ularga faqat «kommunistik» dunyoqarash, o'ta markazlashgan totalitar tizimni planlashtirish prinsiplaridan holi holda yondashuv kerak, xolos.

Iqtisodiy geografiya fanining mustaqillik davridagi rivojlanishi mamlakatimizning siyosiy mustaqillikka erishuvi va uning iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tishi bilan belgilanadi. Shuningdek, bu fanning yangi vazifalari ham vujudga keldi. Ular jumlasiga O'zbekistonning yoqilg'i-energetika, don, yo'l (transport) mustaqilligiga erishishi, qishloq joylarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni davlat tomonidan tartibga solib borish, mintaqaviy iqtisodiyot va mintaqaviy siyosat, iqtisodiy geografiyaning ekologik muammolari va boshqa dolzarb masalalarni o'rganish kiradi.

Respublika olimlari iqtisodiy geografiyada siyosiy, ijtimoiy, tarixiy, ekologik yo'nalishlarni yanada rivojlantirishga jiddiy ahamiyat bermoqdalar. Bularning natijasida noan'anaviy mavzular, chunonchi, aholiga xizmat ko'rsatish, fan va ilmiy tadqiqotlar, tibbiyot geografiyasi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli yoqlandi, *siyosiy, jinoyatchilik, rekreatsiya* va *xalqaro* turizm geografiyasi bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda ham iqtisodiy geografiya «frontal» rivojlanib, boshqa, jahonning ilg'or mamlakatlariida bo'lganidek, asta-sekin keng ma'nodagi ijtimoiy geografiyaga aylandi. Shu bilan birga uning tarkibiy qismi hisoblangan iqtisodiy geografiya mustaqil mamlakatimizning bozor munosabatlariga o'tishi bilan bog'liq hududiy muammolarni tadqiq qilishda o'zining munosib hissasini qo'shib bormoqda.

Iqtisodiy geografik tadqiqotlar O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent iqtisodiyot universiteti, O'zFA Geografiya bo'limi, Samarqand, Namangan, Farg'ona, Nukus, Termiz universitetlarida, Toshkent moliya institutida olib borilmoqda. Ushbu fanning rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Geografiya jamiyatining xizmati ham beqiyosdir. Ayni vaqtda mamlakatimizning yetuk olimlari, ilmiy maktab va markazlari

xorijiy davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston respublikalari) bilan ham uzviy aloqada tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Shu bilan birga iqtisodiy geografiya fani oldida turgan vazifalar ham talaygina. Ular eng avvalo mazkur fanning yangi sharoitda nazariy masalalarini o'rganish, uning obro' va nufuzini ko'tarish, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishining hududiy tomonlarini chuqur tadqiq qilish va bu borada ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, umumta'lim va oliy o'quv yurtlariga, kollej va akademik litseylarga o'qituvchilarni hamda ularga zamonaviy o'quv qo'llanma va darsliklarni tayyorlashdan iborat.

Hozirgi o'zgaruvchan hayotda iqtisodiy geografiyaning ahamiyati yanada oshib bormoqda. U harakatdagi dunyoni, xalqaro, milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni turli miqyosda o'rganadi, yuksak geografik madaniyat va geografik fikrlashni shakllanishiga katta xizmat qiladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Iqtisodiy geografik bilimlar nima uchun kerak?
2. Iqtisodiy geografiya fanining tarixiy manbalari qaysilar va ular qaysi davlatlarda shakllangan?
3. Iqtisodiy geografiyaning statistika bilan qanday aloqadorligi mavjud?
4. Sobiq Ittifoqda iqtisodiy geografiya qanday rivojlanib bordi?
5. O'zbekistonda iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishini ta'riflab bering.
6. Sizni maktabda o'qitgan geograf o'qituvchingiz qaysi oliy o'quv yurtini bitirgan va u bergan bilimga munosabatingiz qanday?
7. Iqtisodiy geografiya bilan ijtimoiy geografiya o'rtasidagi farqni tushuntirib bering.

IV BOB

IQTISODIY GEOGRAFIYADA TABIAT VA JAMIYATNING ALOQADORLIGI

Tabiat bilan jamiyat, tabiat va inson munosabati geografiya fanining bosh falsafiy masalasidir. Aynan shu masala tabiiy va iqtisodiy, aniqrog'i ijtimoiy geografiyani birlashtiradi, o'zaro aloqadorlikda rivojlanishini taqozo etadi.

Tabiat va inson o'rtasidagi munosabat ikki tomonlama bo'lib, u ilmiy muvozanat holatini saqlab qolmog'i lozim. Ushbu dialektik va dinamik muvozanat eng avvalo insonning tabiatga qay darajada ta'sir ko'rsatishiga, uning tabiat qonunlarini qanchalik e'tiborga olganligiga bog'liq.

Yer shari va uning alohida qismlarining ta'sirini shunga mos holda tabiiy geografiya o'rganadi. Biroq, bu juftlikning ikkinchi tomonini, ya'ni jamiyatni yoki insonni faqat iqtisodiy geografiyaga taalluqliligi noto'g'ridir, chunki *«inson va tabiat»* *«tabiat va jamiyat»* bo'lishi mumkin, ammo *«tabiat va iqtisod»* uncha qovushmaydi. Shuning uchun iqtisodiy geografiya garchi ijtimoiy geografiyaning asosiy qismi bo'lsa-da, murakkab jamiyat hayotini o'rganuvchi fan albatta keng qamrovli ijtimoiy geografiya hisoblanadi.

Tabiat inson, jamiyat rivoji uchun eng avvalo sharoit yaratadi va bu sharoit qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. Binobarin, mamlakat va mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini faqat tabiiy omillar bilan belgilash noto'g'ridir. Bunday holda biz geografik determinizmning noto'g'ri talqiniga o'tib qolamiz.

Ma'lumki, jamiyat rivojlanishi turli xil tabiiy, tarixiy, siyosiy, texnologik va boshqa omillarga bog'liq. Shularga mos holda geografik, biologik, tarixiy, texnologik determinizm haqida so'z yuritish mumkin (**«dete»** — belgilash, aniqlash ma'nosini bildiradi). Deterministik dunyoqarash hodisa va voqealiklar ostida yotgan sabab-oqibat aloqadorligini, dialektik qonuniyatlarni anglab olishga yordam beradi. Biroq uni

haddan tashqari boʻrttirib yuborish ham xatodir. Sababi-jamiyat rivojlanishi faqat u yoki bu omilgagina emas, balki koʻpgina sharoit va omillar majmuiga bogʻliq. Ayni vaqtda determinizmni tamomila inkor etish ham notoʻgʻridir, chunki yuqoridagi omillarning taʼsiri u yoki bu darajada albatta mavjud.

Oʻtmishda, masalan XVII-XIX asrlarda geografik determinizmga juda katta eʼtibor berilgan, hatto kishilarning xarakteri, yurish-turishi davlat tuzumi ham faqat mamlakatning tabiiy sharoiti (ayniqsa iqlimi va yer usti tuzilishi), geografik joylanishi bilan tushuntirilgan. Maʼlumki, togʻ va tekislik, sovuq yoki issiq, choʻl yoki vohada yashovchilar bir-birlaridan xulq-atvor, yurish-turishlari bilan farq qiladilar. Bu haqda vatan-doshimiz **Abu Rayhon Beruniy**: «Odamlar tuzilishining, surat, tabiat va axloqda turlicha boʻlishi faqatgina nasablari-ning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning turlichaligidan hamdir» deb yozgan edi. Bu albatta haq gap. Lekin tabiiy geografik omillar orqali mamlakat va rayonlar-ning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini, ularning siyosiy tuzumini uzil-kesil izohlash ham toʻgʻri emas.

Geografik determinizmni jamiyat rivojlanishida birdan-bir omil sifatida qarash ayniqsa, Germaniya, AQSH va Buyuk Britaniyada keng tarqalgan edi. Germaniya va Shvetsiyada hududga siyosiy mazmun berish asosida, geografik determinizmning siyosat bilan qoʻshilishi natijasida oʻta reaksion geografik siyosat, **geosiyosat** vujudga kelgan edi. Uning asoschilari nemis **F. Ratsel** va shved **R. Chellen** boʻlgan (XIX asr). Aynan ana shunday mafkura, jahonni qayta taqsimlash haqidagi geosiyosiy qarashlar jahon urushlarini, xalqaro mojarolarni keltirib chiqargan.

Fransiyada vujudga kelgan **possibilizm** (A. Blash) tabiatga boʻlgan munosabatni biroz «yumshaytirilgan» yoʻnalishi hisoblanadi. Ushbu gʻoya asosida tabiiy sharoitdan foydalanish imkoniyat va variantlari, unga moslashgan va muvofiq holda xoʻjalikni yuritish yotadi. Demak, shunday dunyoqarash haqiqatga birmuncha yaqindir, ammo bu yerda ham tabiat ustunligi va ayni vaqtda inson kuch-qudratining tabiat oldida zaifligi sezilib turibdi.

Umuman olganda, tabiat va jamiyatning u yoki bunisiga katta urgʻu berish ham notoʻgʻridir; ular tarozuning ikki palla-

sidek doimiy muvozanatda bo'lmog'i lozim. To'g'ri, insoniyat taraqqiyotida avvallari tabiat ustunlik qilgan, keyinchalik esa jamiyatning tabiatga ta'siri kuchayib borgan; shaharlar rivojlanishi, urbanizatsiya va industriyalashtirish, aholi soni va zichligining ortib borishi kabi muvozanatning buzilishi, ekologik halokat va buhronlarga olib kelgan. Shuning uchun 1992 yilda **Rio-de-Janeyro** (Braziliya) shahrida bo'lgan **BMT** ning atrof-muhitga bag'ishlangan navbatdagi yig'ilishida «barqaror rivojlanish» («konsepsiya ustoychivogo razvitiya») g'oyasi qabul qilingan. Unga muvofiq jamiyatning rivojlaniishi, tabiiy sharoit va resurslardan foydalanish tabiat zarari, bo'lajak avlod hisobidan bo'lmasligi kerak.

Tabiat qonunlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot qonunlaridan vujudga kelishi, davomiyligi, tezligi va boshqa jihatlari bilan farq qiladi. Shu nuqtai nazardan tabiat jamiyat oldida zaif, passivga o'xshab ko'rinadi. Ammo bu **I.V. Michurin** aytganidek, «Tabiatdan in'om-ehson kutmasdan, undan ko'proq olish kerak», degan ma'noni bildirmaydi. Tabiat qo'zg'alsa, uyg'onsa undan qudratli kuch yo'q. Masalan, *yer qimirlashlar, yong'in, suv toshqini, bo'ronlar, vulqonlarning* otilishi har qanday taraqqiy etgan mamlakatni, jamiyatni ham halokatga keltirishi mumkin.

Yer yuzida va uning turli qismlarida bo'lib o'tayotgan cho'llashuv jarayoni, tuproq eroziyasining kuchayishi, o'rmonzorlarning qisqarishi, suv va havo (atmosfera)-ning ifloslanishi oqibatida turli kasalliklarning vujudga kelishi ekologik muammolar umumbashariy, global muammolarga aylantirdi. Tabiat bizning har birimizdan qandaydir uzoqda, olisda — okeanda, tog' yoki tekislikda, cho'l, o'rmonzor voha va vodiya, daladagina emas, balki u bevosita atrofimizda, biz bilan va doimo bizga ta'sir qilib turibdi (shu nuqtai nazardan inson tabiatning bir bo'lagi hisoblanadi). Binobarin, Yer hamma xalq va millatning umumiy uyi va shu bois tabiatni e'zozlash, tozaligini saqlash, unga oqilona munosabatda bo'lish jahon hamjamiyatidagi barcha davlatlarning burchidir. Ushbu muammo yuqoridan, maxsus buyruq va ko'rsatkichlar bilan hal etilmaydi; buning uchun ekologik fikrlash, ekologik bilim va yuksak ekologik madaniyat talab etiladi.

Mohiyatan ekologik fikrlash geografik dunyoqarashga juda yaqin, chunki har ikkisida ham ta'sir va aks-ta'sir, o'zaro aloqadorlik kompleks va hududiy yondashuv muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan geografiya fanining ekologik madaniyatni shakllantirishda o'rni katta.

Yer yuzining tabiati har xil, dunyo hamjamiyatidagi mam-lakatlarning rivojlanganlik darajasi ham bir xil emas. Tabiatda ham, jamiyat taraqqiyotida ham o'ziga xos sikllik mavjud; Yer shari tabiatida muayyan hududiy tartib, zonallik qonuniyatlar bor, jahon hamjamiyati esa murakkab **geosiyosiy tizim** sifatida turli davlat va ularning chegaralari bilan bo'lingan. Tabiatda issiq mintaqa bilan bevosita sovuq iqlim mintaqasi yonma-yon turmaganidek, dunyo siyosiy xaritasi va geoiqtisodiy makonda ham rivojlanish darajasi tubdan bir-biridan farq qiluvchi davlatlarning o'zaro joylashuvi kam uchraydigan holatdir.

Shu bilan birga ba'zi tabiiy geografik qonuniyatlar iqtisodiy geografiya uchun ham ma'lum darajada xosdir. Chunonchi, tog' vertikal mintaqalari faqat tabiati bilan emas, balki xo'jalik yuritish, hududiy mehnat taqsimoti bilan ham farqlanadi; tekislik iqlim mintaqalari ularga xos va mos iqtisodiyot va aholi joylashuvi, xo'jalik ixtisoslashuv tizimiga ega, O'zbekiston Respublikasining dunyo okean va dengizlaridan uzoqda, ichkarida joylashuvi uning, kontinental iqlimidan tashqari, geosiyosiy va iqtisodiy geografik mavqeini ham belgilaydi va h.k.

Tabiatda ham jamiyatda, dunyo geosiyosiy tizimida ham chegaralar bor. Ammo tabiat chegaralari ma'muriy chegaralar singari qat'iy, «*Xitoy devori*»dek tirik, jonli tabiatni sun'iy ikkiga bo'lmaydi, ajratmaydi; tabiat chegaralari ancha turg'un, ma'muriy chegaralar esa o'zgaruvchan. Shuning uchun tabiiy geografik qonuniyatlarni o'rganishda ma'muriy chegaralar bilan cheklanish umumgeografik bilimni egallashga ziddir. Chunki har qanday chegara ma'lum bir holatning oxiri bo'lsa, boshqasining boshlanishi, avvalidir, ya'ni u o'tkinchi xarakterga ega. Shuning uchun, O'zbekiston Respublikasi tabiiy geografiyasini Turkiston tabiatidan ajratib, uni ma'muriy chegara doirasida o'rganib bo'lmaydi.

Iqtisodiyotda, dunyo siyosiy xaritasida ham chegaralar o'ziga xos xususiyatga ega. Eng avvalo ma'muriy chegaralar

har qanday suveren davlatning muhim belgisi, shartidir. Geografiyada esa bu chegaralarning shakli («geometriyasi») o'zaro qo'shni davlatlarning siyosiy tarixi, iqtisodiyotning, aholi joylashuvining xususiyatlarini ham aks ettiradi. Masalan, davlatlar o'rtasida oddiy va to'g'ri chiziq shaklidagi chegaralar (Afrikada, O'zbekistonning Turkmaniston va Qozog'iston bilan chegarasi, AQSH va Kanada, Indoneziya chegarasi va h.k.) ularning bir vaqtlar boshqa mamlakat mustamlakasi ekanligi, ushbu hududning xo'jalik jihatidan uncha ahamiyatli emasligi va aholisining siyrak joylashganligidan darak beradi. Qadimdan o'zlashtirilgan hududlarda esa davlat chegaralari o'ta murakkab, «arrasimon», **meandra** shaklida bo'ladi. Sababi bunday joylarda hududning har bir qismi katta iqtisodiy ahamiyatga ega.

Biz oldinroq tabiat va jamiyatni o'zimizning qadimgi ikki pallali qo'l tarozusiga o'xshatgan edik. Agar bu tarozuda tabiat «toshi» og'irlik qilsa uning iqtisodiy sig'imi past, ya'ni jamiyat qismi yengillik qiladi. Bunday holat qadimda mavjud bo'lgan, hozir esa jamiyatning tabiatga ta'siri, bosimi oshib bormoqda. To'g'ri, tabiat jamiyatga xizmat qiladi va ma'lum ma'noda unga bo'ysunadi, ammo jamiyat ham tabiatni e'zozlashi, avaylab-asrashi, to'g'ri muomalada bo'lishi kerak.

Tabiat va jamiyat, umuman olganda, yaxlit, bir butun murakkab tizim; ularni bir-biriga qarama-qarshi yoki birini ikkinchisidan ustun qo'yish ham noto'g'ri. Xuddi shunga o'xshash tabiiy geografiya bilan ijtimoiy (iqtisodiy) geografiya ham o'zaro aloqada: tabiiy sharoit va resurslar ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish nuqtai nazaridan, iqtisodiyot esa ishlab chiqarishni tabiatga ta'siri jihatidan ham o'rganishi lozim. Shuning uchun tabiiy geografiyada insonni, iqtisodiy geografiyada esa tabiatni, ekologik oqibatlarni unutmazlik kerak.

Iqtisodiy geografiya tom ma'noda (masalan, AQSH da) qishloq xo'jaligi, tog'-kon, o'rmonchilik va baliq sanoatidan iborat. Demak, uning tadqiqot doirasi bevosita tabiat va tabiiy resurslaridan foydalanish bilan bog'liq. Hozir ham tabiiy sharoit va boyliklarga iqtisodiy baho berish, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti iqtisodiy geografiya fanida muhim o'rinni egallaydi.

Masalan, geografik o'rinni tahlil qilganda mamlakat yoki mintaqaning dengiz va okeanlarga, yirik yoqilg'i-energetika, magistral yo'llarga uzoq-yaqinligi, boshqa davlatlar bilan chegaradoshligi kabi jihatlariga e'tibor bermoq lozim. Hudud **ichkarida** (Farg'ona vodiysi), **chekkada** (Qoraqalpog'iston respublikasi), o'ziga xos **geosiyosiy** vaziyatda (Surxondaryo viloyati) yoki **tranzit** holatda (Samarqand, Navoiy, Sirdaryo viloyatlari) joylashganligini ularning iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazardan turlicha baholash mumkin. Shuningdek, mamlakatning asosiy kiradigan va chiqadigan «darvozalari» (Olot, Qo'rg'ontepa, Qo'ng'iro't tumanlari), chegaraga yaqin yoki tutash hududlarning geografik o'rinlari ham o'ziga xos iqtisodiy geografik mazmun kasb etadi.

Geografik o'rinning turli bosqich va turlarini tahlil qilishda uning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy jihatlarini ham aniqlash talab qilinadi. Shu bilan birga mintaqa yoki mamlakatning geografik o'rnini yaqin kelajakda o'zgarish imkoniyatlari va shu asosda hududning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari oldindan bashorat qilinsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi (masalan, «Buyuk Ipak yo'li»ning tiklanishi, TRASEKA loyihasining amalga oshirilishining Ohangaron va Farg'ona vodiylariga ta'siri).

O'rganilayotgan hududning ustki tuzilishi, ya'ni relyefini ham iqtisodiy geografik nuqtai nazardan baholash katta ahamiyatga ega. Sababi — tog'lik yoki tekislik relyefi o'ziga xos xo'jalik sig'imi va transport tizimiga ega. Bu jihatdan ayniqsa hudud yer usti tuzilishining har xilligi geografik mehnat taqsimotini rivojlanishiga qulaylik yaratadi.

Relyef, uning geologik tarixi va tuzilishi qazilma boyliklarning mavjudligi, ularning turlariga ta'sir etadi. Chunki, tekislik, tog' landshaftlarining o'ziga xos qazilma resurslari bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda qazilma boyliklarning ko'p yoki kamligidan ko'ra ularning o'zaro joylashuvi, hududiy birikmalari muhimroq. Chunonchi, tog' relyefi, daryo, rangdor metallar rudasi yoki toshko'mir va temir ruda konining bir-biriga yaqinligi rangli va qora metallurgiya korxonalarini qurishda ayni muddaodir.

Iqlim sharoiti, agroiklimiy omillar — havo harorati, vegetatsiya davri, tuproq, namlik kabilar qishloq xo'jaligini

rivojlantirish va hududiy tashkil etish jihatdan o'rganilishi lozim. Iqlimning quruq yoki namligi, tuproq qatlamlari agrar sohaning muayyan yo'nalishlarini rivojlantirishga imkon beradi. Shu o'rinda, ayniqsa bizning sharoitimizda suv resurslariga ham jiddiy e'tibor bermoq zarur.

O'rganilayotgan hududning xususiyatidan kelib chiqqan holda uning o'rmon va hayvonot olamini ham tahlil qilish mumkin. Masalan, bunday yondashuv Kanada, Rossiyaning Sibir o'lkasi, Braziliya kabilarni o'rganishda katta mazmunga ega.

Tabiiy geografik komponentlar alohida-alohida («donalab») ko'rib chiqilgandan so'ng ular majmua shaklida baholanishi kerak. Chunki, tabiatda ham, iqtisodiyotda bo'lganidek, barcha komponentlar o'zaro aloqada va ular o'ziga xos *geotizimni* tashkil qiladi. Chunonchi, tog', cho'l, o'rmon, botqoqlik landshaftlarining organik va noorganik dunyosi, jonli va jonsiz tabiati turlicha. Bunday landshaft shakllari iqtisodiyot tarmoqlarini hududiy tashkil qilish, aholining joylanishi va salomatligida ham alohida mazmunga ega.

Shunday qilib, tabiat va jamiyat o'zaro aloqadorlikda, doimiy harakatda. Binobarin, iqtisodiy geografiyada «tabiat—aholi—xo'jalik» uchligiga katta ahamiyat beriladi. Ushbu tizimni to'rtlik, ya'ni «tabiat—aholi—xo'jalik—tabiat» shaklida ham qarash mumkin. U holda bunday yondashuv sikllik va ekologik mazmunga ega bo'ladi.

Ayni vaqtda iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga mos ravishda tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy (sotsial) muhit yoki makonni ajratish mumkin. O'z navbatida geoiqtisodiy, sotsial va tabiiy muhit ajralmas birlikni, yaxlit geografik makonni shakllantiradi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tabiat va jamiyat aloqadorligi geografiya fanida qanday mazmunga ega?
2. Geografik determinizm nima va unga Sizning munosabatingiz qanday?
3. Notabiiy geografik fanlar turkumini qanday atash to'g'riroq: iqtisodiy geografiyami yoki ijtimoiymi?

4. O'zingiz yashab turgan joy yoki o'rganayotgan mamlakatingizning geografik o'rni va tabiiy sharoitiga iqtisodiy baho bering.
5. Atrof muhitni saqlash to'g'risidagi «Barqaror rivojlanish» tushunchasining ma'nosi nima?
6. Tabiatda va iqtisodiy-siyosiy hayotda chegaralarning mohiyati qanday?
7. Tabiiy va iqtisodiy geografiyaga tegishli qanday qonuniyatlarni bilasiz (misollar yordamida tushuntiring)?

V BOB

SIYOSIY GEOGRAFIYA VA JAHON SIYOSIY XARITASI

Siyosiy geografiya keng ma'nodagi ijtimoiy geografiya-ning bir qismidir. U iqtisodiy, sotsial-iqtisodiy va sotsial geografiya bilan bir qatorda o'zining alohida blokini shakllantirmoqda. Ushbu blokka *harbiy* va *elektorial* (ya'ni saylovlar) geografiyasini kiritish mumkin.

Siyosiy geografiyaning tadqiqot ob'yekti bo'lib hududiy siyosiy tizimlar (sistemalar) xizmat qiladi. Uning predmeti esa muayyan mamlakat doirasida jamiyatning siyosiy-hududiy tashkil etilishini o'rganishdan iborat. Shuningdek, bu fan davlatlar va ularning chegaralari, davlat tuzumi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, mamlakat doirasida siyosiy partiya va kuchlarning joylanishi, hududiy tarkibini o'rganadi. So'nggi yillardagi jahon hamjamiyatidagi, jahon geosiyosiy tizimidagi muhim o'zgarishlar hamda davlatlararo tashkil etilgan harbiy-siyosiy uyushma yoki ittifoqlar siyosiy geografiya tadqiqot predmetini yanada kengaytirmoqda.

Mazkur fanning tarixi ham ancha uzoq. Agar keng ko'lamda qaraydigan bo'lsak, uning vujudga kelishi dastlabki davlatlarning paydo bo'lishiga borib taqaladi, chunki siyosiy geografiya uchun davlat (demak, uning hududiy yaxlitligi, chegarasi, boshqarish tashkilotlari, harbiy va siyosiy kuchlari) asosiy mazmun kasb etadi.

Ammo siyosiy geografiyaning fan sifatida shakllanish tarixi uncha uzoq emas. Dastavval «siyosiy geografiya» tushunchasi, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, XVIII asrning 20-50-yillarida Peterburgda (Rossiyada) xizmatda bo'lgan nemis olimlari **G.V. Kraft** va **X.N. Vinsgeym**lar tomonidan tilga olingan. Ular ushbu tushunchani geografiya fanining bir qismi, tarixiy geografiya va statistika (davlatshunoslik) bilan aloqadorligini ta'kidlashgan. Siyosiy geografiyani haqiqiy fan sifatida shakllanishini esa ko'pchilik nemis geografi va sotsiologi **Fridrix**

Fon Ratsel nomi bilan bog'laydilar. U 1898 yilda shu nomda kitob nashr ettirganligi uchun siyosiy geografiyaning «otasi» deb tan olingan. Shu bilan birga Ratselning aynan mazkur asari tufayli shved **R. Chellen** «geosiyosat» tushunchasini yaratdi.

Siyosiy geografiya geografiya va siyosatshunoslik qirrasidagi ijtimoiy geografik fandır. U o'z navbatida tarix va geosiyosat bilan ham yaqindan aloqa qiladi. Biroq, geosiyosat va siyosiy geografiya bir-biriga juda yaqin bo'lsa-da, ularning orasida farq bor: geosiyosat asosan davlatlarning tashqi siyosati, siyosiy geografiyaning tadqiqot ob'yekti esa ularning ichki hududiy-siyosiy tuzilishidir. Ayni vaqtda har ikki fan ham jahon geosiyosiy tizimi, siyosiy xaritasi bilan ish tutadi.

Hozirgi vaqtda jahon siyosiy xaritasida 200 dan ortiq mustaqil davlatlar mavjud (1998 yil ma'lumotiga ko'ra 193 ta, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilinganlari 185 ta bo'lgan). Birgina XX asrda suveren davlatlar soni 4 marta ko'paygan, shu jumladan, Afrikada 4 tadan 53 taga, Osiyoda 9 tadan 48 taga yetgan; Avstraliya va Okeaniyada 1900 yilda birorta mustaqil davlat bo'lmagan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 14 tani tashkil etadi.

Yer sharidagi davlatlar o'zlarining katta-kichikligi, geografik o'rni va joylanishi, siyosiy tuzumiga ko'ra bir xil emas. Chunonchi, Rossiya Federatsiyasi, Kanada, AQSH, Xitoy Xalq Respublikasi, Braziliya, Avstraliya, Hindiston kabi hududi nihoyatda katta mamlakatlar bilan bir qatorda o'nga yaqin juda kichik, «mitti» davlatlar ham bor (eng kichigi Rim shahri ichidagi **Vatikan** bo'lib, uning maydoni 400 km², aholisi 1 ming kishidan iborat). Aholi soniga ko'ra dunyoning eng katta davlatlari **Xitoy, Hindiston, AQSH, Indoneziya, Jazoir, Sudan, Kongo, Saudiya Arabistoni** va boshqalardir (2001 yil ma'lumotlariga ko'ra, 100 milliondan ortiq aholiga ega bo'lgan 11 ta davlat mavjud).

Geografik joylanishiga ko'ra mamlakatlar orolda, yarim orolda, dengiz va okeanlar bo'yida, materik ichkarisida joylashganligi bilan farq qiladi. Masalan, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Kipr, Yaponiya, Maldiv Respublikasi, Kuba, Indoneziya, Fillipinga o'xshash hamda Okeaniyadagi kichik davlatlar orollarda, Janubiy va Shimoliy Koreya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Norvegiya, Shvetsiya kabilar yarim

orollarda joylashgan. Ko'pchilik davlatlar bevosita jahon okeani va dengizlari bo'yida o'rnashgan, ayrimlari esa (Boliviya, Paragvay, Nepal, Butan, Afg'oniston, Qozog'iston, Armaniston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Avstriya, Lyuksemburg, Shvetsariya, Chad, Markaziy Afrika Respublikasi va hokazo) materik ichkarisida. Masalan, O'zbekiston Respublikasi jahon okeaniga chiqishi uchun eng kamida 2 tadan xorijiy mamlakat hududidan o'tishi kerak. Bu xususan u dunyo geosiyosiy xaritasida yagona mamlakat hisoblanadi.

Mamlakatni ichki jihatdan tashkil etish va boshqarish ko'p jihatdan hududining qiyofasiga va geoshakliga ham bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan mamlakat hududining ixcham (kompakt) bo'lgani ma'qul. Bunga misol qilib, Fransiya yoki Polsha davlatlarini keltirish mumkin. Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya, Vetnam yoki Chili davlatlarining hududi esa uzoq masofaga cho'zilgan. Bunday mavqe, albatta, transport va boshqa infrastruktura tizimini rivojlantirish, aholiga xizmat ko'rsatish va hatto harbiy strategik jihatdan ham qulay emas.

Xuddi shu o'rinda davlatlar hududining yaxlit, bir butun yoki **anklav**, **eksklav** shakllariga ega bo'lishi ham ma'lum ahamiyatga ega. Anklav shakli mamlakat hududining boshqa mamlakat hududiga suqilib kirishi (dengiz qo'ltig'i, yoki yarim orollarga o'xshab) demakdir. Bunga misol qilib Toshkent viloyatining chekka shimoli-sharqiy qismi, Farg'ona viloyatining So'x tumani, qo'shni Tojikiston Respublikasi So'g'd (avvalgi Leninobod) viloyatining Zafarobod tumani va boshqalarni keltirish mumkin. Eksklavda esa davlat chegarasining yaxlit emasligi, uning kichikroq hududini asosiy hududdan tamomila ajralib qolgan holati tushuniladi. Masalan, AQSHning Alyaska va Gavayi orollari (49, 50 shtatlari), o'zimizning O'zbekistondagi Farg'ona viloyatining Shohimardon qishlog'i, Rossiya Federatsiyasining Kaliningrad viloyati va b.).

Siyosiy geografiyada davlat chegarasi, uning shakli ham katta ahamiyat kasb etadi. Odatda, bu chegaralar ikki vazifani bajaradi — ular hududlarni bir-biridan ajratib, baryer sifatida va ayni vaqtda ikki davlatni tutashtirib, aloqa, iqtisodiy integratsiya maydoni darajasida xizmat qilishadi. Shu bilan birga chegaraga tutash rayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi o'ziga xos bo'ladi.

Davlatlarning siyosiy geografik oʻrni va siyosiy tuzumi ham har xil. Siyosiy geografik oʻrin deganda biz maʼlum bir davlatning boshqa (qoʻshni va jahon hamjamiyati) davlatlariga hamda yirik davlatlararo harbiy va siyosiy uyushmalarga nisbatan tutgan oʻrnini tushunamiz. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasining hozirgi siyosiy geografik oʻrni uning Afgʻoniston bilan chegaradoshligini uncha qulay deb boʻlmaydi.

Mamlakatlarning davlat tuzumi asosan ikki xil, yaʼni **monarxiya** va **respublika** shaklida boʻladi. Monarxiya davlat tuzumining eng qadimgi shakli boʻlib, u oliy davlat hokimiyatining yakka bir shaxsga — monarxga (podshoh, qirol, shoh, amir, sulton va h.k.) boʻysunishini bildiradi. Oʻz navbatida monarxiyaning ham turli koʻrinishlari mavjud. Masalan, mutlaq monarxiyada davlat boshligʻining roli cheklanmagan va unga barcha oliy mansablar taalluqli boʻladi, davlat rahbarligi avloddan-avlodga meros sifatida oʻtib boradi (Birlashgan Arab amirligi, Qatar, Oman va b.).

Cheklangan monarxiyada davlat boshligʻining funksiyasi konstitutsiya yoki parlament orqali cheklangan. Masalan, Shvetsiya konstitusion monarxiya, Buyuk Britaniya esa parlament monarxiya tuzumiga ega (bu mamlakatda asosiy vazifani premyer — ministr, yaʼni bosh vazir bajaradi).

Yuqoridagilardan tashqari, monarxiyaning mutloq **teokratik** («teo» — din) shakli ham mavjud. Bunday tipdagi davlatlarda (Vatikan, Saudiya Arabistoni, Brunej) davlat boshligʻi ayni vaqtda diniy boshliq hisoblanadi. Vatikanda monarx Rim Papasi, Saudiya Arabistoni esa barcha rahbarlik (Bosh vazir, Oliy sudya, Oliy qoʻmondon va hokazo) faqat yakkayu-yagona qiroлга boʻysunadi.

Davlat tuzumining respublika shakli ham ancha qadimiy (eng qadimiy respublika San-Marino Respublikasi boʻlib, u 301 yilda tashkil topgan). Respublika ham oʻz navbatida prezident va parlament respublikasi shaklida boʻladi. Birinchisida, saylangan prezident ayni vaqtda davlat va hokimiyat boshligʻidir; u hatto parlamentni oldindan tarqatib yuborish huquqiga ham ega. Respublikaning bunday koʻrinishi AQSH, Braziliya, Oʻzbekiston, Qozogʻiston va boshqa davlatlarda amal qiladi.

Parlamentar respublikada prezident huquqi biroz cheklangan boʻlib, unda hokimiyat parlamentga shaklan boʻysunsa-

da u amalda asosiy boshqaruvchi shaxs hisoblanadi (Germaniya Federativ Respublikasi, Malayziya, Hindiston, Avstriya, Polsha, Italiya va b.).

Hozirgi davrda er sharida respublika tuzumidagi davlatlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ularning umumiy soni 150 ga yaqin, monarxiya tuzumiga esa taxminan 30 ta davlat kiradi.

Davlat tuzumi mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi bilan ham bog'liq. Odatda, davlatlar ma'muriy-hududiy tuzilishining ikki — **unitar** va **federativ** shakli mavjud. Unitar davlatlarda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organ bitta, konstitutsiya ham yagona. Ularning ichidagi ma'muriy birliklar, masalan, viloyat, rayon kabilarning huquqi uncha katta emas. Bunday davlatlar soni juda ko'p: Fransiya, Ukraina, Turkmaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Yaponiya va h.k.

Federativ davlatlarning ichki siyosiy tuzilishi ancha murakkab: bu yerda «davlat ichida davlatlar» mavjud bo'ladi. Yagona davlat tarkibidagi **respublika, shtat, okrug, yer, kanton, provinsiya** kabilar o'zlarining konstitutsiyasi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlariga ega. Ularning siyosiy jihatdan mavqei ancha yuqori. Chunonchi, AQSH, Braziliya, Hindiston, Meksikaga o'xshash 20 ga yaqin federativ davlatlar tarkibida shtatlar (state, shtat — davlat demakdir), GFRda yerlar, Rossiyada — respublikalar mavjud.

Davlat ma'muriy tuzilishining **konfederatsiya** shaklida uning ichki birliklari o'zlarining mustaqilligini to'la saqlagan bo'ladi. Bunday geosiyosiy tizim Shveytsariya kuzatiladi; «Shveytsariya konfederatsiyasi» 22 ta kantonlardan iborat.

Dunyo siyosiy xaritasida tom ma'nodagi **koloniya** va **mustamlakalar** deyarli yo'qolgan bo'lsa-da, siyosiy jihatdan qulay yoki bo'ysunuvchi hududlar hanuzgacha bor. Bularga Portugaliya, Daniya, Frantsiya, AQSH, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning yer sharining turli chekkalarida qolgan avvalgi mustamlakalari, kichik, to'la mustaqil bo'lmagan hududlari kiradi. Ular, masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo, Okeaniya, Karib dengizi havzasida bor.

Shu o'rinda Buyuk Britaniya boshchiligidagi **Hamdo'stlik davlatlariga** ham to'xtalib o'tish lozim. Ma'lumki, «Buyuk Britaniya» dastavval 1707 yilda Angliya, Shotlandiya va Irlandiyani qo'shilishidan tashkil topgan edi. 1931 yilda

vujudga kelgan Buyuk Britaniya Hamdo'stligiga hozirgi vaqtda 50 dan ortiq davlatlar, shu jumladan, Avstraliya, Yangi Zellandiya, Kanada kiradi (umumiy maydoni 30 mln. km², aholisi esa dunyo aholisining 1/6 qismini tashkil qiladi). Hamdo'stlik tarkibidagi tuzumga ega bo'lgan davlatlar oliy hokimiyat sifatida Buyuk Britaniya qirolichasiga bo'ysunadi.

Dunyo siyosiy geografiyasini yaxshiroq bilish uchun uni alohida qit'alar doirasida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Yevropa. Maydoni, Rossiya Federatsiyasiz, 5,9 mln. kv.km. bo'lib, uning hududida 40 dan ortiq mustaqil davlatlar bor. Ulardan 32 tasi respublika, qolganlari monarxiya (asosan konstitutsion monarxiya) tipidagi davlatlar; 5 ta davlat federativ tuzilishga ega. Maydoni jihatdan nisbatan katta davlatlar Fransiya, Ukraina, Ispaniya, GFR; shu bilan birga bu yerda 6 ta «mitti» davlatlar ham joylashgan: Andorra, Lixtenshteyn, Vatikan, Monako, San-Marino, Malta (eng kichigi Vatikan). Yevropada birorta 100 mln.dan ortiq aholisi bo'lgan davlat yo'q. Eng katta davlat GFR-da 85 mln. kishi atrofida aholi yashaydi. Ayni vaqtda Islandiya — 0,3, Lyuksenburg — 0,4 mln, Andorrada 40, Lixtenshteyn va Monakoda 27 mingdan, San-Marinoda 22, Vatikanda atigi 1 ming kishi aholi bor, xolos.

Ko'rinib turibdiki, Yevropaning siyosiy xaritasi ancha murakkab; bu yerda davlatlar juda «zich» joylashgan, o'rta-cha har bir davlatga taxminan 140 ming kv.km dan maydon to'g'ri keladi. Yoki bu O'zbekistonga nisbatan 3 baravardan ko'proq kichkina, demakdir. Agar Rossiyaning Osiyo qismini ham hisobga olsak, Yevropaning umumiy maydoni 10 mln.kv.km., aholisi 695 mln.kishi (Rossiya Federatsiyasining 75 foiz aholisi Yevropada, shuncha foiz maydoni Osiyo qit'asida joylashgan.) Turkiyaning ham asosiy hududi Osiyoda o'rnashgan.

Yevropa siyosiy geografiyasini Shimoliy, G'arbiy, Janubiy, Markaziy va Sharqiy Yevropa mintaqalari doirasida o'rganish tavsiya etiladi. Shu bilan birga ushbu qit'aning siyosiy geografik tahlilida «janjalli» yoki siyosiy mavqei aniq bo'lmagan hududlar, harbiy, siyosiy-hududiy birlashma va ittifoqlarga ham e'tibor berish kerak. Masalan, sobiq Yugoslaviya hududidagi Kosovo, Moldaviyadagi Dnestr bo'yi respublikasi, Shimoliy Irlandiya, Korsika oroli kabilar siyosiy jihatdan bar-

qaror hududlar hisoblanmaydi. Gibraltar esa (6,5 kv.km) 1713 yildan beri Buyuk Britaniya qaramog'ida.

Ma'lumki, 1949 yilda AQSH tashabbusi bilan **NATO** (Shimoliy Atlantika bloki) tashkil qilingan. Hozirgi kunda uning tarkibiga 16 mamlakat kiradi, shundan 14 tasi Yevropada joylashgan. So'nggi yillarda ushbu tashkilot sharqqa tomon kengayib bormoqda.

Shuningdek, 1973 yilda tashkil topgan Yevropada havfsizlik va hamkorlik bo'yicha tashkilot (**OBSE**) ham asosan Yevropada faoliyat ko'rsatadi. Unga Barcha Yevropa davlatlaridan tashqari AQSH va Kanada ham a'zo bo'lgan. (jami 40 ga yaqin mamlakatlar). Inson huquqi, demokratiyani himoya qilish maqsadida 1949 yilda **Yevropa Ittifoqi** ham tashkil qilingan.

NATO ning «poytaxti» **Bryussel**, (Belgiya), Elniki **Strasburg** shahri (Fransiya). Ayni vaqtda Shveysariya, Norvegiya, Shvetsiya, Avstriya, Irlandiya va Malta **betaraf** mamlakat hisoblanadi.

Osiyo qit'asida Janubi-G'arbiy, Janubiy, Janubi-Sharqiy, Sharqiy va Markaziy Osiyo siyosiy geografik mintaqalari ajratiladi. Umumiy maydoni, Rossiyani hisoblamaganda, 31 mln.kv.km., aholisi 3,6 mlrd. kishidan ortiq. Eng katta davlatlar XXR, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Qozog'iston, Mo'g'uliston, Indoneziya, Eron. Ularning har birini maydoni 1 mln.kv.km.dan ortiq. (Xitoyniki 9,6 mln.kv.km.) Eng kichik davlatlar qatoriga Singapur va Baxreyn (1 ming kv.km.), Bruney (5 ming), Maldiv respublikasi (0,3 ming kv.km.) kiradi.

Aholi soni bo'yicha dunyoning eng katta davlatlari: XXR (2001 yilda 1,3 mlrd.ga yaqin), Hindiston (1,03 mlrd.), Indoneziya (206 mln. atrofida). Shuningdek, Osiyoda aholisi 100 mln. kishidan ziyod bo'lgan Bangladesh, Pokiston va Yaponiya davlatlari ham joylashgan. Ayni vaqtda Quvaytda 2 mln, Kiprda 0,7, Katarda 0,6, Butanda 0,8, Bruney va Maldiv respublikasida 0,3 ming kishidan ortiq aholi yashaydi.

Davlat tuzumi bo'yicha respublikalar ko'proq. Shu bilan birga bu yerda yakkayu-yagona **imperiya** shaklidagi davlat ham saqlanib qolgan (Yaponiya). Markaziy Osiyo va Kavkaz orti mustaqil davlatlari, Suriya, Kipr, Isroil, Pokiston, Bangladesh, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Livan, Laos, Xitoy, Indoneziya, Mo'g'uliston, Iroq, Kampuchiya, Shri-Lanka va

boshqalar **respublika**, Yaponiya, Baxreyn, Bruney, Butan, Qatar, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Malayziya, Nepal, Oman, Tayland kabilar monarxiya tipidagi davlatlarga kiradi.

Osiyoda ham «issiq» yoki «olovli», bahs va munozarali hududlar ko'p. Ular jumlasiga Falastin, Kurdiston, Kipr, Afg'oniston, Tog'li Qorabog', Abxaziya, Checheniston, Janubiy Osetiya, Kashmir, Tayvan, Tibet, Janubiy Kuril orollari va boshqalar kiradi. Shuningdek, Janubiy va Shimoliy Koreya, Myanma (avvalgi Birma), Shri-Lanka, Kaspiy dengizi muammolari ham mavjud.

Hududiy-siyosiy tashkilotlardan quyidagilar bor:

— 1945 yilda tashkil topgan **Arab mamlakatlari Ligasi** (markazi — Qohira shahri);

— 1989 yilda vujudga kelgan Osiyo-Tinch okeani davlatlarining iqtisodiy hamkorligi (**ATES**). Unga hozirgi vaqtda 20 dan ortiq mamlakatlar, shu jumladan AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Rossiya, Yangi Zelandiya, Koreya Respublikasi, Indoneziya, Filippin, XXR, Meksika, Chili, Tayland, Malayziya va boshqalar kiradi.

— 1993 yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (**EKO**) tashkil topgan. U Turkiya, Eron, Pokiston, Afg'oniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'izistonni birlashtiradi.

Afrika siyosiy geografik jihatdan eng «yangi» va ayni vaqtda eng murakkab qit'a hisoblanadi (umumiy maydoni 30,3 mln.kv.km, aholisi 820 mln kishiga yaqin). Afrikaning ko'pchilik mustaqil davlatlari o'tgan asrda, xususan uning 60-yillarida vujudga kelgan. Shu bilan birga bu yerda «eng yosh» mustaqil davlat — Namibiya (avvalgi Janubi-G'arbiy Afrika) joylashgan bo'lib, u bu maqomni 1990 yilda olgan.

Afrika siyosiy xaritasi chindan ham o'zbek atlasini matosi-ni eslatadi, u nihoyatda rang-barang. Bu yerda 50 dan ortiq davlat bor; qizig'i shundaki, ularning aksariyati **respublika** shaklidagi siyosiy tuzumga ega. **Monarxiya** tuzumi faqat Lesoto, Marokash va Svazilendda mavjud, xolos.

Maydoni bo'yicha eng katta davlatlar: Sudan (2,5 mln.kv.km.) Jazoir yoki Aljir (2,4 mln kv.km.), Angola (1.2 mln kv.km), Misr Arab Respublikasi (1,0 mln.kv.km.), Kongo (avvalgi Zoir 2,3 mln.kv.km.) Liviya (1,8 mln kv.km.), Niger (1,3 mln kv.km.), Chad (1,3 mln kv.km.), Janubiy Afrika

Respublikasi (1,2 mln kv.km), Mali (1,2 mln kv.km.), Mavritaniya (1,0 mln kv.km.). Shu bilan birga kichikroq davlatlar ham yo'q emas, ular asosan orollarda joylashgan. (masalan, Kabo-Verde mamlakatining maydoni atigi 4 ming kv.km. ga teng).

Aholi soni bo'yicha faqat Nigeriya «yuzmingliklar» qatoridan joy olgan. Qolgan davlatlar ichida bu jihatdan Misr Arab Respublikasi, Efiopiya, Kongo, JAR ham biroz ajralib turadi. O'rtacha bir Afrika davlatiga 560 ming kv.km yer maydoni va 15 mln kishi aholi to'g'ri keladi.

Afrikada, boshqa qit'alarga qaraganda siyosiy-hududiy tashkilotlar kamroq. Bu yerda 1963 yilda tuzilgan Afrika birligi tashkilotini ko'rsatish mumkin, xolos (markazi Addis-Abeba shahri). Unga 30-dan ortiqroq qit'a davlatlari kiradi.

Afrika mamlakatlarini siyosiy geografik jihatdan Shimoliy, G'arbiy, Markaziy yoki Ekvatorial Afrika hamda Sharqiy va Janubiy Afrika mintaqalariga bo'lish mumkin. Albatta, siyosiy-iqtisodiy nuqtai nazardan Shimoliy va Janubiy Afrika nisbatan yuqoriroq darajada rivojlangan, Markaziy Afrika (ayniqsa, Saxroi Kabirdan janubda joylashgan davlatlar) esa bu borada eng orqada turadi.

Qit'alar orasida Afrika siyosiy jihatdan eng harakatchan, o'zgaruvchan, mojaroli region hisoblanadi. Bu yerda, boshqa mintaqalarga nisbatan, o'tgan asrda tez-tez davlat to'ntarishlari bo'lib o'tgan.

Amerika iqtisodiy, tarixiy va siyosiy geografik jihatdan ichki tafovutlarga ega. Uning umumiy maydoni (Grenlandiya orolisiz) 42,5 mln.kv.km. Grenlandiya bilan birgalikda esa Amerika Osiyodan sal kichikroq, ammo qolgan materiklarning barchasidan katta.

Amerikaning siyosiy-hududiy tuzilishi. AQSH va Kanada, Lotin Amerikasi va O'rta Amerika miqyosida tahlil qilish mumkin. Birinchisining tarkibidagi AQSH davlati **respublika** tuzumiga ega bo'lgan federativ mamlakatlardir (u 50 ta shtatdan iborat). Kanada ham federativ davlat bo'lib, u Buyuk Britaniya Hamdo'stligiga kiradi. Binobarin, bu yerda davlat boshlig'i qonun bo'yicha Buyuk Britaniya qirolichasi hisoblanadi. Kanada tarkibiga katta huquqqa ega bo'lgan 100 ta provinsiya kiradi.

AQSH va Kanada davlatlari maydoni jihatidan uncha katta farq qilmaydi (9,6 va 10,0 mln.kv.km), ammo aholi soni AQSH da Kanadaga qaraganda deyarli 9 marta ziyod (AQSH da, 2001 yillar ma'lumotlariga ko'ra 285 mln, Kanadada 31 mln kishi yashaydi).

Lotin Amerikasi 33 mustaqil davlatlarni o'z ichiga oladi. Ularning barchasi **respublika** davlat tuzumiga mansub. Ushbu mamlakatlarning «Lotin Amerikasi» deyilishiga sabab ularning aksariyati lotin tillarida (ispan va portugal) so'zlovchi xalqlar guruhiga kirishidir. Shundan taxminan 1/3 xalqlar portugal tilida (Braziliya), 3/5 qismdan sal ko'prog'i ispan tilida so'zlashadilar.

Mazkur qit'a ham Afrikaga o'xshab o'tgan asrda siyosiy jihatdan ancha o'zgaruvchan bo'lgan; bu yerda juda ko'p siyosiy to'ntarishlar bo'lib o'tgan (masalan, Kuba, Gvatemala, Panama, Nikaragua, Chili va boshqalar).

Hududi va aholi soni bo'yicha eng katta mamlakat **Braziliyadir** (maydoni 8,6 mln.kv.km., aholisi 172 mln. kishidan ortiq). **Meksika** Qo'shma shtatlarining maydoni 2,0 mln.kv.km. ga yaqin aholi soni esa 100 mln. kishini tashkil qiladi. **Argentina, Kolumbiya** va **Peru** davlatlarining maydoni ham ancha katta (mos ravishda 2,8; 1,1 va 1,3 mln.kv.km), ammo ularning har birida 25-40 mln.dan aholi yashaydi, xolos. Lotin Amerikasining qolgan mamlakatlari hamda Karib dengizi havzasidagi davlatlarida demografik salohiyat bundan ham oz. Masalan, **Beliz, Gayana, Surinam, Barbados, Dominian, Grenada** aholisi hatto 1 mln. kishiga ham yetmaydi.

Amerika hududida davlatlararo turli iqtisodiy va siyosiy ittifoqlar mavjud. Ularga, jumladan 1992 yilda tashkil qilingan Shimoliy Amerika erkin savdo mintaqasi (**NAFTA**), 1948 yilda vujudga kelgan Amerika davlatlararo tashkiloti (u barcha Lotin Amerika mamlakatlari hamda AQSH va Kanadani birlashtiradi), 1975 yilda tashkil topgan 26 mamlakatlarni o'z tarkibiga oluvchi Lotin Amerika iqtisodiy tizimi (markazi Karakas shahri) kiradi.

Shimoliy va Janubiy Amerikada ham mojaroli va siyosiy barqarorlikka xos bo'lmagan hududlar bor. Ular masalan, Kanadaning Kvebek provinsiyasi, Folklend (Malvin orollari va boshqalardir. Shuningdek, bu yerda AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiyaga siyosiy jihatdan tobe' hudud-

lar anchagina (Puerto-Riko, Bermud, Sen-Pyer va Mikelon orollari va h.k.) Yer sharidagi eng katta orol — Grenlandiya rasman Daniya Qirolligiga bo'ysunadi (maydoni, 2,2 mln. kv.km).

Avstraliya va Okeaniyada mustaqil davlatlar soni ancha kam bo'lib, ularning barchasi faqat XX asrning ikkinchi yarmida tashkil topgan. Ushbu geografik ob'ektlarning umumiy maydoni taxminan 8,6 mln.kv.km, aholisi atigi 31 mln.kishi. Eng katta davlat **Avstraliya** hisoblanadi. U dastavval Avstraliya Ittifoqi nomini olgan, so'ngra 1951 yilda to'la mustaqillikka erishgan. Ammo hozir ham u rasman Buyuk Britaniya Hamdo'stligiga qaraydi. Avstraliya federativ davlat, u 6 ta shtatdan iborat. **Yangi Zelandiya** ham 1951 yilda mustaqillikni qo'lga kiritgan. Uning maydoni 271 ming kv.km., aholisi 4 mln.ga yaqin.

Shunday qilib, Avstraliya va Yangi Zelandiya ushbu regionning eng yirik davlatlaridir. (Avstraliya bir qit'a, materikni to'la egallagan dunyodagi yagona mamlakat hisoblanadi). Papua-Yangi Gvineya ham Tinch okeanning janubidagi katta davlatlar qatoriga kiradi. U Yangi Gvineya orolining sharqiy qismi bilan yana 600 dan ko'proq orollarni o'z ichiga oladi (maydoni 463 ming kv.km., aholisi 5,0 mln. kishi). Papua-Yangi Gvineya 1975 yilda mustaqillikka erishgan, Hamdo'stlik tarkibidagi davlatdir.

Solomonov orollari alohida davlat maqomida 1978 yilda, Vanuatu respublikasi 1980, Fidji respublikasi 1987 yilda, Palau respublikasi 1994 yilda tashkil topgan. Shu bilan birga hozir ham AQSH va Fransiya qaramog'idagi kichik hududlar saqlanib qolingan.

Shunday qilib, jahonning siyosiy xaritasi doimo o'zgarishda. Yirik mamlakatlarda parchalanish havfi bo'lsa, mayda mamlakatlar boshqalar tomonidan bosib olinishi mumkin (bu ko'p hollarda mamlakat hududining tarixiy shakllanishi, aholining diniy va milliy tarkibiga ham bog'liq). O'tgan asrning eng muhim siyosiy o'zgarishlari Ikkinchi jahon urushidan keyin vujudga kelgan kapitalistik va sotsialistik lagerning paydo bo'lishi va 90-yillarda sobiq Ittifoqning barbod bo'lishi va uning hududida mustaqil davlatlarning shakllanishi, yuqoridagi ishlarning barham topishi bilan bog'liq bo'ldi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Siyosiy geografiya fanining ob'yekti va predmeti nima?
2. Siyosiy geografik o'rin tushunchasining mohiyati nimada?
3. Respublika va monarxiya tipidagi davlatlarni jahon siyosiy xaritasidan toping.
4. Unitar va federativ davlat deganda nimani tushunasiz?
5. Yevropa siyosiy xaritasini ta'riflab bering.
6. So'nggi yillarda jahonning qaysi qismlarida mamlakatlari parchalangan, qaysilarida, aksincha birlashish, qo'shilish jarayoni ketmoqda?

VI BOB

ISHLAB CHIQARISHNI IJTIMOIIY TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Ishlab chiqarishni tashkil etishning barcha shakllari mujassamlashuv (konsentratsiya), ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatsiya ayni paytda ijtimoiy va hududiy tomonlarga ega. Albatta, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya uchun ishlab chiqarishning hududiy tomoni yetakchi rol o'ynaydi. Shunga qaramasdan bu nuqtalarni bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan holda o'rganish, tahlil qilish, biridan ikkinchisiga o'ta bilish geografik fikrlashning muhim xususiyatidir.

Mujassamlashuv yoki ishlab chiqarishning to'planishi, yig'ilishi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga tegishlidir. Ammo geografik jihatdan u eng avvalo sanoat, qishloq xo'jaligi va transport, ya'ni moddiy sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Qolaversa, iqtisodiy geografiya fanining ob'yektini aynan shu tarmoqlarning hududiy tashkil etilishi, ularning joylanishi xususiyatlari belgilab beradi. Chunonchi, sanoat uchun «nuqta» yoki tugun ko'rinishidagi hududiy tashkil etish, qishloq xo'jaligiga *areal* yoki *mintaqaviy* (zonal), transport uchun esa lentasimon yoki chiziqli shaklidagi joylashuv xosdir. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ma'lum darajada xuddi ana shu nuqtalar — sanoat markazlari va tugunlari, areal va zonalar tasmalarni o'rganadi. Ularning joylashuvi, aloqasi va hududiy tashkil etilishi esa yuqoridagi tarmoqlar joylashuvi bilan belgilanadi. Masalan, aholi va unga xizmat ko'rsatuvchi sohalarning hududiy tizimlari sanoat, qishloq xo'jaligi va transport geografiyasi asosida amalga oshiriladi.

Mujassamlashuv sanoat misolida juda aniq va sezilarli ko'rinadi. Bu borada ishlab chiqarish fondlari, yalpi mahsulot yoki ishchi va xizmatchilarning turli yiriklikdagi korxonalarda yig'ilishi, to'planishi sof holdagi ishlab chiqarish yoki korxona mujassamlashuvi, ularning shaharlar va rayonlar joylashuvini esa urbanistik va hududiy mujassamlashuv sifatida ko'rsatish o'rinli.

Mujassamlashuvning bu shakllari bir-biriga o'tib turadi va turli rayon yoki mamlakatlarda har xil birikmada bo'ladi. Chunonchi, shaharning markazlashuv darajasi ma'lum bir bosqichga yetgandan keyin o'ziga xos vaziyat vujudga keladi, ya'ni endi mazkur shaharda qo'shimcha korxonalarni qurish imkoniyati qolmaydi. Ekologik, uy-joy, transport muammolari keskinlashadi, qurish uchun yer maydoni ham yetishmaydi va ayni paytda yangi korxona bu markazdan olisda joylashuvni ham «istamaydi». Demak, yirik shaharda ham emas, undan uzoqda ham emas; shaharning ichki imkoniyati yo'q, korxona esa undan yiroqlasha olmaydi. Natijada yangi korxona yoki ilmiy tekshirish muassasalari, oliy o'quv yurtlari yirik shaharning ta'sir doirasida o'rnashadi — shahar aglomeratsiyasi yoki sanoat tuguni vujudga keladi. Yuqorida keltirilgan mulohazalarga misol qilib Toshkent atrofida joylashgan go'sht kombinati (O'rtaovul shaharchasi), ToshGRES, Toshkent qishloq xo'jaligi universiteti (Yalang'och manzilgo'hi), yadro fizikasi instituti (Ulug'bek shaharchasi) alkogolsiz ichimliklar kombinati (Qibray) va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Toshkent aholisi ehtiyoji va xo'jaligi uchun zarur bo'lgan bu korxonalarining poytaxtda qurishning iloji yo'q. Lekin ular iste'molchi, sanoat, ilm-fan markaziga yaqin bo'lmog'i lozim. Bundan yana bir xulosa, ya'ni ishlab chiqarish mujassamlashuvi bilan shahar rivojlanishi o'rtasidagi munosabat kelib chiqadi. Dastlab shaharning vujudga kelishi va ulg'ayishida ishlab chiqarishni joylashtirish (mujassamlashuv) yetakchi rol o'ynaydi, keyinchalik esa shaharning o'zi ishlab chiqarishning hududiy tashkil etish omiliga aylanadi.

Endi turli shakldagi mujassamlashuvga misol keltiraylik. Masalan, O'zbekiston sanoat mahsulotining yarmidan ko'pini har birida 2000 dan ortiq ishchi ishlaydigan korxonalar ishlab chiqaradi, deb faraz qilaylik. Bu ishlab chiqarish yoki korxona darajasidagi mujassamlashuvdir. Toshkent shahrida mavjud korxonalar O'zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotining taxminan 20 foizini beradi — bu urbanistik mujassamlashuv bo'ladi. Agar Farg'ona vodiysini respublikamizning asosiy pilla yoki meva maskani, neft mahsulotlari yoki o'simlik moyi chiqaruvchi rayoni sifatida ko'rsak, u holda hududiy mujassamlashuvni nazarda tutgan bo'lamiz.

Mujassamlashuvning yuqori yoki pastligi ayni paytda ma'lum bir sohaning rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Bu yerda «umumiy maxraj» bo'lib shahar, viloyat yoki boshqa bir joyda yashovchi aholining ulushi, hissasi xizmat qiladi. Aytaylik, Farg'ona vodiysida O'zbekiston respublikasi aholisining 27 foizi joylashgan. Agar u yoki bu ishlab chiqarish ko'rsatkichi shu raqamdan qancha yuqori bo'lsa, u holda mazkur ishlab chiqarish tarmog'i vodiya rivojlangan, mujassamlashgan bo'ladi. Korxona, urbanistik va hududiy mujassamlashuv turli rayon yoki mamlakatlarda turlicha birikma hosil qiladi. Nisbatan past darajadagi urbanistik mujassamlashuvida korxona yoki ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori bo'lishi ham mumkin. Bunga kichikroq shaharda, masalan, Xivada katta gilam kombinatining joylashuvi misol bo'la oladi. Xuddi shunday past darajadagi urbanistik mujassamlashuv yuqori ko'rsatkichdagi hududiy mujassamlashuvga ham olib keladi. Bu holda mazkur hududda juda ko'p kichik sanoat punkti yoki markazlari mavjud bo'ladi. Xuddi shu vaziyatni respublikaning ko'pgina viloyatlaridagi (Andijon, Buxoro, Farg'ona, Qashqadaryo, Namangan, Xorazm va h.k.), to'qimachilik korxonalarining tarqoq, filiallar asosida joylashganligida uchratamiz. Shu bilan birga past darajadagi hududiy mujassamlashuvi yuqori urbanistik ko'rsatkich bilan ham uyg'unlashgan holda keladi. Masalan, bir vaqtlar Fransiya deganda, avvalo uning poytaxti **Parij**, Vengriya ramzida esa **Budapesht** tushunilar edi. Hozir ham qo'shni Qirg'iziston Respublikasida ishlab chiqariladigan yalpi mahsulotning talaygina qismini uning poytaxti **Bishkek** beradi. Shunday qilib, yuqori darajadagi mujassamlashuv, ayniqsa o'ta yirik korxonalarni barpo etish hamma vaqt ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samarali emas. Bunday hollarda tayyor mahsulotni transportda tashish xarajatlari ko'payadi, ishchi kuchi yetishmaydi va eng muhimi-ekologik muvozanat buziladi. Xo'sh, qaysi darajadagi *mujassamlashuv ma'qul* degan savol tug'iladi. Axir, ayni bir hajmdagi mahsulotni turli xil birlikdagi korxona, shahar yoki rayonlarda ishlab chiqarish mumkin-ku! Bu yerda ham bir tomonlamalik, qat'iylik zararli va xatarlidir, deb o'ylaymiz. Binobarin, turli xil yiriklikdagi

korxonalar, shaharlar bo'lgani maqsadga muvofiq bo'lsa kerak. Demak, mujassamlashuv ob'yektiv qonuniyat, biroq u barcha mamlakatlarga xos va iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lsa-da, uning ma'lum chegarasi, ko'lam, doirasi bo'lishi shart.

Mamlakatning birgina, aksariyat hollarda poytaxt shahar asosida rivojlanishini Lotin Amerikasi davlatlarining yaqin o'tmishdagi taraqqiyoti yoki hozirgi Afrika mamlakatlari misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlar o'z ijtimoiy-iqtisodiy borlig'ini ularning eng yirik markazi bo'lgan poytaxt shahrida mujassamlashtiradi. Bunday hollarda ishlab chiqarishning bir tomonlama yoki nomutanosib hududiy tarkibi o'ta markazlashgan mujassamlashuvni bildiradi.

Respublikada ham faqat Toshkent yoki Toshkent viloyatini rivojlantirib, qolgan mintaqa va joylarni o'z holicha qoldiraverish ham yaramaydi, albatta. Shu bois Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo, Jizzax kabi viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish mustaqil davlatning ilmiy asosida ishlab chiqariladigan mintaqaviy siyosatida o'z aksini topmog'i lozim.

Markazlashuv mujassamlashuvning bir ko'rinishidir. Bu yerda ishlab chiqarish korxonalari yoki boshqa tashkilotlar va sohalarni asosan birgina shaharda joylashuvi tushuniladi. Ayni paytda mamlakat yoki xo'jalik boshqaruvining bunday tizimi yakka hokimlik-monopoliyaga olib kelishi turgan gap, bu esa maqsadga nomuvofiqdir.

Yuqoridagi ma'noda mujassamlashuv tushunchasi hamma vaqt markaz tushunchasini ifodalaydi. Shubhasizki, bu markaz balandroq turishi, ko'zga yaqqol va darhol tashlanishi lozim. Ammo, «markaz» deganda shaharlarni umuman sanoat yoki madaniyat markazi sifatida qarash ham to'g'ri bo'lmaydi. Qolaversa, hamma shaharlar ham sanoat, madaniyat markazidir. Shuning uchun shaharning aynan qaysi sanoat tarmog'i markazi ekanligini aniqlash ma'qulroq hisoblanadi. Chunonchi, Angren umuman sanoat markazi emas, balki ko'mir sanoat markazi, Marg'ilon yoki Namangan esa to'qimachilik, Asaka xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda bunyod etilayotgan mashinasozlik sanoatining markazlari ekanligini ko'rsatish to'g'riroq bo'ladi.

Ixtisoslashuv ham ishlab chiqarishni tashkil etishning muhim shakli bo'lib, u mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarning tarkib topishi bilan chambarchas bog'liq. Uning uch bosqichi va uch turi mavjud. Ixtisoslashuvning uch bosqichi deganda korxona, shahar yoki rayon miqyosidagi ixtisoslashuvi tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, ularning har biriga hududiy yoki ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir mahsulotning ishlab chiqarilishi biriktiriladi. O'z navbatida, ixtisoslashuv shu korxona (u jamoa xo'jaligi bo'lishi ham mumkin), shahar rayonlarning «qiyofasini», ularning mehnat taqsimotida tutgan o'rnini belgilab beradi.

Ixtisoslashuvning uch turi — bu qism (detal), texnologik yoki yarim tayyor mahsulot va predmet (tayyor mahsulot ishlab chiqarish) ixtisoslashuvidir. Ixtisoslashuvning bunday ko'rinishlari bir-biri bilan uzviy bog'liq va ular turli hududiy bosqichda o'zgacha xususiyatga ega.

Ixtisoslashuv oqibatida xalq xo'jaligining tarmoqlari vujudga keladi, iqtisodiy rayonlar, shaharlarning funksional turlari shakllanadi. Shu bilan birga u tashqi transport iqtisodiy aloqalarini taqozo etadi, chunki ishlab chiqarilgan va mahalliy iste'moldan ortib qolgan mahsulot chetga chiqariladi va mazkur rayonda yetishmaydigan mahsulot esa boshqa joylardan keltiriladi.

Ixtisoslashuvni aniqlash uchun bir necha shart va sharoitlar zurrur. Muhimi — mahsulot faqat shu joy talabini qondiribgina qolmay, balki ortiqchasi boshqa rayonlarga — bozorga chiqarilishi yoki tovar xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Masalan, respublikamiz paxta tolasi, pilla, tog'-kon sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi va boshqa sohalarga ixtisoslashgan. Uni ip yoki ipak gazlamasi, un, neft sanoatiga ixtisoslashgan deyish bir oz mushkulroq, sababi — bu mahsulotlar O'zbekistonda hozircha yetarlicha ishlab chiqarilmaydi va ular mahalliy talabni to'la qondira olmaydi.

Ixtisoslashuv, albatta faqat moddiy ishlab chiqarishga tegishli emas. U barcha ijtimoiy jabhalarga ham molik xususiyatdir. Qolaversa, ayrim oliygohlar o'qituvchi, boshqalari — agronom, muhandis, tabobatchi kabi mutaxassislarni tayyorlaydi. Chunki bu oliygohlar aynan ana shunday xodimlarni tayyorlashga ixtisoslashgan. Ixtisoslashuvning ham

mujassamlashuv kabi o'zining chegarasi bo'lishi lozim; o'ta tor ixtisoslashuv bir tomonlamalikka (ijtimoiy hayotda tor fikrlashga) yo'l xarajatlarining ko'payishiga olib keladi. Ulkan korxonalarni qurish qanday zararli bo'lsa, haddan tashqari tor ixtisoslashuv, yakkahokimlik ham shuncha xatarlidir. Afsuski, yaqin o'tmishda mamlakatimiz qudrati, uning rivojlanganlik darajasi shu «yirik», «eng katta», «yagona» kabi tushunchalar bilan ifodalanar, «birinchi» bo'lishi esa ko'p hollarda qolgan barcha sohalar qoloqlikni anglatar edi. Ammo bu mulohazalardan noto'g'ri xulosa chiqarish ham kerak emas, chunki ixtisoslashuvsiz shahar, tuman, viloyat, iqtisodiy rayonlarning, qolaversa, jamiyat va kishilarning o'zini ham rivojlanganligini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ixtisoslashgan tarmoqlar bilan birgalikda boshqa yordamchi yoki ikkilamchi sohalar ham hech bo'lmaganda mahalliy ehtiyoj doirasida rivojlangan bo'lishi lozim. Bu yerda ixtisoslashgan tarmoqni daraxtning tanasiga, daryoga, qo'shimcha tarmoqlarni esa daraxtning shox va shoxchalariga, daryolarning irmoqlariga o'xshatish o'rinli. O'z-o'zidan mamlumki, tanasiz shox ham bo'lmaydi, shoxsiz daraxt esa — bu oddiy butadir, irmoqsiz daryo ham barkamol daryo tizimini shakllantirmaydi.

Demak, ixtisoslashuv kompleks, har tomonlama rivojlantirish bilan uyg'unlashuvi kerak. Zero, ixtisoslashuvda yo'l qo'yilgan xatolar oqibatini hozirgi kunda sezib turibmiz. Bu kamchiliklar ayniqsa, sobiq Ittifoq respublikalarining o'zaro iqtisodiy aloqalarining buzilishida o'z aksini topmoqda. Shu sababli e'tibor ko'proq har bir respublikaning mumkin qadar atroflicha rivojlanishiga qaratilmoqda. Albatta, bunday taraqqiyot respublikani jahon hamjamiyatidagi boshqa mamlakatlardan farq qildiruvchi, uning o'rnini belgilab beruvchi ixtisoslashgan tarmoqlarni takomillashtirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Kooperatsiya pirovard natijada muayyan bir mahsulot yaratish uchun turli korxonalarining hamkorligidir. Bu korxonalar faqat bir yoki ikki tarmoqqa tegishli bo'lmisligi mumkin. Shu bilan birga kooperatsiyada hududiy birlik, barcha ixtisoslashgan korxonalarning bir joyda o'rinishi uncha sezil-

maydi va, aksincha, ularning tarqoq holda joylashuvi kuzatiladi.

Kooperatsiyada qatnashuvchi korxonalar soni vujudga kelayotgan mahsulotning murakkabligiga bog'liq. Chunonchi, mashinasozlikda, aniqrog'i yengil va yuk mashinalarini ishlab chiqarish uchun juda ko'p ehtiyot qismlar, detallar kerak. Shu bois bunday mashinalarning yaratilishida yuzlab ixtisoslashgan korxonalarning ulushi bor. Masalan, Moskvada yengil avtomobil yoki **Lixachev nomli zavod**, Tolyattidagi **Volga avtomobil zavodi** (Jiguli) va shunga o'xshash birlashmalar 200 va undan ortiq korxonalar bilan hamkorlik qiladi. Madomiki asosiy yakunlovchi yoki yig'uvchi bosh korxona ko'p joydan asbob-uskunalar, detall va jihozlar olar ekan, u transport geografik jihatdan qulay nuqtada o'rinishuvi zarur.

Kombinatsiya kombinatlash kooperatsiyaga o'xshab korxonalar birlashmasidan iborat. Ammo bu yerda tarqoq holda joylashgan birlik emas, balki ularning hududiy umumiyligi tushuniladi. Shu sababli kombinatsiyada, kooperatsiyadan farqli o'laroq, ko'proq hududiylik namoyon bo'ladi. Bu ikki, yuzaki qaraganda bir-biriga o'xshash tushuncha o'rtasida boshqa farqlar ham bor. Xullas bu shaklni qayerda «kombinat» so'zini uchratsak, uni o'sha sohada ko'ramiz, hatto aholiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarda ham (maishiy xizmat kombinatlari).

Sanoatda kombinatlar bir necha texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan zavod yoki sexlardan tashkil topgan bo'ladi. Chunonchi, qora metallurgiya kombinatlari, aniqrog'i to'la siklli kombinatlar cho'yan, po'lat va prokat ishlab chiqaruvchi zavodlar birlashmasidir. Agar ularning bittasi bo'lmasa, u holda kombinat to'liq siklga ega emas (Bekobodagi **O'zbek metallurgiya kombinati** xuddi shunday korxonalardandir). To'qimachilik kombinatlari yigiruv, bo'yoqlash, tayyorlash sexlaridan iborat. Xom ashyo bitta — paxta tolasi yoki pilla mahsuloti. Go'sht kombinatida ham yagona xom ashyo asosida bir necha mahsulot: go'sht, konserva, kolbasa kabi boshqa mahsulotlar olinadi. Uning chiqindisidan, masalan, suyak va qondan qishloq xo'jaligi va tibbiyot sohasida foydalanish mumkin, terisi esa oshlangandan so'ng charm-

poyafzal sanoatida ishlatiladi. O'rmon, sement-shifer, kimyo kombinatlarining tuzilishi ham xuddi shunday. Qolaversa, markazlashgan issiqlik elektr stansiyalari ham kombinat xususiyatiga ega, chunki ular ayni paytda elektr energiyasi va par (bug') beradi.

Shunday qilib, kombinatsiya sanoat tarmoqlarining ko'pchiligiga xosdir. Faqat mashinasozikda «kombinat» so'zini uchratmaymiz, ammo mohiyatan bu yerda ham u mavjud, zotan metallardan asosiy mahsulot bilan bir qatorda xalq iste'mol mollari ham ishlab chiqariladi. Masalan, Toshkentdagi **Chkalov** nomli aviatsiya birlashmasi samolyotdan tashqari avtomobil uchun ba'zi bir ehtiyot qismlar, bolalar aravachasi (kolyaska) va shunga o'xshash turli xil xalq iste'mol mollari ham ishlab chiqaradi.

Umuman olganda, ishlab chiqarishning ijtimoiy shakllari o'zaro bog'liq. Chunonchi, ixtisoslashgan korxonalar yoki kooperatsiya va kombinatsiya doirasidagi ishlab chiqarish bo'g'inlari ham u yoki bu ko'rinishda mujassamlashuvni anglatadi. Biroq bu yerda ularning bir joyda to'planganligi, yig'ilganlik darajasi boshqa joylarga nisbatan yuqori bo'lishi lozim, aks holda tom ma'noda mujassamlashuv bo'lmaydi.

Mujassamlashuv yoki ixtisoslashuv ayni paytda shu soha-ning rivojlanganligidan dalolat beradi. Ammo bu rivojlanganlik mujassamlashuvda korxona yoki tashkilotning kattaligi, ko'lami bilan o'lhansa ixtisoslashuvda esa u o'z ifodasining yagonaligi, noyobligi va betakrorligida topadi.

Hozirgi sharoitda mamlakat iqtisodiyotini ham «pastdan» ham «yuqoridan» qurish lozim. Binobarin, xorijiy davlatlar sarmoyalari orqali yoki ular bilan hamkorlikda barpo etilayotgan sanoat korxonalari uchun ularga zarur bo'lgan texnologik qismlar, detal va dastgohlarni o'zimizda tayyorlash imkoniyatlarini vujudga keltirish zamon talabidir. Shu bilan birga mavjud imkoniyat va resurslardan to'la foydalangan holda mamlakatimiz hududida ko'proq tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni rivojlantirish va jahon bozorida faol ishtirok etishiga katta ahamiyat berish lozim.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari qaysilar?
2. Ishlab chiqarishning kooperatsiya shakli to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Ishlab chiqarishning mujassamlashuvi deganda nimani tushunasiz?
4. Ishlab chiqarishning kombinatlashuv shakliga ta'rif bering, misollar keltiring.
5. Ixtisoslashuvning qanday turlarini bilasiz?
6. Ixtisoslashuvni aniqlash zarur bo'lgan shart sharoitlar qaysilar?

VII BOB

ISHLAB CHIQUARISHNI JOYLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni joylashtirish o'ziga xos xususiyatga ega. Bu borada tadbirkor albatta foydali, qo'shimcha daromadni ko'zlaydi, davlat esa ish o'rinlarini ko'paytirish, mehnat resurslarini band qilish, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish, hududlar rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirishga intiladi. Demak, bunday vaziyatda har ikki yo'nalishni muvofiqlashtirgan holda masalani yechish talab etiladi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish uchun eng avvalo joy, ya'ni yer, maydon kerak. Biroq, buning uchun har qanday joy ham to'g'ri kelavermaydi. Qolaversa, hudud ham har qanday korxona yoki ekinlarni «istamaydi» va aksincha, xo'jalikning barcha tarmoqlari ham to'g'ri kelgan joyga o'rnatililmaydi. Agar ishlab chiqarish yer, maydoning imkoniyati va sharoitidan qat'iy nazar joylashtirilsa, u holda geografik nomuvofiqlik vujudga keladi, tabiatning xususiyati inkor etiladi, «soch teskarisiga taraladi». Ayni vaqtda xo'jalik tarmoqlarini to'g'ridan to'g'ri, xohlagan joyda tashkil etilsa, u ko'zda tutilgan iqtisodiy manfaatlarga olib kelmasligi, ekologik muammolarga, ortiqcha transport xarajatlariga sabab bo'lishi aniq. Ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda ham hudud, ham tarmoq xususiyatlari inobatga olinishi zarur.

Tabiatda, go'yoki yer maydonining muayyan joylari aynan qandaydir xo'jalik tarmog'ini joylashtirish uchun yaratilgandek. Boshqacha qilib aytganda, har bir joyning o'ziga xos va o'ziga mos funksiyasi mavjud. Binobarin, hudud «nafasi va haroratini» chuqur his qila olish, joy xususiyatini atroflicha o'rganish talab etiladi. Tajribalar dalolat beradiki, cho'l mintaqasini haddan tashqari o'zlashtirib, sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish ko'p o'tmay o'z o'chini olmoqda —

tuproq ikkilamchi sho'rlanib, katta-katta maydonlar qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketmoqda. Ayni chog'da chorva mollari yem-xashaksiz, yaylovsiz qolmoqda. Ehtimol, cho'l-larning bir qismi cho'lligicha qolib, yaylovlar o'z vazifasini o'tagani ma'qulmidi?

Ijtimoiy hayotda har kishi o'z ishini, vazifasini bajarganidek, tabiatda ham har bir joy o'ziga muvofiq xo'jalik korxonasini joylashtirishi kerak. Bu o'rinda, joy yoki hududning sig'imi to'g'risida fikr bildirish lozim. Gap shundaki, har bir joy xo'jalik va aholini muayyan miqdorda sig'dira oladi, undan ortig'i esa tabiiy muvozanatni, ekologik vaziyatni buzadi. Lekin bu sig'im darajasi, ko'lami birday bo'lmaydi va u doim o'zgarib turadi.

Demak, yerning o'ziga xos qiymati bor va bu qiymat turli sharoitda turlicha (D.Rikardo). Mazkur masala bilan yer kadastrisi shug'ullanadi. Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, hududning iqtisodiy, demografik, ekologik sig'implari bir xil emas. Odatda, aholi zichligi, ya'ni 1 km² ga necha kishi to'g'ri kelishi hududdan foydalanishning umumiy ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga hudud iqtisodiy salohiyatini ham hisoblash mumkin. Qishloq xo'jaligida bu masala oson yechiladi, ya'ni bir gektar yer qancha mahsulot berishi aniq. Ammo xo'jalikning boshqa tarmoqlarida yer «hosildorligi» yoki xizmati kam e'tiborga olinadi. Vaholanki, har bir gektar maydonning qancha yalpi ichki mahsulot yoki milliy daromad yaratishini ham aniqlash e'tiborlidir.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, yer — tabiiy boylik, resursdir. Lekin ko'pincha erga biz oddiy sharoit sifatida qarashga odatlanganmiz, bamisoli qutichadek (unga to'g'ri kelgan narsani solaveramiz). Aslida esa Yer — Ona zamin bebaho boylik, u bizning umumiy uyimiz, hayot manbaimiz. Shuning uchun Yer ham haqli ravishda e'zozlashga loyiq. Qolaversa, nafaqat dunyoviy, balki diniy jihatdan ham Yer — azizdir.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil etishga turli omillar ta'sir qiladi. Modomiki, ta'sir etuvchi omillar ko'p ekan, so'z ularning ta'sir darajasi to'g'risida borishi kerak. Shu nuqtai nazardan muayyan tarmoq yoki korxona uchun bir yoki ikki omil hal qiluvchi ahamiyatga ega, qolganlari esa ikkinchi, uchinchi va hokazo darajali hisoblanadi, asosiy

maqsad esa ana shu asosiy omilni aniqlashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Umuman aytganda, har bir korxona yoki qishloq xo'jaligi ekini uchun ma'lum miqdorda xom-ashyo, yer, suv, harorat, ishchi kuchi, texnika vositalari, elektr energiyasi, transport va boshqalar kerak. Bu omillarni shartli ravishda ikki katta guruhga bo'lish mumkin: tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar.

Tabiiy omillarga eng avvalo yer va uning ustki tuzilishi, qazilma boyliklar, iqlim, suv, harorat, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi kiradi. Bu xususda tabiiy geografik bilimlar zarur bo'ladi. Biroq, tabiiy geografiya uchun tabiat komponentlarining kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinsa, iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotda ana shu qonuniyatlarga tayangan holda bu komponentlardan xo'jalik faoliyatida foydalanish yo'llarini o'rganish lozim bo'ladi. Shu jihatdan, tabiiy sharoit va boyliklarga baho berish, tabiiy va iqtisodiy geografiya (mintaqaviy iqtisodiyot) o'rtasidagi «ko'prikdir».

Ishlab chiqarishni joylashtirish maqsadida tabiiy komponentlar avval «donalab» tahlil qilinadi va baholanadi. So'ngra asosiy e'tibor tabiiy boyliklarning hududiy birikmalariga qaratiladi. Bu esa, ob'yektga kompleks, ya'ni atroflicha yondoshuvni taqozo etadi.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, ma'lum bir tabiiy komponent qaysi bir xo'jalik tarmog'iga **sharoit** bo'lib xizmat qilsa, boshqasi uchun u **resurs** «ya'ni boylikdir». Masalan, yer qishloq xo'jaligida resurs, boshqa tarmoqlar (sanoat, transportda u asosan sharoit vazifasini o'taydi. Ob-havo, harorat ham xuddi shunday. Yoki **rekreatsiya** sohasini olaylik: bu yerda quyosh nuri, suv, qumlik, o'rmonzor sharoit emas, balki resurs hisoblanadi va h.k. Shu bilan birga ilmiy texnika taraqqiyoti natijasida sharoit resursga aylanishi ham mumkin. O'z-o'zidan ma'lumki, ishlab chiqarishni joylashtirishda, yoki aniqrog'i — joy tanlashda avvalambor resurs hisobga olinadi.

Hudud bo'yicha mutaxassis unga atroflicha baho bera olishi, qaysi soha qulay, qaysinisiga esa noqulayligini aniqlashi kerak. Unutmasligimiz lozim: **tabiatda umuman yomon joy yo'q, balki nodon mutaxassis bor**; har bir joy nima uchundir qulay, maqsad — shu qulaylikni aniqlash va undan o'z yo'lida to'g'ri foydalanishni ta'minlashdir.

Masalan, yer usti tuzilishining (relyef) tekislik yoki tog'lik-dan iboratligi xo'jalikning bir tarmog'i uchun qulaylik tug'dir-sa, ikkinchisida qiyinchilikni vujudga keltiradi. Chunonchi, agar hudud tekislik bo'lsa, u holda bu yer qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va aholini joylashtirish juda qulay. Lekin, ayni paytda bunday sharoitda daryo va daryochalar mo'l (ko'priklarni ko'plab qurish kerak), bu daryolarda yirik elektr stansiyalarini qurish sharoiti ham yo'q. Tog'lik bo'lsa, bu yerda dam olish, tog'-kon sanoati, suv energetikasi, o'rmon xo'jaligini rivojlantirish mumkin. Ammo bunday sharoit sug'orma dehqonchilik, qayta ishlash sanoati, aholi manzil-gohlarini joylashtirish uchun qulay emas. Shunga o'xshash misollarni juda ko'plab keltirish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar aholi va mehnat resurslari, transport, ilmiy-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasini kabilardan tashkil topadi. Aholi ayni vaqtning o'zida ham yaratuvchi, ham iste'molchi bo'lganligi sababli uning barcha demografik ko'rsatkichlari — soni, o'sishi, zichligi, yosh va jinsiy tarkibi hisobga olinadi. Jumladan, aholi soni iste'mol mollari ishlab chiqarishda, ko'p yoki kam mehnat talab qiladigan korxonalarni qurishda ahamiyatlidir. Uning yosh va jinsiy tarkibi turli xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishga (sog'liqni saqlash, maorif, aholiga xizmat ko'rsatish, og'ir yoki yengil sanoat va h.k) o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda infrastruktura tizimining mavjudligi ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Yo'l, yer osti va yer usti qurilmalari, elektr uzatuvchi shaxobchalar, turar joy, maishiy xizmat ko'rsatish ob'yektlari muhayyo bo'lgan joylar yangi ishlab chiqarishni, qo'shma korxonalarini o'ziga jalb qiladi. Xorijda bunday joylarni **sanoat parki** deb atashadi.

Infrastruktura tizimida xususan transportning o'rni yuqori. Chunki, transportsiz ishlab chiqarish jarayonining o'zi ham bo'lmaydi, transport xarajati esa mahsulot tannaxsiga kiradi. Shuningdek, ijtimoiy infrastruktura tarmoqlari ham ishlab chiqarishni joylashtirishda muhimdir.

O'tish davrida ayniqsa, bozor infrastrukturasining ahamiyati katta. Bozor iqtisodiyotining o'zi esa ishlab chiqarishni joylashtirishda hal qiluvchi omildir. Sababi — bozortalab

sohalarigina rivojlanadi; bozori chaqqon mahsulotlarni ishlab chiqargan tadbirkorlar yengadi.

Bozor (talab va taklif) raqobat, u yoki bu mahsulot ishlab chiqaradigan makonni, bozor muhitini belgilaydi. Binobarin, talabning nafaqat miqdor jihatdan o'sib borishini, balki uning xususiylashuvini, sifatini e'tiborga olish, ixcham, harakatchan, boshqarishi oson bo'lgan kichik va o'rta korxonalarni joylashtirish o'tish davri uchun ayniqsa xosdir.

Bu davrda qulay investitsiya makonini yaratish ham katta mazmun kasb etadi. Infrastruktura va boshqa sharoitlarning mavjudligi, huquqiy va tashkiliy masalalarning hal etilganligi, kafolatlanganligi xorijiy sarmoyadorlarning kirib kelishiga qulaylik yaratadi. Ko'pincha investorlar huquqiy jihatdan kafolatlangan, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, arzon ishchi kuchi bo'lgan hududlarni qidiradilar. Qurilgan qo'shma korxonalar esa mintaqa va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga, uning tarmoqlar va hududiy tarkibiga sezilarli o'zgartirishlar kiritadi, turki bo'lib xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil qilishda joyning iqtisodiy geografik o'rniga ham ahamiyat bermoq zarur. Joyning qulayligi uning «qo'shnichilik» munosabatlarida o'z ifodasini topadi. Agar tanlangan joy yoki geografik nuqta transport bilan yaxshi bog'langan bo'lsa, xom ashyo iste'mol rayonlarga yaqin, elektr energiya va qurilish materiallari ham uzoq bo'lmasa, bu yerda joylashtirilgan korxona albatta katta iqtisodiy samara beradi.

Joyning, ayniqsa shaharning iqtisodiy geografik o'rnini aksariyat hollarda uning iqtisodiy ixtisoslashuvini belgilab beradi. Masalan, Bekobodda O'zbekiston metallurgiya zavodining joylashtirilganligi, Qo'qonda transport funksiyasining, Yangi-yer yoki Qarshida qurilish materiallari sanoatining rivojlanganlik sababini ularning iqtisodiy geografik o'rnini orqali izohlash mumkin. Guliston yoki Termizning nisbatan sust rivojlanganligi ham ma'lum darajada ularning geografik va geosiyosiy o'rinlariga bog'liq.

Hozirgi davrda ilmiy-texnika taraqqiyoti va ekologiya omillari ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishda muhim bo'lib qolmoqda. Zamonaviy va yangi texnologiyalar, *texnopolis* yoki *texnoparklar* ilmtalab korxonalarni joylashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Rivojlangan, klassik industriya

bosqichini o'tgan (postindustrial) mamlakatlarda borgan sari ishlab chiqarish jarayonining «toza», ekologik xavfsiz korxonalari joylashmoqda, boshqa tarmoq yoki korxonalar esa asta-sekin rivojlanayotgan davlatlarda joylashtirilmoqda.

Ekologik omil xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishda eng yetakchi bo'lib qolmoqda. Chunki, yer yuzida tabiati sof, havosi va suvi toza joylarning o'zi juda oz. Urush va tinchlik masalalari ozmi-ko'pmi hal qilingan hozirgi davrda zamonamizning «№ 1» **global muammosi ekologiya**, atrof-muhit muhofazasi bo'lib qoldi.

Xo'jalikning turli tarmoqlari o'ziga xos ekologik sig'imga ega. Asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari — makroiqtisodiy tizimlar: sanoat, qishloq xo'jaligi, transport ekologik vaziyatni shakllantiruvchi eng muhim omillardir. Bu borada N.N. **Kolovskiyning** energiya ishlab chiqarish sikllari g'oyasiga amal qilish ham katta samara beradi. Zero, bu konsepsiya ishlab chiqarishning chiqindisiz texnologik jarayonini tashkil qilishni ko'zda tutadi.

Jahon xo'jaligining yagona tizimi vujudga kelganga qadar xalqaro (geografik) mehnat taqsimoti uncha rivojlanmagan edi. Hatto XVII-XVIII asrlargacha ko'pgina mamlakatlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarda o'zlarining ichki bozorlariga chet el mahsulotlarini kiritishga qarshi siyosat olib borar edilar. Bu siyosat, yoki importni cheklash iqtisodiyot tarixida *merkantilizm* nomi bilan o'rin olgan.

Albatta, bunday sharoitda jahon bozori xususida so'z yuritish mumkin emas. Jahon bozori erkin iqtisodiyot, ochiq savdo tizimini joriy qilishni taqozo etadi. Ana shunday yo'nalish *fritredizm*, ya'ni erkin savdo deb ataladi. Uning ilmiy asosini yaratishda A. Smit va, ayniqsa, D. Rikardoning xizmati katta bo'lgan. Ularning g'oyalari xalqaro geografik mehnat taqsimotini keng ko'lamda rivojlantirish, mamlakatlararo savdo-sotiqni faollashtirishga qaratilgan bo'lib, u **qiyosiy imtiyoz yoki qulaylik qonuni** («закон сравнительного преимущества») nomini olgan. Bu qonunning asl mohiyati shundaki, har bir mamlakat o'zining ichki imkoniyat va sharoitlaridan kelib chiqqan holda ma'lum mahsulotni boshqa davlatlarga qaraganda arzonroq, ya'ni kamroq xarajat bilan yetishtiradi va uni bozorda oson realizatsiya qiladi. Sotilgan mahsulotning puliga o'zida yo'q, yoki yetishtirishi qimmatroq, xarajat-

liroq tushadigan tovarni xarid qilib oladi. Bunday tovar ayirboshlash naqd pulsiz, «ayirbosh», ya'ni *barter* usulida ham olib borilishi mumkin.

Fritredizm g'oyalarini amalga tatbiq qilish jahon xo'jaligining shakllanishiga, mehnat taqsimotini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda mamlakatlar iqtisodiyotining ixtisoslashuvi va hududiy tashkil qilishida ham o'zgarishlar yuz berdi.

Bevosita ishlab chiqarishni joylashtirishga oid ilmiy g'oyalar dastavval Germaniyada yaratilgan. Masalan, nemis mulkdori **Iogan Genrix Tyunen** XIX asrning 20-30-yillarida o'zining qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirish bo'yicha ilmiy fikrlarini maxsus asarlarida bayon qildi (ruscha nomi «Изолированное государство»).

I.G. Tyunen g'oyasining asosiy mohiyati yagona shahar, ya'ni iste'mol markazi atrofida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishni hududiy tashkil qilishdan iborat. U bu g'oyani amalga tatbiq qilish uchun xo'jalik bilan shahar yoki bozor (uning misolida bu shahar — Meklenburgdagi Rostok) o'rtasidagi masofa, qishloq xo'jalik mahsulotining narxi, qiymati va yer rentasiga asoslanadi. Yer rentasi esa unga qo'yilgan mablag' bilan olingan daromad nisbati bilan belgilanadi.

Yuqoridagi shartlar yordamida I. Tyunen shahar atrofida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuv tizimini yaratadi. Bu tizim adabiyotda «Tyunen xalqalari» nomi bilan mashhur. Chunki, turli mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashgan har xil tarmoqlar iste'mol markazi atrofida xalqasimon joylashadi. Masalan, *birinchi xalqa* — bog'dorchilik, sabzavotchilik va qisman sut chorvachiligi; *ikkinchisi* — o'rmon xo'jaligi (o'sha davrda o'tin uchun), *uchinchi xalqa* — kartoshka, arpa yetishtirish va urug'chilik, sut chorvachiligi, *to'rtinchi* — yuqori unumdor g'allachilik va sut-go'sht chorvachiligi, *beshinchi* — g'allachilik va nihoyat, *oltinchi xalqa* — yaylov chorvachiligi.

I. Tyunenning xizmati shundaki, u birinchi bo'lib yerdan foydalanish masalalarini ko'tarib chiqdi va ilmiy adabiyotga «iqtisodiy makon» tushunchasini kiritdi. U o'zining abstrakt modelida mahsulotning bozorga — iste'molchiga arzon va sifati buzilmagan holda yetkazib berishiga katta e'tibor beradi. Shunday qilib, I. Tyunen qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishning dastlabki ilmiy asosini yaratuvchisi bo'ldi.

1909 yilda Tyunenning vatandoshi — **Alfred Veber** «Sanoat shtandorti to'g'risida» nomli asarini chop ettirdi. U o'zining diqqat-e'tiborini sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishga ta'sir etuvchi **omillarga** qaratdi. Shu maqsadda Veber omillarning ta'sir kuchiga qarab, tabaqalashtirdi, asosiy hal qiluvchi omilni aniqladi.

A. Veber sanoat shtandortining asoschisidir. **Shtandort** esa — korxonaning o'rnatilgan joyi yoki korxonaning optimal (standart) joylashgan nuqtasi ma'nosini anglatadi. Joylashtirish omili u yoki bu korxonani qurishda ko'zda tutilgan iqtisodiy samaradorlik, foyda nuqtai nazaridan baholanadi.

Bu foyda, A. Veber fikricha asosan xomashyo mahsulotini realizatsiya qilish, transport va ishchi kuchiga ketgan xarajatlar nisbati hamda asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatidan tashkil topadi. Keyinchalik u xomashyo va mahsulotni sotish bilan bog'liq omilni umumiy transport sarfxarajatlariga kiritdi. Chunki, mahsulotning tannarxiga xomashyoni keltirish, mahsulotni realizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar ham kiradi.

Natijada, sanoat shtandortini belgilovchi ikkita omil — *transport* va *ishchi kuchi* (mehnat resursi) olindi. Veber keyinroq ularga yana bir muhim omilni qo'shdi — u ham bo'lsa *aglomeratsiya* omilidir.

Transport omiliga mahsulot yoki xomashyoning vazni, tashiladigan masofa, mehnat resursida ish haqi, aglomeratsiya omilida esa korxonalarning bir joyda to'planishi hisobga olinadi.

A. Veber ilmiy adabiyotda o'zining shtandort nazariyasi, «joylashtirish omili» va «aglomeratsiya samaradorligi» tushunchalarini kiritganligi bilan mashhurdir. Aglomeratsiya samaradorligi — bu asl mohiyatiga ko'ra mujassamlashuv (konsentratsiya) samaradorligi bo'lib, u hozirgi kunda korxonalarning yiriklashuvidan, ya'ni miqyos, masshtab iqtisodiy asosida emas, balki korxonalarning kooperatsiya va ixtisoslashuv («xilma-xillik», yoki sifat iqtisodiy) natijasida erishiladi.

I. Tyunen (qishloq xo'jaligi) va A. Veberning (sanoat shtandorti) g'oyalari abstrakt sharoitlarni hisobga olgan holda yaratilgan bo'lsa-da, ularning ilmiy ahamiyati hozirgacha yo'qolmagan. Bu oqimlarining g'oyalarini «omillar tahlili» shaklida umumlashtirish mumkin. Omillar esa hududda ayrim

joylarni tanlab olish va pirovard natijada hududiy mujassamlashuv va hududiy notekisliklarni yoki geografik tengsizlikni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, ishlab chiqarishning ikki asosiy tarmog'i, ya'ni qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish bo'yicha ilmiy g'oyalar yaratildi. Endi navbat — aholi joylashuvi, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tashkil etish muammolariga keldi. Bu haqdagi ishlanmalar ham nemis olimi **Valter Kristallerga** tegishli. U 1930-yillarda aholining hududiy tarqalishi va joylanishi masalalarini o'rga-nib, o'zining «Janubiy Germaniya markaziy o'rinlari» nomli kitobini yozdi.

Markaziy o'rinlar turli yiriklikdagi shahar va boshqa aholi manzilgohlari bo'lib, ular o'ziga xos ta'sir doirasi, xizmat ko'rsatish radiusiga ega. Ideal holatda har xil miqyosdagi markaziy o'rinlar geografik muhitda oltiburchak shaklga ega va ular asalarining uyasini eslatadi.

Kristaller uchun ham hudud barcha sharoitlar bo'yicha bir xil bo'lishi, ya'ni hudud tep-tekis, aholi, aholi manzilgohlari, yo'l va boshqalar bir xil joylashgan. Ana shunday ideal manzaradan kelib chiqqan holda u o'zining ilmiy g'oyasini yaratdi. V. Kristaller nomi bilan «Markaziy o'rinlar», iyerarxiya, shaharlar klassifikatsiyasi kabi tushunchalar, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini joylashtirishga oid ilmiy fikrlar bog'liq. Boshqa, yosh va iste'dodli nemis olimi **Av gust Lyosh** o'zidan oldingi vatandoshlarining ilmiy ishlanmalarini umumlashtirib (u A.Veberning o'quvchisi edi), barcha xo'jalik tarmoqlarini joylashtirish to'g'risida ish olib bordi. A. Lyosh g'oyalarining mohiyati uning maxsus kitobida (ruscha nomi «Географическое размещение хозяйства»—М. 1959) bayon etilgan. Kitobning asl nusxasi. qo'lyozmasi 1940 yilda nashr qilingan.

A.Lyosh qishloq xo'jaligining *areal*, maydon sifatida, sanoatning esa nuqtasimon hududiy tashkil etish xususiyatlarini asoslab berdi. U birinchi bo'lib «bozor muhiti yoki makoni», «iqtisodiy landshaft» (hozirgi kunda —iqtisodiy rayon) tushunchalarini yaratdi va fanga kiritdi. Agar avval-gilar, xususan I. Tyunen va A. Veber alohida korxonani, tar-moqni o'rgangan bo'lishsa, A. Lyosh ishlari barcha xo'jalik sohalarini qamrab oldi va o'z mohiyatiga ko'ra mikroiq-tisodiy

bozor munosabatlari, uning ta'sir doirasi xaqiqiy rayon tashkil qiluvchi omil ekanligi ta'kidlandi, matematik usullarni keng qo'lladi. Aynan ana shu tamoyillarni hozirgi kunda O'zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish masalalariga tatbiq qilish ahamiyatdan holi bo'lmasa kerak.

Ta'kidlash joizki, I. Tyunen va A. Veber g'oyalari o'z davri talabiga mos kelardi. Sababi — u davrda hududning iqtisodiy sig'imi, zichligi uncha yuqori emas, hududiy-iqtisodiy manzara qutbiylashmagan, ya'ni deyarli bir tekis edi. Ana shunday iqtisodiy geografik holat alohida korxona yoki tarmoqlarni ayrim joylarda o'rinlashtirish ta'sirida o'zgaradi, notekislik xususiyatini oladi. Boshqacha qilib aytganda, avvalgi tabiiy ko'rinishdagi iqtisodiy tekislik notekislikka, hududiy mujassamlashuvning ko'chayishiga o'zgaradi. Buning natijasida notekislikni tekislashga urinib ko'radigan ilmiy izlanishlar talab etildi. Xuddi shunday uzluksiz tizimga moslashgan ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil qilish g'oyalarini V.Kristaller va A.Lyosh yaratdi.

Iqtisodiyot nuqtai nazaridan uncha o'zlashtirilmagan, xo'jalik sig'imi past va hududlarni rivojlantirish va jonlantirish borasida **o'sish qutblari va rivojlanish markazlari** to'g'risidagi nazariya ham katta ahamiyatga ega. Uning asoschisi fransuz olimi **Fransua Perrudir**.

F. Perru «markaziy o'rinlar» g'oyasidan kelib chiqdi, omillarni emas, tarmoqlarni rivojlanish xususiyati, harakatchanligi, atrofga ta'siri bo'yicha tabaqalashtirdi va ularni uch guruhga ajratdi. U eng avvalo hududiy-iqtisodiy munosabatlarda tengsizlik, nobarobarlikni tan oldi va mutloq jihatdan tenglikni amalga oshirish mumkin emasligiga to'la ishonadi.

F. Perru fikricha, uchinchi guruh tarmoqlari tez, jadal rivojlanish, rayon hosil qilish salohiyatiga, qobiliyatiga ega bo'lib, aynan ana shunday mintaqaviy iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi tarmoqlar rivojlanishi o'sish markazlarini tashkil qiladi. Markazlarning mustahkamlanishi, ularda turdosh korxonalarining ko'payishi, atrofga bo'lgan ta'sir doirasining kengayishi natijasida o'sish qutblari vujudga keladi.

O'sish qutblari g'oyasi shved olimi — Lund universiteti professori (Shvetsiya) T. Xagerstrandning *yangiliklar diffuziya-*

si nazariyasiga o'xshab ketadi. Faqat muallif bu g'oyani ko'proq sotsial geografiya bo'yicha ishlab chiqqan.

Chindan ham, jahon taraqqiyoti, dunyo xo'jalik tizimining rivojlanish tarixi fan-texnika yutuqlari, ilmiy yangiliklar va kashfiyotlar, innovatsiyalar, texnologik determinizm bilan bog'liq. Tarix nuqtai-nazaridan yondashilganda, jahon xo'jaligi rivojlanishida ma'lum sikllarni ajratish mumkin. Bu davr yoki sikllar yangi kashfiyotlarning ixtiro etilishi, tatbiq etilishi, tarqalishi va ularning o'rniga boshqa innovatsiyalarning kelishi bilan belgilanadi.

Maxsus adabiyotlarda amerikalik **U. Rostouning** (XX asr, 58-60-yillar) iqtisodiy rivojlanishning bosqichlari, stadiyalari, rus iqtisodchisi **N.D. Kondratyevning** 30-yillarda ilmiy-texnika o'zgarishlariga asoslangan «uzun to'lqinlar» nazariyasi mavjud. Shuningdek, amerikalik olim **R. Vernonning** (XX asr o'rtalari) eksport tovarining hayot sikli to'g'risidagi g'oyasi ham yangiliklarning diffuziyasi va texnologik determinizm bilan bog'liq.

Diffuziya (fizik atama bo'lib), singish va tarqalish xususiyatiga ega bo'lgan holatdir. Birinchisida yangilikning amaliy tatbiq doirasi asta-sekin singib boradi, ikkinchisida esa bu birin-ketin sodir bo'ladi, yangilik biridan ikkinchisiga ko'chadi. Xuddi shu xususda amerikalik iqtisodchi **M. Porter**ning (1993) markazdan chetga kashfiyotlarning, yangi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlarining ko'chishi, bir mamlakatdan ikkinchi, uchinchiga va h.k. darajalarga kaskadsimon o'tishi, migrasiyasi xaqidagi ilmiy ishlanmalari ham bor.

Sobiq Ittifoqning parchalanishi va mastaqil davlatlarning paydo bo'lishi bilan geosiyosiy vaziyat o'zgardi. Ana shunday sharoitda chegara atrofi mintaqalarini o'rganish, «Markaz-cheikka» (perifiriy) munosabatlarini tadqiq qilish masalalari ham ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bevosita aloqadordir.

Jahon xo'jaligi tizimi (bu tushuncha asoschisi amerikalik **I. Vallersteyn**), uning taraqqiyotidagi sikllar davriy, tarixiy xususiyatga ega. Bunday yondashuvni tik emas, gorizontallik, ya'ni geografik jihatdan ham qo'llash mumkin. Natijada, iqtisodiyot rivojlanishining hududdan-hududga o'tishi, bizning

iboramizda «geografik konveyr» yoki estafeta koʻz oldimizga keladi.

N.D. Kondratyev jahon xoʻjaligi dinamikasida 5 ta sikl ajratadi, ulardan toʻrttasi *industriya* davriga, oxirgi 5-undan keyingi, yaʼni *postindustrial* davrga toʻgʻri keladi. Bu davrda elektronika, lazerlar texnologiyasi, biotexnologiyalar ustuvor ahamiyatga ega. Xuddi shunga oʻxshash hududiy-iqtisodiy rivojlanishning ketma-ketligini kuzatish mumkin. Bu oʻrinda **I. Mechnikov**ning jahon sivilizatsiyasi bosqichlari va bunda buyuk tarixiy ilk daryolarning roli xaqidagi asarini ham eʼtibordan chetga qoldirmaslik kerak. Muallif jahon madaniyati va taraqqiyotida daryo, Oʻrta dengiz va okean sivilizatsiyalarini ajratadi. Ular bir vaqtning oʻzida emas, balki turli davrlarda, birining oʻrnini ikkinchisini olishi bilan yuzaga kelgan.

Darhaqiqat, jahon taraqqiyoti Uzoq Sharq, Yaponiya va Xitoydan boshlanib, Oʻrta va Yaqin Sharqqa, undan Oʻrta dengiz va Pireney yarim oroliga, ulardan Angliya va nihoyat Amerikaga (AQSH)ga koʻchdi. Hozirgi davrda tarixni, iqtisodiy-ijtimoiy hayotni rivojlantiruvchi mintaqalar «uch-burchagi», yaʼni AQSH-Gʻarbiy-Yevropa-Yaponiya hisoblanadi. Ayni vaqtda, yetakchi kuchning asta-sekin yana sharqqa koʻchishi alomatlari sezilmoqda. Ayni vaqtda buni Yaponiya taʼsiri va boshchiligida yangi industrial mamlakatlar — janubiy Koreya, Singapur, Tayland, Malayziya, Indoneziya jadal surʼatlar bilan rivojlanishida koʻramiz. Demak, bizning nazari-mizda, iqtisodiy taraqqiyotning sikl xususiyatiga ega ekanligi faqat davr, vaqt doirasidagina emas, balki Yer shari, global geografik makonda ham sodir boʻlmoqda. Bu esa albatta jahon xoʻjaligining rivojlanish va uning hududiy tarkibiga taʼsir qiladi.

Shu bilan birga mintaqqa iqtisodchilari, iqtisodiy geograflar **V. Leontyev** va **U. Izard**larning tarmoqlararo va hududlararo balansi hamda mintaqaviy iqtisodiyot fani toʻgʻrisidagi ilmiy gʻoyalarini, **Zipfa** va **Styuart**, **Dj.Fridman** kabilarning shaharlar rivojlanishi, boshqa olimlarning «dunyoviy shaharlar» haqidagi yangi ishlarini ham bilishlari lozim. Zero, ularning barchasi ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan bevosita bogʻliq.

Biz yuqorida ishlab chiqarishni joylashtirishning ilmiy g'oyalarini asosan G'arb olimlari asarlari bo'yicha talqin qildik. O'z-o'zidan savol tug'ilishi tabiiy: nahotki uzoq tarixga, madaniyatga ega bo'lgan o'zimizning yurtimizda bunday ishlar qilinmagan bo'lsa? Shubha yo'q, albatta bu borada ham o'lkamiz katta va boy merosga ega. Muammo faqat ularni tarixiy manbalardan qidirib topish, o'rganish, targ'ib va tashviqot qilish, amalga tatbiq qilishdan iborat bo'lmog'i lozim. Masalan, bu yerda, xususan dehqonchilikni rivojlantirish va joylashtirish, sug'orish inshootlarni qurish va foydalanish, savdo va hunarmandchilik sohalar, shaharsozlik to'g'risida dunyo ahamiyatiga molik ixtirolar yaratilgani sir emas. Matematika, tibbiyot va boshqa fanlar tug'ilgan bu Ona zamin ijtimoiy-iqtisodiy hayotning boshqa sohalariga, jahon madaniyati va tarixiga ham o'zining munosib hissasini qo'shgan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. I.Tyunenning «xalqalari» nima?
2. A.Veberning sanoat shtandorti haqida nimalarni bilasiz?
3. V.Kristaller va A. Lyosh ilmiy g'oyalari mohiyatini tushuntirib bering.
4. Yangiliklar davr va hududga qanday tarqaladi?
5. Yer, hudud qanday funksiyalarni bajaradi?
6. O'zingiz yashab turgan viloyat tabiiy sharoiti va boyliklariga iqtisodiy baho bering.
7. Infrastruktura nima va u ishlab chiqarishni joylashtirishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
8. Ekologik omil va ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish borasida nimalarni ayta olasiz?

VIII BOB

TABIY SHAROIT, TABIIY RESURLAR VA IJTIMOY HAYOT

Insoniyat ma'lum bir tabiiy muhitda o'z hayotini kechiradi. Tabiat, tom ma'noda, insoniyat hayot tarzi va jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi va rivojiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Bizni o'rab turgan tabiat jamiyat hayotiga ta'siri nuqtai nazaridan odatda ikki ma'noda tushiniladi

- 1) Tabiiy sharoit
- 2) Tabiiy resurslar.

Ishlab chiqarish kuchlari va aholining hududlararo tarqalishi va rivojlanishiga bilvosita ta'sir etuvchi barcha xil tabiat kuchlari va ne'matlari **tabiiy sharoit** tushunchasini keltirib chiqaradi. Tabiiy sharoitni keltirib chiqaruvchi asosiy elementlar sifatida joylarning relyefi, iqlimi, tuproq-suv sharoitlari, o'simlik, hayvonot dunyosi kabilar qatnashadi. Ular odatda jamiyat hayotiga turlicha ta'sir ko'rsatadilar va yashash sharoitini shakllantiradilar.

Turli mintaqalarda tabiiy sharoitning turlicha bo'lishi ko'proq hududning qaysi geografik kengliklarda joylashganligiga bog'liqdir. Zero, Ekvatorga yaqinlashgan sari iqlimning isib borishi, Shimoliy va Janubiy qutblarga borgan sari esa sovub borishi bizga ma'lum. Shuning bilan birga, joylarda tabiiy sharoitning tamoman shakllanishida ularni hosil qiluvchi boshqa elementlar ham faol qatnashadilar.

Tabiiy sharoit, elementlari orasida ijtimoiy hayotga relyefning ta'siri ancha katta. Binobarin, tekisliklar, tog'lar, botiq (cho'kma)li joylar tabiiy sharoitning kelib chiqishida turlicha qatnashadilar. Tabiiyki, turli relyef shakllarining joylar tabiiy sharoiti shakllanishida ularning dengiz va okeanlarga uzoq-yaqinligi, yog'in keltiruvchi havo oqimlariga nisbatan qanday joylashganligi holatlari ham katta ahamiyatga egadir. Quruqlik bo'ylab iqlimiy ko'rsatkichlarning, hususan yog'ingarchilikning taqsimlanishida ayniqsa balandliklar va tog'lar muhim rol o'ynaydi.

Joylarda tabiiy sharoitning shakllanishida balandliklar va tog'larining ahamiyatini misollarda qarab chiqamiz.

Xaritalarga qarab asosan kenglik yo'nalishda cho'zilgan Himolay tog'larini aniqlang. Dunyoda eng baland bo'lgan ana shu tog'lardan janubda joylashgan Hindiston yil davomida asosan issiq va boy tabiatga ega ekanligini yaxshi bilasiz. Ayni vaqtda Himolay va Tibet yassi tog'lardan shimolda joylashgan cho'l hududlarning tabiati esa yozda issiq, qurg'oqchil va qishda qahrli sovuq (keskin kontinental) iqlimga ega ekanligini ham bilamiz. Xo'sh, bir-birlaridan keskin farq qiluvchi bu ikki tabiatli olamning yuzaga kelish sabablari nimada ekanligini tushungandirsiz?

Yana misollarga murojaat etamiz. Xaritalardan asosan kenglik bo'ylab cho'zilgan Katta Kavkaz, Alp, Kopetdog' va Hisor tog'larini ham toping. Ularda ham ko'p jihatdan Himolay tog'lari tufayli yuzaga kelgan holatlarni ko'rasiz. Katta Kavkaz va Alp tog'laridan janubda tabiati iliq va ancha boy subtropik iqlim, shimolida esa asosan sernam, lekin yozi iliq, qishi mo'tadil sovuq iqlim hukmronlik qiladi. Kopetdog' va Hisor tog'laridan janubda (O'zbekistonning Surxondaryo viloyatida) asosan qishi namli, iliq va qisqa, yozi esa quruq, jazirama va davomli subtropik iqlim, tog'larning shimolida esa asosan cho'l hududlarga xos keskin kontinental iqlim harakterlidir.

Xo'sh, bir-birlaridan keskin farq qiluvchi bu ikki tabiatli mintaqalarning yuzaga kelishining asosiy sabablarini o'ylab ko'rdingizmi? Siz bilasizki, qish fasllarida shimoldan janubga qarab tez-tez sovuq arktik havo oqimlari harakat qiladi. Yozda esa, aksincha, issiq tropik havo janubdan shimoliy kengliklar tomon harakatlanadi. Biz hozirgina tanishgan bu baland tog'lar asosan shimoldan janubga harakat qiluvchi havo oqimlari yo'lida o'tib bo'lmas devor kabi ko'ndalang turganligi sababli o'sha tog'lar janubida deyarli doimiy yoz (Hindiston) yoki ancha iliq qish (Italiya, Gruziya, Ozarboyjon, Eron va O'zbekistonning Surxandaryo viloyati) iqlimi yuzaga keladi. Bu tog'lardan shimolda joylashgan hududlarda esa qish sovuq va yozi issiq fasllar hukmronlik qiladi.

Umuman olganda har qanday tog' va balandliklar joylar tabiiy sharoitining shakllanishida o'z ta'siriga ega bo'ladi. Agar

tog' va balandliklar okean va dengizlardan yog'in olib keluvchi havo oqimlari yo'lida ko'ndalang joylashgan bo'lsa, bunday holatda ham ularning ta'siri katta bo'ladi. Shu sababli nam havo oqimlari kelib uriladigan balandlik va tog'larning o'ng'ay yonbag'irlari odatda ancha seryog'inli va teskay yonbag'irlarda esa qurg'oqchil holatlar kuzatiladi.

Bunga dunyoning turli mintaqalaridan ko'plab misollar keltirish mumkin. Yog'in keltiruvchi havo oqimlarining qaysi tomondan esishiga bog'liq bo'lganligi sababli Markaziy And tog'larining sharqiy yonbag'rida yiliga o'rtacha 1000 mm gacha yog'in tushgani holda, uning g'arbiy yonbag'rida yog'ingarchilik miqdori 100 mm dan oshmaydi. Ushbu tog'ning janubiy davomida aksincha holatlar kuzatiladi. G'arbiy yonbag'rida namgarchilik miqdori to 5000 mm gacha borsa, uning teskay (sharqiy) yon bag'rida bu miqdor 200-250 mm dan oshmaydi.

Ural tog'lari asosan meridian yo'nalishda joylashganligi Sizga ma'lum. Bu kengliklarga yog'in keltiruvchi havo oqimlari Atlantika okeanidan (g'arbiy havo oqimlari) esishi tufayli tog'ning g'arbiy yon bag'irlarida 600-700 mm gacha yog'in yog'sa, uning sharqiy tomonida bu miqdor ikki baravargacha kamayadi. Aynan shunaqa holat nisbiy balandligi ancha past bo'lgan Volgabo'yi balandliklarida ham kuzatiladi: balandlikning g'arbiy tomonlarida (o'ng qirg'oq, unda yog'ingarchilik miqdori 350-450 mm gacha) sharqiy (chap qirg'oq) qismiga nisbatan shu darajada namgarchilik pasayadiki, bu hududlarda sug'ormasdan dehqonchilik ishlarini olib borishga deyarli imkon bo'lmaydi.

Bunday misol bizning o'lkalarimizda ham kuzatiladi. Ma'lumki, O'zbekiston va Qozog'iston respublikalarining G'arbiy va Markaziy hududlari asosan tekisliklardan iborat va ular yog'in olib keladigan g'arbiy havo oqimlari yo'lida joylashgan bo'lishiga qaramasdan balandliklar va tog'lar bilan egallangan Sharqiy hududlariga nisbatan juda ham qurg'oqchildir. Shu darajada qurg'oqchilki, bu hududlarda yog'in o'ta kam yog'adigan bo'lganligi sababli dehqonchilik u yoqda tursin, chorvachilikni ham bemaolol rivojlantirib bo'lmaydi. Ozgina o'ylab ko'rilsa buning ham asosiy sababi rel'yef ekanligini anglab yetish qiyin emas. Aynan relyef xususiyatlari

tufayli yog'ingarchilik miqdori masalan, O'zbekistonning tekislik qismlarida 100-200 mm dan tog' oldi va tog'li hududlarda 500-700 mm gacha ko'payadi. Shu sababli Markaziy Osiyo mintaqasining suv manbalariga boy bo'lgan sharqiy rayonlari iqtisodiy jihatdan yaxshi o'zlashtirilgan, g'arbiy tekislik hududlarida esa aholi siyrak joylashgan.

Hududning seysmiklik holatlari ham uning tabiiy sharoiti xususiyatlarining shakllanishida faol ishtirok etadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yer yuzasi bo'ylab eng ko'p zilzila — yer tebranishlari tog' va tog' oldi hududlariga to'g'ri keladi. Halokatli zilzilalar va vulkanik harakatlar tez-tez kuzatiladigan alohida mintaqalar va mamlakatlar (Markaziy Amerika, Yaponiya, Afg'oniston, ayrim O'rta dengiz bo'yi mamlakatlari) mavjudligini bilasiz. Shuning bilan birga bu jihatdan ancha xavfsiz va tinch hududlar, hamda mamlakatlar (ko'pchilik G'arbiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari) borligidan ham xabardorsiz.

Umuman, shu va shunga o'xshash sabablarga ko'ra sayyoramizning eng shimoliy va eng janubiy kengliklari bo'ylab uning sovuq mintaqalari, o'rta (mo'tadil) mintaqaning shimoliy hududlari bo'ylab esa keng ignabargli va bargli o'rmonlar zonasi joylashgan. Ulardan Ekvator tomon boriladigan bo'lsa avval o'rmon-dasht va dasht, keyin esa chala cho'l va cho'l, subtropik va tropik, savanna va nam ekvatorial tabiiy-geografik mintaqalar bir-birlarini almashtiradi.

Tabiiyki, ularda aholining yashash sharoiti (tabiiy sharoit) har hil bo'ladi. Shimoliy va janubiy Arktik va Antarktik o'lkalari va baland tog'li hududlar yil davomida asosan qor va muzlar bilan qoplangan va ularda aholi deyarli yashamaydi. Igna bargli o'rmonli hududlar asosan zaxkash va botqoqlangan. Cho'l va chala cho'l mintaqalari iqlimi o'rta qurg'oqchiligi tufayli iste'mol qilinadigan suv manbalariga juda kambag'al. Shu sababli yer shari umumiy maydonining 2/3 qismidan ko'prog'ini egallagan ana shu mintaqalar hududi iqtisodiy jihatdan o'zlashtirilmagan, yoki juda sust o'zlashtirilgan. Yer, suv va iqlimiy sharoitlari eng qulay bo'lgan o'rmon-dasht va dasht mintaqalari, dengiz bo'yi tekisliklari, qulay tog' vodiylari va tog'oldi kengliklari esa inson tomonidan eng yaxshi o'zlashtirilgan.

JAHON YER FONDI

№	Yer kategoriyalari	Yer maydoni	
		mln ga	foiz
1	Foydalaniladigan yerlar	5505	37,0
2	O'rmonlar va butazorlar	4030	27,0
3	Foydalanilmaydigan va kam foydalaniladigan yerlar	5370	36,0
4	Jami yerlar	14900	100,0

Aynan ana shu mintaqalarda yer yuzasi jami ekin maydonlarining 2/3 qismidan ko'prog'i joylashgan. Shulardan kelib chiqib, tabiiy yashash sharoitiga ko'ra sayyoramizdagi jami quruqlikni uch guruhga ajratish mumkin.

1. **Yashash uchun qulay tabiiy sharoitli hududlar.** Bularga jahonning asosan o'rmon-dasht va dasht zonasi, mo'tadil, tropik va ekvotrial mintaqalarning suv bilan yaxshi ta'minlangan dengiz bo'yi tekisliklari kiradi;

2. **Yashash uchun u qadar qulay bo'lmagan tabiiy sharoitli hududlar.** Bularga jahonning asosan shimoliy va ekvotrial o'rmonlari hamda asosiy cho'l va chala cho'l hududlari, materiklar ichki qismidagi tog' va tog' oldi maydonlari kiradi;

3. **Yashash uchun umuman noqulay tabiiy sharoitli hududlar.** Bularga asosan shimoliy va janubiy qutb kengliklaridagi deyarli barcha hududlar (Antarktida materigi, Grenlandiya va ko'p sonli boshqa orollar)ning asosiy maydonlari, turli materiklarda joylashgan baland tog'li hududlar kiradi.

Jahonning deyarli barcha rivojlangan davlatlari qolaversa, qadimdan aholi zich yashab kelayotgan hududlar asosan tabiiy qulay sharoitli mintaqalarda joylashganlar. Shu sababli bunday hududlar barcha tarixiy rivojlanish bosqichlarida ijtimoiy hayotda yetakchi mavqelarni egallab kelmoqdalar.

Yer yuzasi umumiy maydonining katta qismini egallagan yashash uchun u qadar qulay bo'lmagan tabiiy sharoitli hududlar asosan inson tomonidan so'ngi yuz yillik davomida faolroq o'zlashtira boshlangan. Shu sababli bunday hududlar to keyingi yillargacha ko'p hollarda ishlab chiqarish *eksten-*

siv rivojlangan hududlar bo'lib kelmoqda va bunday mintaqalarda joylashgan mamlakatlar jahonning iqtisodiy va siyosiy hayotida ikkilamchi va ayrim hollarda undan ham past o'rinlarda qolib ketmoqdalar.

Tabiiy sharoiti butunlay noqulay bo'lgan hududlarning katta qismi bundan keyin ham asosan inson tomonidan doimiy yashash maskani sifatida egallamagan «bo'sh» maydonlar bo'lib qolaveradi. Shuning bilan birga ularni ma'lum maqsadlarda o'zlashtirish ishlari uzluksiz olib borilaveradi.

Inson hayoti va ijtimoiy faoliyati davomida xilma-xil tabiat resurs (boylik)laridan keng foydalaniladi.

Tabiiy resurs deb inson hayoti va faoliyati davomida bevosita foydalaniladigan barcha xil tabiat ne'matlariga aytiladi. Tabiiy resurslar inson hayotida hamisha katta o'rin tutib kelgan. Ular avvalo jamiyat hayotining moddiy negizi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli aholi sonining ko'payishi va jamiyatning rivojlanib borishi bilan turli tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyoj ham taboro oshib boradi.

Tabiiy resurslar kelib chiqishi, ishlatilishi hususiyatlariga ko'ra tugamaydigan va tugaydigan guruhlariga bo'linadi.

Tugamaydigan tabiiy resurslarga ko'proq kelib chiqish negizi fazo bilan bog'liq bo'lgan Quyosh, shamol, dengiz va okeanlar, yerning ichki (geotermal) energiyalari va agro-iqlim imkoniyatlari hamda yadroviy (atom) energiya vositalari kiradi. Ular tabiatda amalda cheksiz ko'lamda mavjuddir.

Tugaydigan tabiiy resurslarga yer-tuproq, mineral, chuchuk suv, o'simlik, hayvonot, rekreatsiya kabi boyliklar kiradi. Ular o'z navbatida **tiklanadigan** va **tiklanmaydigan** resurslarga ham bo'linadi. O'rni tiklanishi mumkin bo'lgan tabiiy resurslarga tuproq, o'simlik, hayvonot, rekreatsiya, inson iste'mol (daryo va chuchuk ko'llar, yer osti) qiladigan chuchuk suv kabilar kiradi. O'rnini tiklab bo'lmaydigan tabiiy resurslarga turli xil yer osti (mineral)boyliklari kiradi.

Tabiiy resurslarning asosiy qismi insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham turli moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari uchun qimmatbaho xomashyolar sifatida xizmat qilib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

O'z-o'zidan ma'lumki, inson dastlabki davrlarda o'zini o'rab turgan va bemalol qo'li «yetadigan» o'simlik va hayvonot, suv va tuproq kabi tabiiy (tugaydigan) resurslardan keng foydalangan. Keyinroq esa foydalanish ancha murakkab bo'lgan yer osti (mineral) boyliklarni (tugaydigan) iste'mol qilishni o'zlashtirib olgan. Bu hol hozirgacha davom etmoqda. Bunga qo'shimcha qilib, aynan tugaydigan tabiiy resurslardan foydalanish sur'atlarining so'ngi yillarda misli ko'rilmagan darajada tezlashib ketganligini alohida qayd qilmoq kerak.

Mutaxassislar hisobiga ko'ra, agar insoniyat o'rta asrlar (Beruniy, Ibn Sinolar) davrida atigi 18 xil kimyoviy element va ularning birikmalarini ajratib olishni uddalagan bo'lsa, ularning soni XVII asrda 25, XX asr boshlarida 54 va XXI asr boshlarida sun'iy yo'l bilan olingan elementlarni ham qo'shib hisoblaydigan bo'lsak, 100 xildan ko'proqni tashkil qiladigan bo'ldi. Tabiiy resurslarni o'zlashtirish hajmi shu qadar tezlashdiki, so'ngi 30 yil ichida homashyo sifatida yer qa'ridan qazib chiqarilgan mineral boyliklar hajmi undan oldingi jami qazib olingan umumiy darajadan ham ancha ortiqlik qiladi. Bu tezlashish jarayoni bundan keyin ham ortib borishi kutilmoqda.

Tugamaydigan tabiiy resurslardan insoniyat ehtiyojlarida foydalanish avvalo katta bilim va mablag'larni talab qilganligi sababli shu vaqtga qadar ulardan juda kam foydalanib kelindi, go'yo bundan keyingi avlodlar uchun ataylab saqlab qo'yilgandek. Hozirgi FTI davrida ulardan keng foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda va kelajakda ulardan foydalanish taboro kuchayib boraveradi.

Tabiiy resurslar yer yuzasi bo'ylab ancha notekis joylashgan. Bu avvalo quruqlik, dengiz va okeanlarning geografik kengliklar va iqlimiy mintaqalarda turlicha joylashganligi, yer osti qazilma boyliklari hosil bo'lish sharoitlari (tektonikasi)-ning mintaqalarda turlicha kechganligi bilan bog'liqdir. Shu sababli jahonda tabiiy resurslar bilan ancha yaxshi ta'minlangan mamlakatlar, hududlar mavjud. Fors qo'ltig'i neft va tabiiy gazga, And mamlakatlari mis va polimetallga, Shimoliy yarim sharning o'rta kengliklari va ekvotrial mintaq hududlari suv va o'rmonlarga ancha boy. Rossiya, AQSH, Xitoy, Kanada, Braziliya, Avstraliya kabi bir qator davlatlar amalda

tabiiy resurslarning deyarli barcha xillari bilan yaxshi ta'minlangan. Shuning bilan birga ko'pgina mamlakatlar muhim tabiiy boyliklarning bir yoki bir necha turlarigagina ega. Jahonda uchinchi xil mamlakatlar ham borki, ular tabiiy boyliklar, ayniqsa, mineral resurslarning hatto biron bir hayotiy ahamiyatli turlari bilan ham kerakli darajada ta'minlanmagan.

Sobiq Ittifoq respublikalaridan Qozog'iston, Ukraina, O'zbekiston turli mineral boyliklarga ancha boy, Moldova, Boltiq bo'yi respublikalarining aksincha, ancha kambag'al ekanliklarini qayd qilmoq kerak.

AQSHdek tabiiy resurslar bilan yaxshi ta'minlangan mamlakat atigi 22 xil mineral xom ashyo bilangina o'zini to'la ta'minlay oladi. U, to 15-20 foizgacha bo'lgan o'ziga kerakli mineral homashyolarni esa import hisobiga qondiradi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'z ehtiyoji uchun zaruriy mineral boyliklarning 70-80 foizigacha boshqa mamlakatlardan sotib oladi. Bu ko'rsatkich Yaponiyada to 90-95 foizgacha boradi.

Tabiiyki, mamlakatlar taraqqiyotida tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi muhim iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega. **Tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi** deganda tabiiy resurslarning umumiy ko'lami ko'rsatkichlari bilan ulardan foydalanish miqdori o'rtasidagi nisbat tushuniladi. U tabiiy resurslarning necha yillargacha yetishi yoki resurs zaxira ko'rsatkichlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelishi natijalari bilan ifodalanadi.

Tabiiy resurslar iqtisodiy taraqqiyotda ancha ahamiyatli bo'lganligi sababli uzoq tarixiy davrlar davomida mamlakatlar siyosatini, demak turli davrlar siyosiy hayotini belgilashda muhim rol o'ynab kelgan. Tarixda yuz bergan ko'pchilik urushlarning kelib chiqishida, ko'p jihatdan joylarning boy yaylovlari, suvli va serhosil tuprog'i, go'zal tabiat go'shalari, oltin yoki boshqa boyliklarga ega bo'lgan konlari va boshqalar ham sabab bo'lgan.

Tabiiy resurslarning ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri ayniqsa, hozirgi vaqtda o'zining yuqori darajasiga ko'tarildi. So'ngi yillarda turli tabiiy, ayniqsa, mineral xomashyolar taqchilligining kuchayib, ekologik vaziyatning murakkablashib borishi,

G'arb bilan Sharq, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida mavjud kurashlarning yanada avj olishiga olib kelmoqda. Uzoq davom etayotgan Yaqin Sharq, Afg'oniston, Fors qo'ltig'i hududlari, Janubiy-Sharqiy Osiyo so'ngi vaqtlarda Markaziy Osiyo uchun kechayotgan siyosiy kurashlar negizida ko'p jihatdan qimmatli tabiiy resurslarga egalik qilish manfaatlari ham yotadi. AQSH va Rossiya, G'arbiy Yevropa va Uzoq Sharq mamlakatlarining bir-birlari bilan ayrim holda ochiqdan-ochiq, ko'pincha esa yashirin, ammo ayovsiz kurashlari oxir-oqibat har birlarining iqtisodiy manfaatlariga kelib taqaladi.

Shuning bilan birga alohida ta'kidlash lozimki, tabiiy resurslar mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida qanchalik muhim rol o'ynamasin, hozirgi FTI davrida ular birlamchi ahamiyatga ega bo'la olmaydi. Buni hayot turli misollarda tasdiqlaydi. Bir qator G'arbiy Yevropa, Yaponiya davlatlari, Osiyoning yangi industrial mamlakatlari deyarli biron xildagi tabiiy boyliklar bilan yetarli ta'minlanmagan. Shunga qaramasdan ular hozirgi vaqtda ijtimoiy taraqqiyotda ulkan natijalarga erishganlar. Aksincha, tabiiy resurslarning ko'pgina turlari bilan yaxshi ta'minlangan ko'plab Afrika, Osiyo, Lotin Amerikasi mamlakatlari esa iqtisodiy jihatdan hozirgacha jahonning qoloq davlatlari qatorida kelmoqda.

Demak, turli tabiiy resurslarning haqiqiy iqtisodiy boylikka aylanishida oxir oqibat boshqa omillar, birinchi navbatda, inson omili, uning ilmiy va amaliy salohiyati hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Nega biz tabiatni Ona tabiat deymiz?
2. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar deganda nimalarni tushunasiz?
Bu tushunchalarning asosiy farqlari va bog'liq tomonlarini so'zlab bering.
3. Tog'lar va balandliklarning tabiiy «devor»ligi mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Tugaydigan va tugamaydigan tabiiy resurslardan foydalanishda kelgusida biz qanday yo'l tutishimiz kerak?

5. Tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini davlatlararo siyosiy munosabatlarga ta'siri bormi? Hozirgi davr voqeliklaridan bularga misollar keltiring.
6. FTI davrida tabiiy resurslar davlatlarning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida qanday rol o'ynaydi?
7. Xarita va atlaslarga qarab jahonning tabiiy resurslarga eng boy va kambag'al mamlakatlarini ajrating va ular haqida so'zlab bering.

IX BOB

IQTISODIY VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTDA HUDUDNING O‘RNI

1. Hudud haqida tushuncha

Har qanday mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy geografik jihatidan o‘rganilishi uning hududi (lotincha—territorium, terra — yer, mamlakat, demakdir) va aholisi ko‘rsatkichlaridan boshlanadi. Mamlakatlarning xilma-xil tabiiy resurslari — yer, mineral, suv, agroiklim, o‘rmon resurslari bilan ta‘minlanish holatlari ko‘p hollarda aynan barcha boyliklarning «onasi» hisoblanadigan hududning katta kichikligiga bog‘liqdir. Jahonda tabiiy resurslarga eng boy bo‘lgan Rossiya, AQSH, Kanada, Braziliya, Avstraliya, Xitoy, Qozog‘iston ayni bir vaqtda hududi eng yirik mamlakatlar hamdir. To‘g‘ri, ayrim kichik hududli mamlakatlar ham ba‘zan biron hil mineral boyliklarga ancha boy bo‘lishi mumkin. Ancha kichik mamlakatlar bo‘lishiga qaramasdan Quvayt, Qatar, Bahrayn, BAAning neftga, Yamayka va Surinamning boksitga, Islandiya va Yangi Zelandiyaning geotermal energiyaga boy ekanligi bunga misol bo‘lishi mumkin.

Katta hududli mamlakatlarning tabiiy sharoiti ham ancha xilma-xil bo‘ladi. Tabiiyki, ularda hududning iqtisodiy o‘zlashtirilishi va aholining o‘rtacha zichlik darajalari bir xil bo‘lavermaydi. Bunday mamlakatlarda ancha yaxshi iqtisodiy o‘zlashtirilgan hududlar bilan bir qatorda hali juda sust o‘rganilgan keng o‘lkalar ham uchraydi. Rossiya, Kanada, Braziliya, Avstraliya, Xitoy ana shunday mamlakatlardandir. Aksincha, maydoni nisbatan kichik bo‘lgan mamlakatlarda odatda mavjud tabiiy resurslardan to‘laroq foydalanishga erishilganligi uchun hududning iqtisodiy o‘zlashtirilish darajasi ancha yuqori bo‘ladi va ularda aholi zich yashaydi. Shu sababli ularning ko‘pchiligi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardir. Bundaylarga Yevropaning ko‘plab, Osiyo va Amerika-ning ayrim mamlakatlari kiradi.

Shunday qilib, hudud, bir tomondan, mamlakatlar ob'yektiv borlig'ining asosi, aholisini siyosiy va ijtimoiy-ma'naviy jihatdan birlashtirib turuvchi muayyan yer maydoni, ikkinchi tomondan mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining muhim omili sifatida qatnashadi. Zero, insoniyatning, u yashayotgan mamlakatlarning jami iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy boyliklari ana shu zaminda shakllanadi va rivoj topadi.

Tabiiyki, sayyoramiz barcha mamlakatlarining hududi turli xil iqtisodiy geografik sharoitga ega. Avvalo ular, hududlarining katta-kichikligi, tuzilishi holatlari (yaxlit yoki tarqoq joylashganligi) turlichadir. Bunga agar hududning iqtisodiy geografik o'rni (IGO'), tabiiy sharoiti va resurslari kabi xususiyatlarini ham qo'shadigan bo'lsa, davlatlar egalik qilib kelayotgan zamin (hudud) imkoniyatlari naqadar xilma-xil ekanligini tushunish qiyin emas. Bularning hammasi, hududning qanday hususiyatdaligidan qat'iy nazar, unga qandaydir muqaddaslik darajasini egallashga olib kelgan. Shu sababli aynan hudud uzoq tarixiy davrlar davomida son-sanoqsiz qonli urushlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmadi va inson tug'ilib o'sgan yurtining har bir qarich yeri uchun o'zini, borlig'ini qurbon qilmadi, deysiz.

Shunday qilib, jahon mamlakatlarining hozirgi hududiy ko'rinishlari uzoq tarixiy davrlar davomida turlicha kechgan kurashlar va turli omillar ta'sirida shakllandi. Ular o'ziga hos miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi.

2. Hududning miqdor ko'rsatkichlari

Hududning miqdor ko'rsatkichlari, avvalo, uning umumiy maydoni, ularning katta-kichikligi holatlarida namoyon bo'ladi. 2-jadvalda jahon davlatlari va mamlakatlari hududining kattaligiga ko'ra miqdor ko'rsatkichlar keltiriladi.

Jadval ko'rsatkichlari asosida jahon mamlakatlarini hududining kattaligiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ulkan mamlakatlar. Ularga hududi 1 mln km² dan ziyod bo'lgan 29 mamlakat kiradi. Bu guruh mamlakatlar aholi yashaydigan yer yuzi umumiy maydonining sal kam 79 foizini o'zlarida birlashtiradilar. Ularda yer yuzi aholisining 61 foizidan ko'prog'i yashaydi. Bu guruh mamlakatlarning $\frac{2}{3}$ qismidan ziyodrog'i Afrika va Janubiy Amerikada joylash-

gan. Yevropada esa ulkan mamlakatlar umuman uchramaydi. Bu holatni Afrika va Janubiy Amerika siyosiy xaritasining asosan so'ngi asrlarda shakllanganligi bilan tushuntirish mumkin.

2-jadval

	Yirik mintaqalar	Mamla- katlar	Mamlakatlar kattaligi (ming km ²) bo'yicha				
			1 mln va undan katta bo'lganlar	500- 1000	100- 500	1-100	1 ming- dan kichik bo'lganlar
1	MDH	12	2	1	5	4	—
2	Yevropa	40	—	2	12	19	7
3	Osiyo	39	6	6	12	12	3
4	Afrika	56	12	11	15	16	2
5	Amerika	49	8	2	9	15	15
6	Avstraliya va Okeaniya	26	1	—	2	7	16
	Jahon bo'yicha	222	29	22	55	73	43

2. Yirik mamlakatlar. Bu guruhga hududi 500 mingdan 1 mln. km² gacha kattalikda bo'lgan mamlakatlar kiradi. Ularning umumiy soni 22 ta bo'lib, jahon umumiy maydonining 11 foizidan ko'prog'i va aholining 13,5 foizini o'zida birlashtiradi. Bunday mamlakatlarning aksariyati Afrika va Osiyoda joylashgan.

3. O'rta kattalikdagi mamlakatlar. Hududi 100 mingdan 500 ming km² gacha kattalikda bo'lgan bu guruh mamlakatlarning soni 56 tadir. Ular jahonning davlatlar tomonidan egallangan umumiy maydonining 5,8 foizini va aholisining 14,6 foizini o'zlarida birlashtiradi. Guruh mamlakatlarning asosiy qismi Yevropa, Osiyo va Afrika mintaqalarida joylashgan.

4. Kichik mamlakatlar. Bu guruhga hududining kattaligi 1 mingdan 100 ming km² gacha bo'lgan 72 davlat va mamlakatlar kiradi. Eng ko'p sonli mamlakatlardan tashkil topgan bu guruh o'zida jahon umumiy maydonining atigi 4 foizini va aholisining 10,4 foizini birlashtiradi. Bunday mamlakatlarning hissasi jahonning deyarli barcha mamlakatlarda bir muncha kattaroqdir.

5. Mitti mamlakatlar. Jahonda bu guruhga maydoni 1 ming km² dan kichik bo'lgan 43 davlat va mamlakatlar kiradi. Ularning hammasi jahon umumiy maydoni va aholisi bo'yicha atigi 0,1 foizga yaqin qismini o'zlarida birlashtiradi, xolos. Mitti mamlakatlar garchi jahonning deyarli barcha mintaqalari bo'yicha tarqalgan bo'lsa-da, ularning katta qismi Amerika va Okeaniyaning son-sanoqsiz orollarida joylashgandir.

Ta'kidlamoq kerakki, so'ngi ikki guruh mamlakatlarning siyosiy xaritasi hali oxirigacha shakllanib bo'lgan emas. Yaqin-yaqinlargacha turli mustamlakachi mamlakatlar tobeligida bo'lib kelgan bu guruh mamlakatlarining kamida $\frac{1}{3}$ qismi, turli sabablarga ko'ra, hozirgacha o'z mustaqilliklariga erishgan emas.

3. Hududning sifat ko'rsatkichlari.

Mamlakatlar hududining sifat ko'rsatkichlari qatoriga ularning shakli (konfiguratsiyasi), chegaralarining ijtimoii-siyosiy geografik xususiyatlari, mamlakatlar hududining iqtisodiy geografik o'rni (IGO') va boshqalar kiradi.

Agar jahon siyosiy xartasiga diqqat bilan nazar tashlasak, undagi mamlakatlar katta-kichikligidan qat'iy nazar, ular har birlarining shakli-shamoyillari turlicha ekanligini ko'ramiz. Mamlakatlar bir qismining hududi yaxlit va to'da (kompakt) joylashgan bo'lsa, boshqa bir qismi bir qancha bo'laklardan iborat va tarqoq joylashgandir, ularning uchinchi bir qismining hududi o'ta cho'zilgan holda yoki ko'p sonli orollarda joylashgan bo'ladi.

Hududni iqtisodiy jihatdan samarali foydalanish va tashkiliy jihatdan qulay boshqarish imkoniyatlari eng ko'p **to'da (kompakt) joylashgan mamlakatlarga** xos bo'ladi. Agar mamlakat hududi tarqoq va bo'lak-bo'lak yoki ancha cho'zilgan bo'lsa, tabiiyki, undan foydalanish imkoniyatlari shu darajada past bo'ladi.

Hududi kompakt (yaxlit va to'da) joylashgan mamlakatlar barcha mintaqalarda ham asosan ko'pchilikni tashkil qiladi. Ayniqsa bunday holat G'arbiy Yevropa, Markaziy Amerika, Janubi-G'arbiy Osiyo, MDH kabi mintaqalarning ko'pchilik mamlakatlariga taalluqlidir. Ularning hududiy shakli — tuzilishi asosan har jihatdan qulaydir. Bunday hududiy tuzilishga ega bo'lgan mamlakatlarning ko'pchiligi hozirgi vaqtda,

agar ularga boshqa salbiy omillar ta'sir ko'rsatmagan bo'lsa, yuqori rivojlanish darajalariga erishganlar. Hududi kompakt joylashgan G'arbiy Yevropaning deyarli barcha davlatlari, Osiyoning Koreya respublikasi, Singapur kabi ayrim mamlakatlari hozirgi vaqtda yuqori rivojlanish darajasiga erishganlar.

Bir qator mamlakatlar hududi, aksincha, nisbatan tor yo'nalishda nihoyatda cho'zilgan shaklga egadir. Jumladan, Chili Tinch okeani bilan And tog'lari oralig'i (eniga 150-200 km gacha) bo'ylab shimoldan janubga 4300 km ga, Vyetnam va Norvegiya esa (xaritalarga qarab ularning qaysi dengizlar bo'ylab joylashganligini aniqlang) 1700 dan sal kam 2000 km gacha, xalq tili bilan aytganda, «ichakdek» cho'zilganlar. AQSH hududi mamlakatning, bir-birlaridan minglab km uzoqda joylashgan materik, Alyaska yarim oroli hamda Gavayi orollari qismlarga bo'lingan holda tashkil topgan. Rossiya Federatsiyasining asosiy hududidan uning Kaliningrad viloyati, Ozarboyjonning asosiy hududidan esa Naxichivan respublikasi butunlay ajralgan holda joylashgan. O'z-o'zidan ma'lumki, hududniig shunga o'xshash nomutanosiblik xususiyatlari ushbu mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy-siyosiy hayotida ba'zi qiyinchiliklarni, muayyan vaziyatlarda esa ayrim tangliklarni keltirib chiqaradi.

Hududning sifat ko'rsatkichlari qatoriga **mamlakatlarning chegaralari** va ulardagi **ijtimoiy-siyosiy-geografik** holat ham kiradi. Chunki tarixiy davrlardan hozirgacha bu ob'yektiv haqiqat mamlakatlar o'rtasida shakllanadigan o'zaro munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazib keladi. Agar chegaralar barqaror, tinch va obod bo'lsa mamlakatlar orasida totuvlik va do'stona munosabatlar, aksincha bo'lsa munosabatlarda ijtimoiy notinchlik, ba'zi hollarda siyosiy tanglik qaror topadi. Shunday bo'lib kelgan va bu haqiqat bundan keyin ham davom etaveradi.

Biz har qanday mamlakatlar chegaralarida yuz berishi mumkin bo'ladigan siyosiy-ijtimoiy inqirozlar qanday noxush ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin ekanligini aniq voqealar misolida tushunishga harakat qilaylik. Shu bilan birga jahonda hozirgacha davlatlararo siyosiy-hududiy va boshqa turli ijtimoiy (milliy, diniy, fuqarolararo) majorolar o'z yechimini topolmay kelmoqda. Shu sababli bunday chegaralararo tangliklarni bundan keyin ham kutish mumkin.

Yaqin Sharq, Balqon, Kavkaz, Janubiy Osiyo, Markaziy va Sharqiy Afrika kabi mintaqalar mamlakatlariaro yoki muayyan davlat ichida yuz berayotgan eski yoki yangi notinchliklar (ular qaysi mamlakatlar o'rtasida sodir bo'layotganligini kundalik jahon voqealari asosida gapirib bering) shunday hulosa chiqarishga olib keladi. Eng muhimi chegaralar tinchligi doimo mamlakatlararo do'stlikka, ijtimoiy yuksalishga xizmat qiladi. Chegaralarda yuzaga keladigan notinchlik, murakkab vaziyatlar esa, agar ularning oldi olinmasa, faqat urush, vayronaliklar, tinch aholining honavayron bo'lishiga olib keladi.

Hududning sifat ko'rsatkichlarini belgilashda uning **iqtisodiy geografik** o'rni (IGO') xususiyatlari ham muhim o'rin tutadi. Zero, hudud IGO' ning qulay yoki noqulaylik holatlari mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyoti jarayonida u yoki bu tarzda xizmat qiladi, ko'pchilik hollarda ularning qulayligi juda muhim omil sifatida qatnashadi. Bu haqiqatni Yaponiya va G'arbiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishi darajalari ko'rsatmoqda. U mamlakatlarning o'zlarida ko'pchilik zaruriy tabiiy resurslar yetishmasligiga qaramasdan avvalo IGO' ning ancha qulayligi sababli yuksak rivojlanish darajasiga erisha oldilar. Aksincha, jahonda o'nlab turli tabiiy resurslarga boy bo'lgan mamlakatlar ham borki, ular ko'p hollarda iqtisodiy taraqqiyotda IGO' ning noqulayligi uchun yuqori mavqelarga erisha olgan emas. Osiyo, Afrika, Janubiy Amerikaning materik ichkarisida joylashgan ayrim mamlakatlari shular qatoriga kiradi.

Xo'sh, IGO' nima va uning xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

Har qanday hudud — mamlakat sayyoramizning muayyan qismlarida joylashgan. Ular ma'lum geografik kenglik, mintaqalar va relyef sharoitida, dengiz va okeanlarga yaqin yoki uzoqda, turlicha rivojlangan va ijtimoiy-siyosiy jihatdan tinch yoki notinch mamlakatlar bilan chegaradoshlik holatida joylashgan bo'ladi. Bu va shunga o'xshash geografik ko'rsatkichlarning sintetik yig'indisi hududlarning IGO' xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Ular birgalikda mamlakatlar IGO'ning qulay yoki noqulay bo'lishiga olib keladi.

Shuning bilan birga IGO' xususiyatlari **ancha tez o'zgaruvchanlik** xarakteriga ham egadir. Mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarning holati, hududlararo magistral yo'llar

va yirik kanallarning o'tkazilishi, yoki, aksincha ularning yopib qo'yilishi, yirik konlarning topilishi yoki zaxirasining tugab qolishi muayyan joylar va mamlakatlarning IGO'ni yaxshi yoki yomon tomonga tez o'zgartirib yuboradi. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Ma'lumki, miloddan oldingi II asrdan XVI asr oxirigacha jahon ijtimoiy taraqqiyotida alohida o'rin tutuvchi «Buyuk ipak yo'li» harakatda bo'lgan edi. Yevraosiyo materigining Sharqini G'arbi, Janubini Shimol bilan chambarchas bog'lab kelgan bu yo'l aynan Markaziy Osiyo — O'zbekiston hududi orqali o'tar edi. «Buyuk ipak yo'li» tufayli uzoq davom etgan davrlarda bizning o'lkalarimizning IGO' katta qulayliklarga ega bo'lgan. Shu sababli u davrda bu mamlakatlarda ishlab chiqarish, fan, madaniyat yetuk rivojlanish darajasiga erishgan edi. Bu esa, o'z navbatida bu yurtlardan o'nlab mutafakkirlar, daholar yetishib chiqishiga qulay sharoit yaratgan edi.

Keyinchalik G'arb bilan Sharqni bog'lovchi qulay dengiz yo'llarining ochilishi bilan «Buyuk ipak yo'li» inqirozga uchradi. Bu holat Markaziy Osiyoning IGO'ning yomonlashuviga, ijtimoiy hayot rivojlanishining tushkinligiga olib keldi. Oqibatda bu yo'llarda uzoq davom etgan qoloqlik davri boshlandi. «Buyuk ipak yo'li» bo'ylab karvonlar qatnovining to'xtab qolishi nafaqat Markaziy Osiyo, balki Eron, Iroq va boshqa Yaqin Sharq mamlakatlarining ijtimoiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir etmasdan qolmadi. Aksincha, dengiz transportining tobora rivoj topishi Angliya, Niderlandiya, Ispaniya, Portugaliya, Rossiya kabi ko'plab Yevropa mamlakatlarining IGO' ning yaxshilanishiga, oqibatda bu mamlakatlarning tez yuksala borishiga olib keldi.

1886 yilda Suvaysh va 1914 yilda Panama kanallarining qurib ishga tushirilishi, birinchi navbatda, Misr va Panama, qolaversa, Yaqin Sharq va Markaziy Amerika mamlakatlarining ilgari noqulay bo'lgan IGO' ning keskin yaxshilanishiga olib keldi. Xuddi shunday Fors qo'ltig'i bo'yi mamlakatlarida II jahon urushidan keyingi davrlarda boy neft va gaz konlarining, uzoq Avstraliya, Braziliya, Kanada, boshqa ayrim Amerika, Osiyo davlatlarida yirik temir rudasi, rangdor metallar va boshqa mineral boylik konlarining ishga tushirilishi ular IGO'ning ham ancha yaxshilanishiga olib keldi.

Sobiq Ittifoq davrida O'rta Osiyo respublikalari xususan O'zbekiston jahonga faqat Rossiyaning markaziy rayonlari orqaligina chiqa olar edi. Tabiiyki, bu holat O'rta Osiyo mamlakatlari IGO' ni yomonlashtirgan, bu esa ularning manfaatlariga mos emas edi. Shu sababli ular mustaqillik yillari boshlaridanoq jahon bozorlariga olib chiqadigan qulayroq aloqa yo'llarini tashkil qilishga kirishdilar. Shunga ko'ra o'tgan yillar davomida Qozog'iston hududi orqali Xitoyning Tinch okeani bo'ylariga, Turkmaniston hududi orqali, Eronning Fors ko'rfazi va Kavkazning Qora dengiz sohillari bo'ylab joylashgan dengiz portlariga olib boradigan qo'shimcha temir yo'l va avtomobil transporti yo'laklari tashkil qilindi. O'zbekiston hududi orqali Afg'onistonga va undan Pokiston hamda Eronning dengiz bo'ylariga, Qirg'iziston hududi orqali Xitoyning Tinch okeani sohillariga eltuvchi yanada qulayroq qo'shimcha transport yo'llari tashkil qilish harakatlari olib borilmoqda. Bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O'zbekiston IGO' ga xos noqulayliklarini tobora bartaraf etishga olib keladi.

Keltirilgan misollardan ayrim hudud yoki mamlakatlar IGO' ning qulay yoki noqulaylashishi nimalarga bog'liq ekanligini anglab olish mumkin. Xo'sh, qanday geografik omil mamlakatlarning IGO'ni belgilovchi asosiy me'yoriy ko'rsatkich darajasida qatnashadi? Mamlakatlar IGO' xususiyatlarini belgilashda qatnashuvchi xilma-xil omillar orasida eng asosiy bo'lib, hech shubhasiz, ularning dengiz va okeanlarga nisbatan qanday joylashganligi hisoblanadi. Dengiz va okeanlarga to'g'ridan-to'g'ri chiqa oladigan mamlakatlarning IGO' shunday imkoniyatlarga ega bo'lmagan mamlakatlar-nikiga nisbatan ancha qulayligi bilan ajralib turadi. Bu qulaylik avvalo mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini, mamlakatlararo munosabatlarni tashkil qilishda ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, mamlakatlararo turli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy aloqalarni tashkil qilishdan jahonning barcha mamlakatlari, ular qanday rivojlanish darajasida bo'lishidan qat'iy nazar, birdek manfaatdordir. Hozirgi vaqtda eng rivojlangan mamlakat qatorida rivojlanish darajasi past bo'lgan mamlakat ham jahonning turli mintaqalaridagi tashqi bozorlar bilan bog'lana olmasdan taraqqiyotga erisha olmaydi. Mamlakatlar-ni yuz ming tonnalab ayirboshlaydigan eksport-import

aloqalarini kerakli manzillarga yetkazib berishda dengiz transporti katta qulayliklarga egadir. Dengiz bo'yida joylashishning mamlakatlar IGO'ni belgilashdagi ahamiyati juda katta. Ana shularni hisobga olib, jahon davlatlari va mamlakatlarning dengiz va okeanlarga nisbatan qanday joylashganligi holati bilan tanishamiz. Uning holati jadvalda aks ettirilgan.

3-jadval

**JAHON DAVLATLARI VA MAMLAKATLARINING DENGIZ
VA OKEANLARGA NISBATAN JOYLASHISHI**

	Yirik mintaqalar	Mamlakatlar soni	Shundan		
			Dengiz va okeanlar bo'yida joylashgan	Materik ichkarisida joylashgan	Orollarda joylashgan
1	MDH	12	3	9	—
2	Yevropa	40	23	13	4
3	Osiyo	39	20	12	7
4	Afrika	56	36	15	5
5	Amerika	49	20	2	27
6	Avstraliya va Okeaniya	26	1	—	25
	Jahon bo'yicha	222	103	51	68

3-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, jahondagi 103 davlat va mamlakatlar bevosita dengiz va okean bo'ylarida joylashgan. Bularga 68 ta orollarda joylashgan davlat va mamlakatlarni ham qo'shadigan bo'lsak, ular mutlaqo katta qismining ijtimoiy hayoti to'g'ridan to'g'ri dengiz va okeanlar bilan bog'liq ekanligi ma'lum bo'ladi. Ijtimoiy hayoti dengiz va okeanlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan bu guruh mamlakatlarning umumiy soni jamiga nisbatan sal kam 77 % ni tashkil qiladi. Albatta, dengiz va okeanlar bo'yida joylashgan barcha mamlakatlarning IGO'ni ham birdek xususiyatlarga ega deb bo'lmaydi. Jahonning yirik mintaqa va davlatlarini bir-birlari bilan bog'lovchi serqatnov dengiz

yo'llari, kanallar, bo'g'ozlar bo'yida joylashgan mamlakatlarga (xarita va atlaslarga qarab bunday mamlakatlarga misollar toping) eng qulay IGO'ga egadirlar. Mamlakatlar serqatnov dengiz yo'llaridan qanchalik chekkada joylashgan bo'lsa, ularning IGO'si qulayliklari, tabiiyki, shu darajada pasayib boradi.


Jahon mamlakatlari orasida atigi 51 tasi dengiz va okeanlardan turli uzoqlikda, materiklar ichkarisida joylashgandir. Bunday mamlakatlar Avstraliya va Okeaniyani hisobga olmaganda, jahonning barcha yirik mintaqalarida mavjuddir. Ammo, ularning ham IGO'i birdek noqulaylik xususiyatiga ega emas. Mazkur guruh mamlakatlarning bir qismi (undaylar ayniqsa Yevropada ko'pchilikni tashkil qiladi) hududlaridan oqib o'tadigan yirik daryolar yoki kanallar orqali dengizlar bilan bog'lanish imkoniyatlariga ega. Ularning yana bir qismi yon qo'shnisi orqali atigi bir necha yuz kilometr masofalik yo'l bosib dengiz bo'ylariga chiqa olishlari mumkin. Ammo, ularning uchinchi bir qismi yuzlab, hatto minglab kilometr yo'l bosib, bir necha davlatlar hududi orqaligina dengiz bo'ylariga chiqishiga to'g'ri keladi. Bunday davlatlarning aksariyati Markaziy Osiyo va Markaziy Afrikada joylashgandir. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, materiklar ichkarisida joylashganlar orasida bir qism mamlakatlar IGO'i halqaro iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish nuqtai nazaridan ancha katta noqulayliklarga egadirlar. Mamlakatlar o'zlarining IGO'ni ozgina bo'lsa-da yaxshilash uchun qanday ishlarni amalga oshirishlariga to'g'ri kelishini yuqorida Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan mustaqillik yillarida bajargan va amalga oshirayotgan ishlari misolida ko'rish mumkin.

Shunday qilib, muayyan hudud va mamlakatlarning IGO' xususiyatlarining shakllanishida dunyo dengiz va okeanlariga nisbatan qanday joylashganligi holati muhim omil sifatida qatnashadi. O'z navbatida bular hududning sifat ko'rsatkichlarini keltirib chiqaradi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mamlakatlar hududining tarixiylik xarakterini tushuntirib bering. Jahonning eng qadimiy va eng yosh davlatlarini ajrating va xaritadan ko'rsating.

2. Hududning miqdoriy ko'rsatkichlariga ko'ra jahon mamlakatlari guruhlanishi jadvaliga qarab nima uchun:
 - a. ulkan davlatlar Afrika va Amerika qit'alarida eng ko'p va Yevropada umuman uchramasligi;
 - b. mitti davlat va mamlakatlar. Ularning Osiyo va Afrikaga nisbatan Amerika qit'asi hamda Avstraliya va Okeaniyada ko'p joylashganligi sabablarini tushuntirib bering.
3. Xaritalarga qarab jahonning chegaralari ancha notinch davlatlarga misollar keltiring va bu noqulayliklarning qanday ta'sir o'tkazayotganligini baholang.
4. O'zbekistonning jahonda davlatlar hududiy daxlsizligi, chegaralari osoyishtaligini ta'minlash, terrorizmga qarshi kurash borasida olib borayotgan tashqi siyosatining mohiyatini tushuntirib bering.
5. Hududning joylashishiga ko'ra iqtisodiy geografik o'rni qulay va noqulay bo'lgan mamlakatlarni xaritaga qarab aniqlang, bu qulaylik va noqulayliklarning nimalarga bog'liq ekanligini gapirib bering, bunda O'zbekistonning IGO' xususiyatlarini alohida hisobga oling.



X BOB

AHOLI IJTIMOIIY-IQTISODIY TARAQQIYOTNING ASOSIY HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI

1. Aholi xaqida tushuncha.

Aholi deganda, ma'lum hududda (mamlakatda, mintaqada, jahonda) yashayotgan kishilar guruhiga aytiladi. U barcha tarixiy davrlar mobaynida jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lib kelgan. Chunki u hamisha moddiy boyliklarni ishlab chiqargan, o'z iste'molida foydalangan va jamiyat taraqqiyotini amalga oshirib kelgan. O'z navbatida aholi (inson) tabiatining uzviy bir bo'lagi hamdir. Zero, u tabiat qo'ynida paydo bo'lib, o'sib-ulg'ayib, hayotiy faoliyatini o'tashida doimo uning og'ushida bo'ladi, ehtiyoj uchun zarur bo'lgan xom ashyolarni tabiatdan oladi, unga ta'sir qiladi va ana shu jarayon orqali tabiatning jamiyat bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi.

Shuning bilan birga aholi, ayniqsa uning mehnat yoshida bo'lgan faol qismi, turli ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishida asosiy kuch hamdir. Jamiyat rivojlanishida muhim vosita bo'lib hisoblanadigan ijtimoiy qonunlar ayni chog'da insonlarning ob'yektiv faoliyati orqaligina harakat qiladi. Shu sababli aholi va mehnat resurslari, ularning soni va dinamikasi, demografik va sotsial tarkibi, xo'jalik faoliyati va hududlararo joylashishi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy mavzulari qatoridan o'rin oladi.

2. Aholi dinamikasi.

1999 yilning oktyabr oyida jahon aholisi 6 mlrd. kishilik marrani xatlab o'tdi. 2001 yil o'rtalarida uning umumiy soni 6137 mln. kishiga yetdi. Hozirgi vaqtda uning umumiy soni 6,2 mlrd. kishidan ortiqdir.

Ta'kidlash lozimki, aholining son jihatda ko'payish sur'atlari hamma vaqt ham bir hil bo'lavermagan. Demograf olimlar

hisobiga ko'ra¹ (4-jadvalga qarang) neolit davrining boshlarida — eradan 7 ming yillar oldin agar jahon aholisining umumiy soni 10 mln kishi atrofida bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich eramizning boshlaridan 230 mln, XVI asr boshlarida 440 mln., XIX asrning birinchi choragi oxirlarida 1 mlrd., 1950 yilda 2,5 mlrd., 1987 yilning yozida 5 mlrd., undan atigi 12 yil o'tgach esa 6 mlrd. kishini tashkil qiladi.

4-jadval

JAHON AHOLISINING DINAMIKASI VA UNING MATERIKLAR VA YIRIK MINTAQALARARO TAQSIMLANISHI

Aholining o'sish davrlari	Orada o'tgan yillar	Jahon aholisining soni (mln. kishi)	Jahon aholisining taqsimlanishi (mln. kishi)						
			Xorijiy Yevropa	Xorijiy Osiyo	Afrika	Amerika	Avstraliya va Okeaniya	MDH	O'zbekiston respublikasi
Neolit davri (Eradan 7 ming yil oldin)	9000	10,0	1,52	6,74	1,31	0,17	0,40	0,22	—
Yangi eraning boshi (0-yil)	2000	230,0	35,0	155,0	30,0	4,0	1,0	5,0	—
1000-yili	1000	305,0	43,0	195,0	40,0	15,0	1,0	10,0	—
1500-yili	500	440,0	75,0	260,0	60,0	27,0	2,5	15,0	—
1800-yili	200	952,0	160,0	620,0	90,0	30,0	2,0	50,0	—
1900-yili	100	1656,0	295,0	950,0	130,0	145,0	6,0	130,0	4,0
1950-yili	50	2501,0	392,0	1368,0	219,0	320,0	12,0	180,0	6,3
1980-yili	20	4430,0	484,0	2569,0	475,0	613,0	23,0	266,0	15,8
1995-yili	5	5702,0	514,0	3380,0	720,0	774,0	28,0	292,0	22,7
2001-yili	0	6137,0	519,0	3721,0	813,0	846,0	31,0	282,0	25,1

¹ Jahon aholisining tarixi davrlarga xos umumiy soni haqidagi ma'lumotlar, aholi ro'yxatlari muntazam o'tkazib kelinayotgan XIX asr ikkinchi yarmi va XX asrni istisno qilganda, demograf olimlarning ilmiy hisoblari va xulosalari natijasidir.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, kishilik jamiyatining ilk bosqichlarida jahon aholisining son jihatdan ikki baravar ko'payishi uchun bir necha ming yillar talab qilingan. Jahon aholisining navbatdagi ikki marta ko'payishi eramizning boshlaridan boshlab dastlab 1500 yil (230 mln.dan 440 mln. gacha) talab qilingan bo'lsa, uning o'rtalarida buning uchun 300 yil, XIX-XX asrlarining 2-choragi orasida aholining 1 mlrd. dan 2 mlrd.gacha ko'payishi uchun 100 yil kifoya qildi. Aholi o'sish sur'atlarining yanada tezlashishi natijasida so'nggi ikki baravar ko'payishi uchun atigi 40 yildan sal ko'proq vaqt talab etildi — 1930 yillar boshida 2 mlrd. dan 1974 yilda 4 mlrd. kishiga yetdi. Hozirgi vaqtda jahon aholisi so'nggi ikki baravar ko'payish «masofasining» yarmini bosib o'tdi, ya'ni 1974-1999 yillar orasida uning umumiy soni 4 mlrd. dan 6 mlrd. kishigacha o'sdi. Ko'rinib turibdiki, jahon aholisi o'zining eng yuqori o'sish sur'atlariga XX asrning 60-80-yillar orasida erishdi.

Jahon aholisi o'sish ko'rsatkichlari aholining yillik mutloq ko'payishi ko'lamida ham o'z aksini topadi. Boshqacha aytganda, XX asr boshlarida sayyoramiz aholisi yiliga o'rtacha 10-15 mln, asr o'rtalarida 40-50 mln, 70-90 yillarda esa 85-90 mln kishigacha ko'paygan edi. XX asrning so'nggi yillarida bu ko'rsatkich yiliga 75-80 mln. kishini tashkil qilmoqda.

Bu ko'pmi ozmi? Agar hozirgi vaqtda jahon aholisining $\frac{1}{3}$ qismiga yaqini och-yalang'och holda yashayotganligi, ekologik holatning tobora og'irlashib borayotganligi hisobga olinsa, aholining o'sishi ko'pgina muammolarni keltirib chiqarayotganligini tushunish qiyin emas.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, dunyo aholisi turli tarixiy bosqichlarda har xil ko'rsatkichlarda o'sgan. Asosan XVI asrgacha jahon aholisi yer yuzining deyarli barcha hududlarida nisbatan bir-birlariga yaqin sur'atlarda o'sgan. Ammo XV asr oxirlaridan boshlangan yangi yerlarni izlab topish va ulardan turli boyliklarni o'zlashtirishni maqsad qilgan **Buyuk geografik kashfiyotlar davri** (asosan XVI-XVII arslar) jahon aholisining dinamikasi va eng avvalo ularning mintaqalararo taqsimlanishida muhim o'zgarishlarni keltirib chiqardi.

1500-1900 yillar orasida bu borada ko'zga tashlanadigan eng muhim holat, albatta, boshqa materiklarga nisbatan

Amerika hamda Avstraliya va Okeaniya aholisining ancha tez, Afrika aholisining esa, aksincha, sekin o'sganligidir. Bunga, yangi dunyo qit'alarining aynan ana shu davrlarda kashf etilib, istilo qilinganligi va unga asosan Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Irlandiya kabi ko'plab Yevropa mamlakatlaridan millionlab migrantlarning ko'chib joylashganligi asosiy sababdir. Shuningdek, Amerika aholisining tezroq va Afrika aholisining sekin ko'payishi sabablaridan yana biri, ayniqsa, XVIII-XIX asrlar davomida millionlab afrikalik negrlarning Amerikaga ishchi kuchi sifatida majburan olib o'tilganligi hamdir. Ma'lumotlarga ko'ra ana shu davrlar davomida Braziliyaga 50 mln, Karib havzasi orollari va Markaziy Amerikaga 18 mln. atrofida, AQSHga 25 mln. dan ko'proq afrikalik negrlar keltirib joylashtirilgan. Amerika qit'asiga, ayniqsa, AQSHga jahonning turli mintaqalaridan ko'chib o'tuvchi migrantlarning soni to so'nggi yillargacha ancha katta bo'lib qolmoqda.

Aholi dinamikasining deyarli barcha bosqichlarida Osiyo jahon aholisining 60 foizi qismini o'zida birlashtirgan eng katta qit'a bo'lib keldi. Aholisi soniga ko'ra jahondagi eng katta o'nta mamlakatlarning oltitasi ana shu qit'ada joylashganligi bejiz emas. Shu sababli aholining o'sish sur'atlariga ko'ra Osiyo hozir jahonda Afrikadagina keyinda turadi.

MDH va O'zbekiston, garchi yagona guruh mamlakatlari tashkil qilsada, ularda aholi dinamikasi ko'rsatkichlari bir-birlaridan ancha farq qilishini jadval ma'lumotlari ko'rsatib turibdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, XX asr davomida agar MDH davlatlarida aholi son jihatdagn o'rtacha 2,2 baravarga ko'paygan bo'lsa, bu ko'rsatkich O'zbekistonda — 6,3 baravarga teng bo'ldi. Bu o'z navbatida, O'zbekiston aholisi ulushining MDHda 3,1 foizdan 2000 yilda 8,9 foizgacha o'sishiga olib keldi. Bu ma'lumotlar O'zbekistonning jahonda aholisi ancha tez o'sayotgan mamlakatlardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Jahon aholisi dinamikasi va uning mintaqalararo tafovutlari quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Sayyoramiz aholisi **«demografik portlash»** deb nom olgan o'zining eng tez o'sish davrini (XX asrning 50-80 yillari) bosib o'tdi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda

jahonda sezilarli darajada yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayoni tufayli, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda (ularda jahon aholisining $\frac{4}{5}$ qismi yashar edi), tug'ilishning yuqori darajasi saqlangan holda, o'lim ko'rsatkichlarining keskin pasayishiga erishildi. Buning oqibatida jahon aholisining son jihatdan ko'payishi misli ko'rilmagan darajada tezlashib ketdi. Bu davrda aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2 va undan ortiq foizni tashkil qilar edi. Bu holat «demografik portlash» tushunchasini keltirib chiqargan edi.

2. So'nggi yillarda jahon aholisining, birinchi navbatda, Afrika va Osiyo aholisining son jihatdan o'sish ko'rsatkichlarida dastlabki sekinlashish holatlari kuzatilmoqda. Hozirgi vaqtda jahon aholisining o'rtacha yillik ko'rsatkichi 1,3 foizni tashkil etmoqda. Aholi tabiiy ko'payishidagi bu ob'yektiv pasayish jarayoni bundan keyin ham tobora kuchayib boraveradi. Demograf olimlar bashoratiga ko'ra jahon aholisining umumiy soni 2025 yilga borib 8,2 mlrdni tashkil etishi, XXI asr oxirlariga borib esa aholining son jihatdan o'sishi asosan stabilashishi va 10,5 mlrd. kishi atrofida to'xtashi kutiladi.

3. Jahon aholisining son jihatdan o'sishida mintaqalararo katta farqlar mavjud. So'nggi o'n yilliklar davomida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan Yevropa, Shim. Amerika, Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari, Osiyoning Yaponiya, Isroil kabi ayrim davlatlarida aholi son jihatdan deyarli o'smadi. Jahon aholisining yillik o'sish hajmi dunyo aholisining asosan 80 foiziga yaqinini tashkil qiladigan Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aholi o'sishining bundan keyingi o'sishi ko'p jihatdan ana shu mintaqa mamlakatlarida demografik jarayonlarning qanday borishiga bog'liqdir.

3. **Aholining tabiiy o'sishi.** Jahon aholisining son jihatdan o'sishining bosh omili aholining tabiiy ko'payishidir. Aholining tabiiy ko'payishi biologik jarayon bo'lib, uning darajasi yil davomida jami tug'ilaganlardan, jami o'lganlarni ayirib tashlagandan keyingi qoldiq bilan ifodalanadi. Uning ko'rsatkichlari bir yilda o'rtacha har 1000 aholiga qancha tug'ilish va qancha o'lim holatlari to'g'ri kelishiga qarab aniqlanadi. Aholining tabiiy ko'payish jarayonigina uning to'xtovsiz son jihatdan o'sib va avlodlarning almashib turishini ta'minlaydi.

Garchi tabiiy ko'payish biologik jarayon bo'lsa-da, uning kechishi va ko'lamida jamiyatda qaror topgan xilma-xil ijtimoiy — iqtisodiy sharoit (tirikchilik vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi, oila va nikoh, bolalar tarbiyasi, urf-odatlar, diniy aqidalar va boshqa)lar katta ahamiyat kasb etadi. Odatda aholining turmush farovonligi yuqori, bilim va madaniyat darajasi o'sgan, ayollari ijtimoiy ishlab chiqarishga ko'proq jalb etilgan, yosh avlodning har taraflama kamol topishi uchun yetarli sharoit yaratilgan jamiyatlarda tug'ilishning kamayib borishi kuzatiladi. Qadimdan kambag'al, nochor oilalar o'ziga to'q, badavlat, yaxshi tarbiya topgan oilalarga nisbatan ko'p bolali bo'lganligi ma'lum. Shu sababli XVII asrda yashab o'tgan mashhur ingliz faylasufi **A. Smit «kambag'allik ko'p bolalikka sharoit tug'diradi»** deb qayd qilgan.

Aholi o'rtasida tug'ilishning qay darajada bo'lishiga siyosiy notinchliklar, urushlar, keng tarqalgan xavfli kasalliklar katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bularga tarixdan va hozirgi hayotdan ko'plab misollar keltirish mumkin (ularga misol topishga harakat qiling).

Hozirgi vaqtda jahon mamlakatlari aholisining tabiiy ko'payish ko'rsatkichlariga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin.

Aholi ko'payishining birinchi turi. Tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining ancha past darajasi ana shu guruhga kiruvchi mamlakatlarga xosdir. Bu guruh mamlakatlari **demografik tanglik** (bo'xron) mamlakatlari ham deyish mumkin.

Odatda aholining takror ko'payishi uchun oilalarda o'rtacha kamida 2,5 bola tug'ilishi, ya'ni mavjud oilalarning yarmi 2 nafar, qolgan yarmi esa 3 nafardan bolali bo'lishlari talab etiladi. Yangidan dunyoga kelgan bu bolalarning 2 nafari ota va onalarning o'rnini qoplasa, qolgan 0,5 nafari bepustlar, baxtsiz hodisa tufayli oila qura olmasdan o'tganlar o'rnini to'ldiradi. Bunday demografik holatga aholining oddiy takror barpo bo'lishi deyiladi.

Hozirgi vaqtda jahon aholisining $\frac{1}{5}$ qismini o'zida birlashtirgan, dunyoning rivojlangan mamlakatlari aksariyatida aholining tabiiy o'sish ko'rsatkichlari, har 1000 kishiga hisoblaganda, Yaponiya. AQSH, Kanada +1-2 dan Avstraliya va Yangi Zelandiya +5-8 gacha tebranadi.

Demografik tanglik, ayniqsa, Yevropa mamlakatlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. 2001 yil ma'lumotlariga ko'ra ularda har 1000 aholi hisobiga o'rtacha 10 ta tug'ilish va 11 ta o'lim ko'rsatkichlari to'g'ri kelmoqda, ya'ni jami tug'ilganlar hatto umumiy o'lganlar o'rnini ham qoplay olmayotir. Boshqacha aytganda, Yevropada aholi tabiiy jihatdan ko'payish o'rniga sekin-asta kamayish davrini o'z boshidan kechirmoqda.

To'g'ri, aholi tabiiy ko'payishidagi bunday **depolyatsiya** (aholi sonining tabiiy holda kamayib borishi) ko'rsatkichlari sal oldinroq turli yillarda G'arbiy Yevropaning Fransiya, Germaniya, Italiya kabi ayrim davlatlarida kuzatilib kelingan edi. Hozirgi vaqtda aholi tabiiy harakatidagi bunday salbiy natijalar, ulardan boshqa yana Shvetsiya, Daniya, Portugaliya, Gresiya kabi mamlakatlarda ham qayd etila boshlandi. Qolgan G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ham bu ko'rsatkichlar ko'pi bilan 0 dan +1-2 gacha kuzatilmoqda. 90-yillar boshlaridan boshlab demografik bo'hron jarayoni ushbu mintaqalarning deyarli barcha sobiq sotsialistik va sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan respublikalarida yanada fojialiroq ko'rinishda, yoyila boshlandi. Buni raqamlar ham tasdiqlaydi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida aholining tabiiy o'sish ko'rsatkichlari har 1000 kishi hisobiga, 2001 yilda o'rtacha — 2 (tug'ilish 9 va o'lim 11) ni tashkil qilgani holda, bu ko'rsatkich Ukrainada — 7, Rossiya va Latviyada — 6 gacha to'g'ri kelmoqda. Shu sababli so'nggi o'tgan o'n yil ichida aholi migratsiyasining ijobiy natijalariga qaramay, Rossiyada 4 mln. ga, Ukrainada 3 mln. ga kamayib ketdi. Bunday kamayish Belorusiya, Moldova, Latviya kabi mamlakatlarda ham mavjud. Bular Yevropada haqiqatdan ham juda kuchli demografik tanglik boshlanganligini, u hech qachon hozirgidek demografik «jarlik» yoqasiga kelib qolmaganligini ko'rsatadi.

Umuman, rivojlangan mamlakatlarda aholi tabiiy ko'payishining birinchi turi (demografik tanglik jarayoni)ning asosiy sababi jamiyat a'zolarining o'rtasida o'ziga xos kam bolali bo'lishga moyil demografik xulq-atvorning shakllanganligidir. Shu sababli bu guruh mamlakatlarda hozirgi vaqtda hech bo'lmaganda mavjud aholi soni takror barpo qilishni ta'minlash vazifasi turadi.

Aholi ko'payishining ikkinchi turi. Tug'ilish va tabiiy ko'payishning yuqori, bir qator mamlakatlarda esa juda yuqori,

o'limning aksincha nisbatan pastligi, ushbu guruhga kiruvchi mamlakatlarning asosiy demografik belgisidir. Bu guruh mamlakatlarida, tom ma'noda, demografik faollik hukmronidir. Aholi ko'payishining bu turi eng avvalo Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlariga xosdir.

Ma'lumki, rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ko'pchiligi yaqin vaqtlargacha o'z boshidan mustamlaka yoki yarim mustamlakalarga xos ijtimoiy nohaqliklarni o'tkazib kelgan edilar. Ularning ko'pchiligi asosan mustaqil rivojlanish davrini boshlab, hozirgi davr tibbiyot-sanitariya, fan-texnika kabi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ularda nisbatan ijtimoiy hayot yaxshilana boshlandi, turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu sharoitlar ularda tug'ilishning yuqori darajasi saqlanib qolgani holida, o'limning keskin kamayishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon aholisining misli ko'rilmagan yuqori sur'atlarda o'sishiga olib kelgan.

Darhaqiqat rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tabiiy ko'payishi ko'rsatkichlari ayniqsa, XX asrning 60-70 yillarida o'zining yuqori darajasiga erishgan edi. O'sha yillarda bu ko'rsatkich har 1000 kishi hisobiga o'rtacha 25-28 kishiga teng bo'lgan edi. Boshqacha aytganda jahon aholisi aynan rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga har yili o'rtacha 2,0 va undan ortiq foizda o'sishga erishgan edi.

90-yillardan boshlab demografik faollik mamlakatlarida ham aholining tabiiy ko'payishida yaqqol sekinlashuv alomat-lari ko'rina boshlandi. Jahon aholisining $\frac{2}{3}$ ga yaqinini tashkil qiladigan Osiyo va Afrika mamlakatlarida aholining o'rtacha yillik o'sishi darajasi faqat 1995-2001 yillar orasida 4 punktga, ya'ni, Osiyoda 2,4 dan 2,0 foizga, Amerikada esa 2,8 dan 2,4 foizga kamayishi qayd qilindi. Ana shular tufayli jahon aholisining yillik o'sishi ko'rsatkichlari ham shu yillar orasida 1,5 dan 1,3 foizga pasaydi.

Ta'kidlash lozimki, aholi tabiiy ko'payishidagi sezilarli pasayish holatlari so'nggi vaqtlarda ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ma'lum yutuqlarga ega bo'lgan mintaqa va mamlakatlarda ko'zga tashlanmoqda. Bu ma'lumotlarni misollar orqali ko'rib chiqamiz (5-jadvalga qarang).

**RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLARNING RIVOJLANISH
DARAJASI TURLICHA BO'LGAN MAMLAKATLARIDA
TUG'ILISH KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI**

Mintaqalar va mamlakatlar	1970-1975 y.y.	2001 yil
A.Rivojlanish darajasi yuqoriroq bo'lgan rivojlanayotgan mintaqalar va davlatlar.		
Shimoliy Afrika	42	28
Janubiy-G'arbiy Osiyo	40	21
Sharqiy Osiyo	28	15
Janubiy-Sharqiy Osiyo	41	23
Hindiston	39	26
O'zbekiston	34	22
Janubiy Amerika	35	25
B.Rivojlanish darajasi ancha past bo'lgan rivojlanayotgan mintaqalar va davlatlar		
Sharqiy Afrika	48	42
Markaziy Afrika	44	46
G'arbiy Afrika	49	42
Yaman Arab respublikasi	50	44
Pokiston	47	39
Afg'oniston	49	43

So'nggi yillarda 5-jadvaldagi A guruhi mintaq va mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda salmoqli natijalarga erishdilar. Ular orasida O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa respublikalari ham bor. Qadimdan bu mintaqalar va mamlakatlarda ko'p bolalik o'ziga xos demografik mentalitetning asosiy mazmunini belgilab bergan. Shunga qaramasdan ulardagi ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotda erishilgan yutuqlar tug'ilish ko'rsatkichlarida ancha erkin ijobiy siljish (kamayish)larga olib keldi.

Aksincha, 5-jadvalda keltirilgan B guruhi mintaqalari va mamlakatlari hozirgacha jahonning har jihatdan eng qoloq

hududlari bo'lib kelmoqda. Ulardagi ishlab chiqarish tarmoqlaridagi qoloqlik va aholi ijtimoiy hayotidagi qashshoqlik o'tgan o'n yilliklar davomida tug'ilish jarayonida biron ijobiy siljishlarning amalga oshishiga yo'l bermadi. Tabiiyki, tug'ilish darajasining o'ta yuqoriligi, o'z navbatida, bu mamlakatlarda aholi sonining tez ko'payishiga, umumiy qashshoqlikning yanada oshishiga olib kelmoqda. Bu holatlar, oxir oqibat qashshoq mamlakatlar sonining kamaymasligiga, aksincha, yashash darajasi yuqori bo'lgan davlatlar bilan ular o'rtasidagi farqning yanada ortib borishiga olib kelmoqda. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar bilan tobora kambag'allashib borayotgan davlatlar o'rtasidagi siyosiy adovat va mojarolar, diniy ekstremizm negizi ostidagi siyosiy terrorizm illatlarining ildiz otishiga sharoit tug'dirmoqda.

4. Demografik siyosat. Davlatlar tomonidan aholi ko'payishini tartibga solish va bu jarayonni boshqarish maqsadida olib boriladigan o'ziga xos siyosat turidir. Bu hil siyosatlar umumiy davlat siyosatining tarkibiga kirib, ma'muriy, iqtisodiy, targ'ibot kabi tadbirlar holda olib boriladi va uzoq tarixiy davrlardan buyon davlatlarda ko'pincha butun mamlakat, ba'zan uning alohida hududlari doirasida turlicha maqsad va manfaatlar nazarda tutilgan holda olib boriladi.

Olib boriladigan demografik siyosatning maqsad va yo'nalishlari ko'p hollarda mamlakatlardagi demografik holatning qay darajadaligiga bog'liq bo'ladi. Aholi ko'payishining birinchi turi — demografik tanglik mamlakatlarida demografik siyosat ko'proq tug'ilishni va tabiiy ko'payishni rag'batlantirish, aholining migratsiya harakatlarida ijobiy natijalarga erishishga qaratilgan bo'ladi.

Deyarli barcha G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida tug'ilishni rag'batlantiruvchi va sifatli tarkibdagi migrantlarning kirib kelishini ta'minlovchi demografik siyosatlar olib borilmoqda. Boltiq bo'yi mamlakatlarida olib borilayotgan demografik siyosatning muhim tomonlaridan biri tug'ilishni rag'batlantirish va MDH mamlakatlari, birinchi navbatda Rossiyadan ko'chib o'tishi mumkin bo'lgan migrantlarning oldini to'sishga qaratilganligidir. Rossiya va Ukrainada harakatda bo'lgan demografik siyosat esa ham tug'ilishni rag'batlantirish va ham ko'chib keluvchilarga haraflama sharoit yaratib berishga qaratilgandir. (Bu mamla-

katlarda turlicha olib borilayotgan demografik siyosatning sabablarini tushuntirib berishga harakat qiling.)

Umuman, faol demografik siyosat o'tkazish uchun avvalo davlatning o'zi kattagina sarf xarajatlar sarflashga, uning aholisi esa bunday siyosatni tushungan holda qabul qilishga tayyor bo'lishi talab etiladi. Aks holda yurgiziladigan demografik siyosat, oddiy qilib aytganda, samara bermasligi, ba'zi hollarda noxush oqibatlarga (aholining noroziliklariga, diniy-etnik qarama-qarshiliklarga) olib kelishi mumkin. Aynan ana shu sabablarga ko'ra demografik faollik ko'rsatkichlariga ega bo'lgan **aholi ko'payishining ikkinchi turi** (rivojlanayotgan) mamlakatlarning ko'pchiligida demografik siyosat yo umuman o'tkazilmayapti (Osiyo va Afrikaning asosan qoloq yoki musulmon mamlakatlarida) yoki ko'zlangan samaralarni bera olmayapti (bir qator Lotin Amerikasi mamlakatlari).

Jahondagi eng yirik rivojlanayotgan mamlakatlardan Xitoy va Hindistonda mana yarim asr ancha tez o'sayotgan aholisining ko'payishini kamaytirish maqsadida o'ziga xos demografik siyosat olib borilmoqda. Xitoyda har bir oilada 1 ta, Hindistonda esa 2 tadan ortiq bola tug'ilishiga yo'l bermaslikni ko'zda tutuvchi demografik siyosatning qat'iy olib borilishi natijasida bu borada sezilarli ijobiy yutuqlarga erishildi. Har 1000 aholi hisobiga sof tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari hozirgi vaqtda Xitoyda 9, Hindistonda 17 kishini tashkil qilmoqda. Uzoq vaqtlar davomida olib boriladigan ana shunday siyosat tufayligina (Xitoy bunga misol bo'la oladi) jahonning boshqa mamlakatlarida ham aholining son jihatidagi o'sishida kerakli natijalarga erishish mumkin.

Muhim demografik jarayonlardan biri aholining o'rtacha umr ko'rsatkichlaridir. Garchi inson organizmi uzoq umr ko'rishga qodir bo'lsada, bu imkoniyatdan barcha hududlarda birdek foydalanib bo'lmaydi. Aholining umr ko'rishini belgilashda faol qatnashadigan geografik (tabiiy sharoit), moddiy (yashash darajasi), ijtimoiy (urf-odatlar, diniy aqidalar, maorif, tibbiy xizmat) kabi omillar jahon mamlakatlarida turlicha holatda ekanligi ma'lum. Tabiiyki bu omillar aholining jinslararo va turli yoshlararo o'lim ko'rsatkichlariga, ayniqsa bolalar o'limi ko'rsatkichlariga joylarda xar-xil ta'sir ko'rsatadi.

Qadim tarixiy davrlar davomida aholi hozirgiga nisbatan ancha kam umr ko'rishgan. Mutaxassislar hisobiga ko'ra aholining o'rtacha umri so'nggi ming yilliklar davomida 30-35 yosh atrofida bo'lgan. XX asr davomidagina aholining o'rtacha umri ancha tez uzayib bordi.

BMT hisobiga ko'ra jahon aholisining o'rtacha umri hozirgi vaqtda 67 yoshni tashkil qiladi. Aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichlari bo'yicha jahon mintaqalari orasida Yevropa alohida ajralib turadi. Unda (Sharqiy Yevropa mamlakatlari bu hisobga kirmaydi) aholining o'rtacha umri 77 yoshdan ortiqroqdir AQSH va Kanadadan iborat Shimoliy Amerikada ham aholining o'rtacha umri ana shu ko'rsatkich darajasidadir. Bu ular aholisi sayyoramiz aholisiga nisbatan o'rtacha 10 yil uzoqroq umr ko'radi, demakdir. Faqat bugina emas. Statistik ma'lumotlarga ko'ra jahondagi iqtisodiy rivojlangan 30 ga yaqin mamlakatlarda aholining yoshi yuqorida qayd qilingan Yevropaning o'rtacha yoshidan ancha ortiqdir. Ularning aksariyati (15tasi) Yevropa mamlakatlaridir. Bu borada eng yuqori ko'rsatkichlar esa Yaponiya (81 yosh), Shveytsariya (80 yosh) va Shvetsiya (80 yosh) larga tegishlidir. Qizig'i shundaki, bironta ham sobiq sotsialistik respublikalari va sobiq Ittifoq tarkibidan chiqqan MDH mamlakatlari aholisining o'rtacha umri Yevropa mamlakatlarining ko'rsatkichlariga tenglasha olmaydi. Masalan, u Rossiya (66 yosh), Ukrainada (69 yosh), O'zbekistonda (70 yosh)dir.

Jahon mintaqalari orasida aholining o'rtacha umr ko'rishiga ko'ra eng past ko'rsatkich Afrikaga tegishlidir. Unda bu raqam o'rtacha 53 (o'rtacha erkaklar 52, ayollar 55 yosh)ga tengdir. Umuman jahon bo'yicha ana shu yoshdan ham past ko'rsatkich 35 mamlakatda qayd qilingan. Ana shularning 31 tasi Afrika, 3 tasi Osiyo (Afg'oniston, Sharqiy Timor va Laos) va 1 tasi Amerika (Gaiti) qit'alarining vakillaridir. Aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichlariga ko'ra eng past ko'rsatkichlar esa Angola (38 yosh), Malavi (39 yosh), Ruanda (39 yosh) kabi Markaziy va Sharqiy Afrika davlatlariga to'g'ri kelmoqda.

Xulosa o'rnida shuni qayd qilmoq kerakki, aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichlarining shakllanishida muhim o'rin tutadigan bir qator tarixiy — geografik, siyosiy-

ijtimoiy omillar orasida iqtisodiy omil alohida ahamiyatga egadir. Darhaqiqat, eng rivojlangan va eng qoloq mamlakatlarning bu borada erishgan natijalari fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

5. Aholining jinsiy va yosh tarkibi. Tabiat insonlarni erkak va ayollardan iborat qilib yaratgan bo'lsa-da, aslida ular baravar miqdorda tug'ilmaydilar. Demografik statistika ma'lumotlarga ko'ra har 100 tug'ilgan qiz bola hisobiga 104-107 o'g'il bola dunyoga kelar ekan. Fiziologik xususiyatlari tufayli ularning o'zaro nisbati balog'at yoshiga yetganda tenglashadi. Keyingi yoshlarda esa sekin-asta yerkaklarga nisbatan ayollar son jihatdan ustunlikka erisha boradi. Bu ustunlik ayniqsa keksalar o'rtasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Biz bayon qilgan aholining jinsiy tarkibida yuz beradigan o'zgarishlar jahon bo'yicha hozirgi vaqtda kuzatilayotgan o'rtacha holatdir.

Shuning bilan birga aholining jinsiy tarkibidagi nisbatda bir-birlaridan farq qiladigan ijtimoiy-hududiy tafovutlar ham bor. Masalan, rivojlangan mamlakatlar aholisi tarkibida erkaklarga nisbatan ayollar son jihatidan ustunlikka ega bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ko'pchiligida, aksincha, erkaklar ayollarga nisbatan ko'plik qiladi. Buning asosiy sabablari birlarida har taraflama jinsiy tenglik, kechroq turmush qurishga kirishish, kam tug'ilish, erkaklarda alkohol va chekishga beriluvchanlikning ustunligi, ikkinchisida, esa qizlarni erta turmushga berish, ko'p bolalik, ulardagi mavjud moddiy qiyinchiliklar tufayli erkaklar va ayollar o'limida keskin farqlar kelib chiqadi. Bular, o'z navbatida, dunyo mamlakatlari orasida bir-birlariga teskari ko'rsatkichlardagi jinsiy nisbatning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Umuman olganda jahon bo'yicha erkaklar ayollarga nisbatan hozirgi vaqtda 20 mln.ga ko'pdir yoki har 1000 ayolga 1009 erkak to'g'ri keladi. Erkaklarning son jihatidan ustunligi, ayniqsa, Osiyoda ancha katta. Unda har 1000 ayolga o'rtacha 1042 erkak to'g'ri keladi. Bu, birinchi navbatda, (jahon bo'yicha ham) Xitoy va Hindistondek eng yirik davlatlarda erkaklarning ayollarga nisbatan ancha ko'pligi sababidandir. Yevropada esa bu borada umuman teskari holat mavjud.

Erkaklarga nisbatan ayollarning son jihatdan ustunligi ayniqsa Rossiyada aniq kuzatiladi. Unda har 1000 ayolga atigi 890 erkak to'g'ri kelmoqda. Dunyoda uchinchi guruh davlatlar ham borki, (ular qatorida O'zbekiston ham bor), ularda erkaklar bilan ayollar nisbati deyarli baravar keladi.

Jinsiy nomuvofiqliklar ish bilan yaxshi ta'minlangan yoki ishsizlik mavjud hududlarda, shahar va qishloq aholilari o'rtasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, aholi turli yoshlardagi insonlardan tarkib topadi. U endi tug'ilgan chaqaloqlikdan bolalik, o'smirlik, navqironlik, yetuklik va keksalikkacha bo'lgan davrlarni o'z boshidan kechiradi. Fanda aholining jamiyatda tutgan o'rniga qarab bolalar (0-14 yosh), kattalar (15-60 yosh) va keksalar (60 yosh va undan yuqori) guruhlariga ajratishadi.

Aholining yosh tarkibi ham rivojlanganlik darajasiga bog'liq holda mamlakatlar o'rtasida bir-birlaridan ancha farq qiladi. Odatda demografik tanglik kuchayib borayotgan rivojlangan mamlakatlar aholisi tarkibida bolalar hissasi ancha kam (20% dan kam), keksalar xissasi esa ancha katta (20% dan ko'p) bo'lsa, demografik faollik mavjud bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda esa uning butunlay aksi kuzatiladi, ya'ni bolalar hissasi jami aholiga nisbatan 40 % va keksalar hissasi 6 % ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlarni yanada yaqqolroq tasavvur qilish uchun ikki rivojlanish darajasi xarxil bo'lgan mamlakatlar ko'rsatkichlarini keltiramiz.

6-jadval

AHOLINING YOSH TARKIBI (% HISOBIDA)

Aholining yosh guruhlari	Germaniya	Keniya
Bolalar (0-14 yosh)	16	51
Kattalar (15-60 yosh)	64	45
Keksalar (60 va undan yuqori)	20	4

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, mehnat yoshidagilar hissasi rivojlangan mamlakatlarda rivojlanayotgan

mamlakatlarga nisbatan 1,42 marta yuqoriroqdir. Bu esa, o'z navbatida nima sababdan jon boshiga mahsulotlar ishlab chiqarishda rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan ancha katta natijalarga ega, degan savolga javob topishga yordamlashadi. Bu ko'rsatkichlar rivojlangan mamlakatlarda ko'p jihatdan aholining o'rtacha umrining nima sababdan ancha yuqori bo'lishini va nima uchun birinchi guruh mamlakatlarida «demografik keksalik!», ikkinchi guruh mamlakatlarida esa «demografik yoshlik» mavjudligini tushuntirib berishga yordamlashadi.

6. Aholining irqiy va milliy — etnik tarkibi.

XX asr insoniyat tarixida irqiy va milliy-etnik qarama-qarshiliklar eng kuchaygan davr sifatida ham tarixda qoladi. Axir, Yevropa mamlakatlari o'rtasida mustamlaka yerlarni o'zaro taqsimlab olishning oxiriga yetkazilishi (XX asr boshlarida), uni qayta taqsimlashga urinishlar (I va II jahon urushlari), jahonda qaror topgan ob'yektiv siyosiy-ijtimoiy tuzumni qayta tashkil etish harakati (Oktyabr siyosiy to'ntarishi) natijasida kelib chiqqan va uzoq vaqt davom etgan «kommunistik-kapitalistik» qarama-qarshiliklar, ular negizida o'rin olgan cheksiz-chegarasiz irqiy-aparteid, milliy-etnik, diniy ekstremistik urushlar aynan ana shu asr davomida hech ham tinmadi, ularning davomi haliberi tinmaydigan ko'rinadi. Shu sababli iqtisodiy-siyosiy geografiyaning muhim mavzularidan biri sifatida jahon aholisining irqiy va milliy-etnik tarkibi hamda ularning hududiy xususiyatlari qarab chiqiladi.

Jahon aholisi asosan 3 asosiy va 1 qo'shimcha **irqiy** guruhlariga mansubdir. Bular **yevropoid** (oq tanli), **mongoloid** (sariq tanli), **negroid** (qora tanli) hamda son jihatdan kichik bo'lgan **avstroloid** xalqlardir.

Irqlarning kelib chiqishida ko'proq biologik va geografik omillar ishtirok etgan. Ular bir-birlaridan asosan tashqi belgilari, ya'ni rangi, sochi, yuz tuzilishi xususiyatlariga ko'ra farqlanadilar.

Antropolog olimlarning ilmiy xulosalariga ko'ra mavjud irqlar bundan 15 ming yillar oldin asosan shakllanib, o'z hududiy makonlariga ega bo'lganlar: yevropoidlar butun Yevropa, Janubiy-Sharqiy va Janubiy Osiyo hamda Shimoliy

Afrika bo'lab, mongoloidlar Osiyoning boshqa qolgan mintaqalari, butun Amerika qit'asi bo'ylab, negroidlar Afrikaning asosiy hududlari bo'ylab, avstroloidlar asosan Avstraliya va Okeaniya bo'ylab tarqalgan bo'lganlar. Keyingi tarixiy davrlarda yuz bergan siyosiy o'zgarishlar tufayli (Amerika va Avstraliya qit'alarining yevropaliklar tomonidan egallanishi va o'zlashtirilishi) va murakkab davom etgan jahon mustamlakachilik tizimi turli irq'larga mansub aholi geografiyasida ancha katta o'zgarishlarga olib keldi.

Hozirgi vaqtda barcha irq'larga mansub xalqlar aqliy va jismoniy imkoniyatlariga ko'ra baravarligi va ularning jamiyatda tutgan o'rniga ko'ra tengligi jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan. 1973 yilda BMT tomonidan irqiy kamsitishning jinoyat ekanligi va u xalqaro qoidalar asosida jazolanishi haqida maxsus Konvensiya qabul qilingan.

Ammo, yaqin-yaqin vaqtlargacha irq'lararo va millatlararo kamsitishlar avjida edi. Mustamlakachilik manfaatlari ko'zda tutilgan holda «past irq» xalqaro «oliy irq» xalqlarining quli bo'lishi, ularning xizmatini qilishi lozim, degan har tomonlama «asoslangan» amalda esa soxta g'oyalar ta'limoti (Germaniya fashistlari mafkurasi) ham yaratilgan edi. Ana shunday ta'limot asosida tarbiya topgan ayrim jamiyatlarda qora, ba'zan boshqa rangdagi xalqlar har taraflama kamsitishlar edi. Bunday kamsitishlar 60-70 yillarda ayniqsa, demokratiyaning qo'rg'oni hisoblanadigan AQSH va JAR da eng yuqori nuqtasiga — *aparteid*¹ siyosati darajasiga chiqqan edi.

Shunday qilib. *Irqchilik siyosati* hozirgi davrda tarixga **aylanib bormoqda**. Tobora mustahkamlanib borayotgan irq'lararo va xalqlararo tenglik va totuvlik g'oyalarining qaror topayotganligi jahon hamjamiyatining, insoniyatning eng yorqin yutuqlaridan hisoblanadi.

Markaziy Osiyo respublikalari, xususan O'zbekiston aholisi ikki irqqa mansubdir. Yevropalik va kavkazlik millat vakillari va boshqalar yevropoid, aholisining, qolgan asosiy qismi (o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, qoraqolpoqlar)

¹ Aparteid-Afrika xalqlari tilida «alohida yashash» ma'nosini anglatadi. O'sha davrlarda negrlar alohida getto-kvartallarda yashashga majbur qilinganlar.

esa mongoloid irq'larga mansubdir va ular azaldan do'st-birodar holda yashab keladilar.

Jahonda mavjud aholi irq'lari negizida ko'p sonli etnoslar — qabila va urug'lar, elatlar va millatlar kelib chiqqan. Ular aholining evolyutsion yo'l bilan tarixan shakllangan ijtimoiy guruhlanishlari natijasidir.

Barcha etnoslar (qabila, urug', elat, millat)ning birlashtirib turuvchi asosiy sharti bo'lib tarixan shakllangan yagona tili, hayot va madaniyat tarzi, yashash makoni (hududi) xizmat qiladi.

Qabila va urug'lar inson avlodining eng qadimiy oddiy — ijtimoiy uyushmalaridir. Bunday etnos uyushmalari hozir ham ijtimoiy taraqqiyotning quyi rivojlanish bosqichi darajasida yashayotgan ayrim xalqlar orasida mavjuddir. Ular yer sharining Shimoliy kengliklarida, Afrika, Janubiy Amerika va Janubi-sharqiy Osiyoning tropik o'rmon mintaqalarida, Avstraliya va Okeaniya aboragenlari tarkibidagi minglab nomdagi qabila va urug'larning kam sonli xalqlaridir.

Elatlar — etnoslarning tarixiy evolyusion shakllanishidagi alohida oraliq bosqichidir. Ular go'yo bir tomondan qabila va urug'lar va ikkinchi tomondan yetuk darajada ijtimoiy shakllangan millatlar orasidagi birlashtiruvchi xalqadir. Ular jahonning deyarli barcha qit'alarida yashasalar-da, asosiy qismi Afrika va Osiyoda joylashagan.

Millat-ijtimoiy etnik uyushma (birlik)ning oliy shakli bo'lib, yagona tili, hududi, milliy iqtisodiyoti, madaniyat va san'ati, mintaliteti va milliy o'zligini anglash xususiyatlari yuqori darajada shakllangan bo'lib, ko'pchilik holatlarda tarixan o'z siyosiy davlatchilik an'alariga ega bo'ladi. Hozirgi jahon siyosiy xaritasidan o'rin olgan barcha davlatlar amalda bir yoki bir qancha millat va elatlarning siyosiy uyushmasi sifatida tarkib topgandır.

Milliy — etnik munosabatlar tabiatan o'ta nozik va murakkab xususiyatlarga egadir. Zero, uzoq tarixiy davrlardan to hozirgacha davlat yoki alohida guruhlar o'rtasida yuz berib kelgan qarama-qarshiliklar, qonli urushlarning negizida ko'pchilik holatlarda ana shu milliy-etnik munosabatlar yotadi (milliy etnik munosabatlar negizida hozirgi vaqtda jahonda yuz berayotgan inqirozlarga misollar keltiring).

Jahondagi mavjud elat va millatlarning umumiy soni haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Jahondagi barcha millat va elatlarning umumiy soni ba'zi bir manbalarda 3-4 mingni tashkil qiladi deyilsa, boshqalarida 5 mingdan ham ko'p ekanligi ta'kidlanadi.

Xalqlarning milliy shakllanish holati asosan ular yashayotgan jamiyatning rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Masalan, ijtimoiy rivojlanish darajasi ancha yuqori bo'lgan Yevropada bu jarayon XVI-XIX asrlardayoq tugallangan bo'lsa, Ekvotriyal va Janubiy Afrika hamda Osiyoning Afg'oniston kabi mamlakatlarida hozirgacha qabila va urug'chilik qoida — tartiblari hukm surmoqda.

Hozirgi vaqtda jahonda umumiy soni o'nlab million sanaladigan yirik millatlar bilan bir vaqtda, nufuzi bir necha ming kishini tashkil qiladigan ko'plab o'ta kichik elat-xalqlar ham mavjuddir. Aholisining umumiy soni 100 mln. dan ziyod bo'lgan ulkan millatlar soni jahonda 7 tadir. Ular xitoyli (xan)lar — 1125 mln, hindlar—240 mln, amerikaliklar — 206 mln, bengallar — 200 mln, brazillar — 150 mln, ruslar — 150 mln, yaponlar — 123 mln.dir. Bulardan tashqari umumiy soni o'nlab million bo'lgan yana ko'p sonli yirik millatlar ham bor. Shuning bilan birga Afrika, Osiyo, Lotin Amerikasi, Okeaniya hududlarida keng tarqalgan ko'plab milliy xalqlar ham borki, ular har birlarining umumiy soni atigi bir necha ming kishigacha boradi., xolos. 1989 yil aholi ro'yxatida faqat sobiq Ittifoq hududida aholisining soni 1 minggacha bo'lgan 10 ga yaqin shimol xalqlari (orochilar, orokilar, tofolarlar, ensilar, aleutlar va boshqalar) hisobga olingan edi. Bunday kichik xalqlar ayniqsa Afrikada ko'pdir. Eng ko'p kichik xalqlar to'plangan hudud — bu Yangi Gvineyadir. Unda 200 dan ortiq — turli qabila xalqlari yashaydi.

Millatlarning kelib chiqishida ayniqsa tillarning ahamiyati katta. Jahon bo'yicha 2000 dan ortiq tillar bo'lib, ular, o'z navbatida tillari yaqinligiga ko'ra 36 oilaga bo'linadi. Til oilalari orasida eng yirigi **Hind-Yevropa** bo'lib, unga kiruvchi tillarda jahon aholisining yarmiga yaqini so'zlashadi. **Xitoy-Tibet** tillar oilasi xalqlarining umumiy soni 1 mlrd. dan ziyoddir. Shular qatorida **Oltoy** tillar oilasi ham mavjud bo'lib,

uning tarkibiga o'zbeklar va boshqa barcha milliy turkiy tillar ham kiradi.

Jahon mamlakatlarini bir millatli va ko'p millatli guruhlarga ajratish mumkin. Milliy chegaralari siyosiy chegaralar bilan mos tushgan hududlarda asosan bir millatli davlatlar tashkil bo'lgan. Aholisining 90-95 foizi bir millat vakillaridan iborat bo'lgan birinchi guruh davlatlarining eng ko'pi Yevropada tarqalgan (Norvegiya, Daniya, Portugaliya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya va boshqalar), Osiyoda esa Yaponiya, Koreya yarim oroli davlatlari, Bangladesh, Mo'g'iliston va boshqalar ana shunday davlatlardandir. Aholisining 70-90 foizi bir millatdan iborat bo'lgan davlatlar esa jahonda undan ham ko'p bo'lib, ular qatoriga O'zbekiston, Tojikiston, Turkmanistondan iborat O'rta Osiyo mamlakatlari ham kiradi. Ammo tarkibiga o'nlab turli milliy-etnik aholi guruhlarini o'zida birlashtirgan davlatlar ham yer yuzida anchagina sanaladi. Odatda hududi ancha katta bo'lgan davlatlar ana shu guruhga kiradi va ko'pincha ularda *federativ ma'muriy-hududiy boshqaruv tuzumi* shakllangan bo'ladi.

Aholisining milliy tarkibi eng murakkab mamlakat Hindiston va Indoneziyadir. Ularda 150 dan ortiq turli millat va elat vakillari yashaydi. AQSH, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Fillipin, va boshqalarda 100 dan ortiq, Xitoy, Vyetnamda 50 dan ortiq, Eron, Afg'oniston, Tailandda 30 dan ortiq millatlar yashaydi va ular ham ko'p millatli davlatlardan hisoblanadi.

Jahonda bir qator qadimdan tarkib topgan millatlar ham borki, ular hozirgacha o'z siyosiy boshqaruv tizimiga ega emaslar. Ular hatto bir necha davlatlar hududiga bo'linib yashaydilar. Bular *kurdlar* — Turkiya, Eron, Iroq davlatlarida, *bellujlar* — Eron, Afg'oniston va Pokiston, *panjobliklar* — Bangladesh va Hindiston, *pushtunlar* — Afg'oniston va Pokiston davlatlarida bo'linib yashaydilar. Bunday adolatsizliklarni to'g'rilash yo'lida ayniqsa so'nggi yillarda jahon bo'ylab kuchli siyosiy, ko'p hollarda qonli kurashlar kuchayib bormoqda. Ko'pdan buyon kurdlar birlashish va mustaqillikga erishish yo'lida kurashmoqdalar. Shunga o'xshash beayov kurashlar Yaqin Sharq (Falastin-Isroil orasi-

da), Bolqon yarim oroli (Kosovo), Hindiston yarim oroli (Kashmir), G'arbiy va Sharqiy Afrika mamlakatlari kabi mintaqalarda davom etmoqda. Jahonda bunday milliy-hududiy muammolarning saqlanib qolishi bundan keyin ham shu kabi siyosiy kurashlarning (tinch yo'l bilan yoki qonli) aslo to'xtamasligini, oqibat natijada milliy mustaqillikka ega bo'lgan davlatlar sonining tobora ko'payib borishini ko'rsatadi. Mutaxassislarning bashoratiga ko'ra yana 25-30 yillardan keyin mustaqil davlatlar soni 50 foizga o'sishi va ularning umumiy soni 300 dan oshishi mumkin.

7. Aholining diniy tarkibi. Insoniyatning ijtimoiy rivojlanish tarixida dinlar hamisha muhim rol o'ynab kelgan. U hozir ham aholini barcha tabaqalarining ma'naviy-sotsial dunyoqarashi shakllanishiga, qolaversa, xalqaro siyosiy hayotga katta ta'sir o'tkazib kelmoqda.

Jahon bo'yicha xalqlar o'rtasida o'nlab dinlar tarqalgan bo'lib, ular xususiyatlariga ko'ra *primitiv*, *milliy* va *dunyoviy* dinlar guruhiga bo'linadi. Dastlabki shakllanish bosqichida kelayotgan primitiv dinlar urug' va qabilalik holatida yashab kelayotgan Tropik Afrika negrlari, Janubiy Amerika hindulari, ayrim Janubiy Sharqiy Osiyo va Okeaniyaning kichik etnik xalqlari orasida tarqalgan Milliy dinlar jahonning ba'zi mamlakatlarida asosan bitta davlat doirasidagi mahalliy din holatida yashab kelmoqda. Ularga Hindistondagi *iudizm*, Xitoydagi *konfutsionizm*, Yaponiyadagi *sintoizm*, Isroildagi *iudizm* va boshqalar kiradi.

Dunyoviy dinlarga jahonda eng keng tarqalgan va uning siyosiy—ijtmoiy hayotida katta o'rin tutuvchi *budda*, *xristian* va *islom* dinlari kiradi. Budda bu dinlar orasida eng qadimgisi bo'lib, eradan oldingi VI asrlarda Shimoliy Hindiston O'rta Osiyoning janubi (Surxondaryo viloyati) xalqlari orasida yuzaga keldi. Xristian dini esa eramizning boshlarida hozirgi Falastin hududida paydo bo'ldi va keyinchalik Rim imperiyasining davlat diniga aylandi. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida yevropaliklar tomonidan katta hududlarning ko'plab mustamlakalarga aylantirilishi davomida bu din dunyo bo'yicha eng keng tarqaldi.

Islom dunyoviy dinlar orasida eng yoshi bo'lib. VII asr boshlarida dastlab Arabiston yarim orolida yashovchi Quraysh

qabilasi xalqlari orasida yuzaga keldi. Makka va Madina shaharlarida payg'ambarimiz **Muhammad** (s.a.v.) tomonidan asos solingan bu din, keyinchalik Yaqin Sharq, Shimoliy va Sharqiy Afrika, Markaziy, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bo'ylab tarqaldi.

Jahonda eng keng tarqalgan din **xristian** dinidir. Bu dinga tobe aholining umumiy soni 1,2 mlrd. kishi deb hisoblanadi. Ularning teng yarmi (0,06 mlrd kishi) *katolik xristianlardir*. Jami katoliklarning 40 % Yevropa (Markaziy va Janubi-G'arbiy Yevropa) mamlakatlarida, qolgan qismi esa Lotin Amerikasida eng ko'p joylashgan. Xristian dinining *protestant* mazhabi uning ikkinchi yirik tarmog'idir. Protestant xalqlar asosan Janubiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Avstraliya-Yangi Zellandiya bo'ylab tarqalganlar — umumiy soni 0,4 mlrd. kishidir. *Pravoslavlar* xristian dinining uchinchi mazhabidir. Umumiy soni 100 mln.dan ortiqroq bo'lgan bu mazhab xalqari Rossiya va boshqa Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bo'ylab tarqalgandir.

Vatikan Papasi boshqaradigan xristian dini jahonning siyosiy-iqtisodiy-ijtimoiy hayotida eng faol ishtirok etib kelmoqda. Bunga jahondagi 90% dan ortiq rivojlangan mamlakatlarning, shu jumladan «*katta yettilik*» davlatlarining 6 tasi mazkur din ta'sirida faoliyat ko'rsatishi ham katta imkoniyat tug'dir-moqda.

Islom diniga tobe xalqlarning umumiy soni 1 mlrd. dan ortiqdir. Boshqa dunyoviy dinlarga nisbatan musulmon aholining soni tug'ilishning yuqoriligi tufayli tez oshib bormoqda. Asosan Osiyoning barcha Janubiy mintaqalari va Shimoliy Afrika bo'ylab keng tarqalgan musulmon aholisi ikki mazhab — **shialar** (Eron, Kavkaz, Yaman va boshqa hududlarda yashovchilar) va **sunnilar** (jahonning musulmonlar yashaydigan boshqa mintaqalarida yashovchi xalqlari)ga bo'linadi. Jahon musulmonlarining 90 % dan ortig'i sunni va qolgan qismi shia mazhablariga mansubdir. So'nggi vaqtlarda jahonning siyosiy ijtimoiy hayotiga islom dinining ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Afg'oniston, Jazoir, Sudan, Iroq kabi mamlakatlarda katta ta'sirga ega bo'lgan *Islom fundamentalistlari* ochiqdan-ochiq *jangarichilik*, *diniy-ekstremistik* va *terrorchilik* kurash yo'llaridan foydalanmoqdalarki (2001

yil 11 sentyabr voqealarini eslang), bu asli *islom diniy aqidalariga* butunlay ziddir. Shu sababli islom davlatlari Osiyo va Afrikada islom dinini **davlat dini** deb e'lon qilgan mamlakatlar soni 30 ga yaqindir) islom fundamentalizmi — terrorchilikni butunlay qoralaydi.

Umuman, jahondagi deyarli barcha dinlar so'nggi vaqtlarda tez o'zgarib borayotgan siyosiy-ijtimoiy hayotga moslashib borib, jamiyatdagi o'zaro munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqdalar.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Jahon aholisi tarixning dastlabki bosqichlarida juda sekin, so'nggi o'n yilliklarida esa misli to'rilmagan tez sur'atlarda o'sdi? Ularning sabablarini aniqlang va tahlil qiling.
2. Nima uchun aholining tabiiy ko'payishi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ancha sekin, kam rivojlangan mamlakatlarda tez bormoqda?
3. Jahon mamlakatlarida o'tkazilib kelinayotgan demografik siyosatlarining asl maqsadi nima?
4. Aholining jinsiy nisbatida qanday mamlakatlar aholisida ayollar va qanday mamlakatlarida erkaklar ko'pchilikni tashkil qiladi va buning sabablari nimada?
5. Jahonning asosiy «notinch» hududlarini aniqlang va ulardagi milliy-etnik omillarning roliga baho bering.

XI BOB

IQTISODIYOT TARMOQLARI VA ULARNI JOYLANISH QONUNIYATLARI

Iqtisodiyot — ijtimoiy hayotning murakkab tizimi, jabhasidir. U o'z navbatida bir necha tarmoq va tarmoqchalardan iboratdir. Iqtisodiyot tarmoqlarining ko'payib borishi ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv orqali sodir bo'ladi. Agar qadimda kishilar oddiy va oz narsalar bilan shug'ullangan bo'lsalar, hozirgi kunda ularning mashg'ulot turlari nihoyatda ko'payib ketgan.

Xo'jalik yoki iqtisodiyot eng avvalo ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlariga bo'linadi. Birinchisi bevosita kishilar va ishlab chiqarishni davom ettirish uchun har xil mahsulot, ishlab chiqarish vositalarini yaratish, ularni saqlash va iste'molchilarga tarqatish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi asosan nomoddiy sohalar, aholining ijtimoiy hayoti, boshqaruv kabi maqsadlar uchun xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish va umuman iqtisodiyotning yirik tarkibiy qismlari avvalambor *sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish* hisoblanadi. Ularni **makroiqtisodiy tarmoqlar** deb ham atashadi. Shu bilan birga yuqoridagi tarmoqlar o'zlarining murakkab ichki tuzilishiga ega. Masalan, sanoatni olaylik: u eng avvalo ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish (ya'ni «A» guruhi yoki og'ir sanoat) va iste'mol mollarini ishlab chiqarishga («B» guruhi, yengil va oziq-ovqat sanoat) bo'linadi. Ko'rinib turibdiki, bu yerda sanoat tarmoqlarini yirik darajada guruhlash mahsulotni qaysi maqsadda yaratilishiga ko'ra ajratiladi.

Umuman olganda sanoat tarmog'i — bu sanoat korxonalarini qanday va qaysi maqsadda mahsulot ishlab chiqarish, xom ashyo va texnologik jarayonlarning umumiyliги bo'yicha guruhlanishidir. Jumladan, mashinasozlik sanoat tarmoqlaridan eng murakkabi bo'lgan mashinasozlikka oddiy knopka yoki ignadan tortib samolyot, tanker yoki suv osti

kemalarini ishlab chiqarish kiradi. Bunday turli xil va yiriklikdagi mahsulotlarni bir sanoat tarmog'i tarkibiga kiritilishining sababi ularning barchasini faqat bir turdagi xom ashyo, ya'ni metallardan qilinishidir. Xuddi shunga o'xshash o'rmon, yog'ochsozlik, sellyuloza-qog'oz sanoati ham xom ashyo omiliga asoslanadi.

Mahsulotning qaysi (umumiy) maqsadda yaratilishidan kelib chiqib elektr energetika, yoqilg'i, qora va rangdor metallurgiya, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari ajratiladi. Bu sanoat tarmoqlarida turli xil xom ashyo va texnologik jarayonlardan foydalaniladi, ammo ularning pirovard maqsadi ishlab chiqarishni vositalar, aholini iste'mol mollari bilan ta'minlashdir. Texnologik jarayon asosida esa atigi bitta, ya'ni kimyo sanoati tashkil topadi.

Sanoatning tarmoqlar tarkibiga quyidagilar xos:

— sanoat tarkibida differensiatsiya, ya'ni ilmiy-texnika taraqqiyoti yordamida uning yangi-yangi tarmoqlari vujudga kelmoqda;

— shu bilan birga sanoat tarmoqlari o'rtasida o'zaro aloqadorlik, integratsiya jarayoni kuchaymoqda, tarmoqlararo majmualar shakllanmoqda;

— sanoat tarmoqlari ichida hozirgi zamon ilmiy texnik taraqqiyotini belgilovchi tarmoqlar, ya'ni mashinasozlik, elektr energetika va kimyo tez rivojlanib bormoqda;

— yirik industriyalashgan mamlakatlarda «postfordizm» jarayoni kuzatilmoqda yoki, boshqacha qilib aytganda, konveyr usuli, bir tur, rang ko'rinishdagi mahsulotni yoppasiga ishlab chiqarish o'rniga asta-sekin turli ko'rinish va shakldagi mahsulotlarni yaratish keng tus olmoqda (bunga talab va ehtiyojning individuallashtirish, o'sib borishi sababchidir);

— sanoat tarmoqlarining ma'lum hududda va infrastruktura tizimi asosida o'zaro aloqadorlikda faoliyat ko'rsatishi tufayli ularning hududiy ishlab chiqarish majmualari shakllanmoqda va boshqalar.

Statistik tashkilotlarda sanoat majmuida asosan yoqilg'i, energetika, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, kimyo, qurilish materiallari sanoati, o'rmon, yog'ochsozlik va sellyuloza-qog'oz, yengil, oziq-ovqat, omuxta yem ishlab chiqarish va poligrafiya sanoat tarmoqlari ajratiladi. Bu tarmoqlar o'z navbatida yana alohida

tarmoqchalarga bo'linadi. Ayniqsa, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati murakkab tarkibga ega.

Qishloq xo'jaligi yoki agrar ishlab chiqarishi o'zining tarkibi jihatdan uncha murakkab emas. U eng avvalo o'simlik va chorvachilikdan tashkil topgan. Biroq, shunga qaramasdan qishloq xo'jaligining tarkibida ham turli xil tarmoq va tarmoqchalar mavjud. Chunonchi, ularga bog'dorchilik va mevachilik, pillachilik va boshqalar kiradi. Dehqonchilik o'z navbatida turli xil ekinlarni ekish va yetishtirishdan iborat.

Agrar ishlab chiqarishda ham yangi jarayonlar yuzaga kelmoqda. Jumladan, bu tarmoqda industrial metodlardan foydalanish, uni elektrlashtirish, kompleks mexanizatsiyalash, kimyolashtirish tobora rivojlanib bormoqda; issiqxonalarda mahsulot yetishtirish, parrandachilikni sanoat asosida tashkil etish ham avj olmoqda. Ayni vaqtda qishloq xo'jaligining sanoat bilan yaqinlashishi, yagona ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish negizida agrosanoat majmualari va ularning hududiy shakllari vujudga kelmoqda.

Sanoat va qishloq xo'jaligining tarmoqlar tarkibi o'ziga xos tizimni hosil qiladi. Masalan, bug'doy yetishtirish donchilikka, donchilik dehqonchilikka, dehqonchilik qishloq xo'jaligiga, qishloq xo'jaligi iqtisodiyot tarkibiga kiradi. Xuddi shunday, yengil mashina ishlab chiqarish transport mashinasozligiga, u umumiy mashinasozlikka, mashinasozlik og'ir sanoatga, og'ir sanoat umuman sanoatga va u o'z navbatida iqtisodiyotga kiradi. Ko'rinib turibdiki, bu yerda qavatmaqavatlik, ko'p bosqichli tizim-tarkibi mavjud.

Qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishi iqtisodiyotning eng asosiy tarmoqlari bo'lishi bilan bir qatorda ular o'rtasida muhim farqlar ham bor. Chunonchi, **sanoat qishloq xo'jaligidan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:**

- Sanoat ishlab chiqarishi nisbatan «yangiroq» tarmoq, u keyinroq vujudga kelgan;
- Sanoatda mavsumiylik kamroq;
- Sanoat tarmoqlari qishloq xo'jaligiga qaraganda ko'proq;
- Sanoatda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil qilish shakllari kengroq namoyon bo'ladi;
- Sanoatning hududiy tashkil etish shakllari murakkabroq;

- Sanoatning ilmiy-texnika yutuqlariga moyilligi ko'proq;
- Sanoat tarmoqlarida bozor islohotlarini amalga oshirish, xususiylashtirish jarayoni murakkabroq;
- Sanoat ishlab chiqarishida mehnat unumdorligi, iqtisodiy ko'rsatkichlar yuqoriroq va h.k.

Transport ham sanoat va qishloq xo'jaligi singari iqtisodiyotning muhim tarmog'idir. Mahsulot yaratilishi va uning iste'molchiga yetkazilishi, xom ashyo, ishchi kuchi, tovar va xizmatlar harakati transportsiz bo'lmaydi. Binobarin, transport iqtisodiyotning qon tomiri, harakatga keltiruvchi bo'g'inidir.

Transport hududiy mehnat taqsimotini rivojlantirish, hududiy-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda katta rol o'ynaydi, u natural xo'jalik, berk iqtisodiyotdan ochiq va erkin iqtisodiyotga o'tishda muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Transport turi, tarmog'i, to'ri va tizimini farq qila olish kerak. Transport turi yoki tarmog'i temir yo'l, avtomobil, quvur, suv, havo, elektron transportidan iborat. Eng arzon transport turi *dengiz* va *daryo* (suv) *transporti* hisoblanadi. So'nggi yillarda jahon miqyosida va xususan rivojlangan mamlakatlarda yuk tashish hajmi bo'yicha *temir yo'l* va *avtomobil* transporti bo'lib, bu mutanosiblik ko'proq avtomobil transporti foydasiga o'zgarmoqda (deyarli 1:1). Sobiq Ittifoq, shu jumladan O'zbekistonning ayrim mintaqalarida esa yuk tashishda hamon temir yo'l transportining hissasi katta.

Transport to'ri mamlakat yoki boshqa hududning qay darajada va qanday shaklda transport turlari bilan qoplanganligi, ta'minlanganligini bildiradi. Buning uchun, odatda, transport yo'llarining zichligi inobatga olinadi. Transport to'ri tushunchasi mazmunan asosan naqliyot yo'llari, ya'ni transport yo'llariga mos keladi.

Transport tizimi sifat jihatidan ancha mukammalroq tushunchadir. U hududda barcha transport turlari va to'riining qay darajada o'zaro bog'liqligi, transport yo'llari va tugunlarining shakllanganligi va umuman bu sohaning muntazam faoliyatini anglatadi. Bu yerda transportning barcha turlari o'zaro muvofiqlashgan, uyg'unlashgan doimiy harakatda bo'lishi talab etiladi.

Iqtisodiy geografiyada transportga har xil qarash mumkin. *Birinchi*dan, transport alohida iqtisodiyot tarmog'i bo'lsa, *ikkinchi*dan, u ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu ma'noda transport ishlab chiqarish infrastrukturasi muhim tarmog'i hisoblanadi va u iqtisodiy rayonlar, hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanishida ham omil, ham ishlab chiqarishni davom ettiruvchi, daromad yaratuvchi tarmoq sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyot sohaslarining rivojlanishi va joylanishida o'ziga xos qonuniyatlar bor. Masalan, sanoatda, odatda ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, iste'mol mollarini ishlab chiqarishga nisbatan ustuvorroq, oldinroq rivojlanib borishi kerak. Bu tushunarli hol, zero elektr energiyasi, yoqilg'i, xom ashyo, mashina va asbob-uskunalar, qurilish materiallari bo'lmasa yengil va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish mumkin emas. Biroq, ma'lum sharoitlarda iste'mol mollarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tezroq rivojlanishining zaruriyati tug'iladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tish davrida eng avvalo mahalliy ehtiyojni o'zimizda ishlab chiqariladigan iste'mol mollari bilan to'la qondirish va shu asosda chetdan bunday mahsulotlar keltirilishini mumkin qadar kamaytirish nihoyatda dolzarb muammodir. Xuddi shu maqsadda kichik va o'rta tadbirkorlikka yo'l ochib berilmoqda.

Sanoat tarmoqlarining yana bir qonuniyati ularning ilmiy-texnika taraqqiyotini ifodalovchi yo'nalishlarini ildamroq rivojlanishidir. Bundan tashqari, mamlakatlar sanoat tarmog'i progressiv xususiyatga ega bo'lishi ham qonuniyatdir, ya'ni unda qazib olish sanoatiga ko'ra uni qayta ishlash tarmoqlarining ustunroq rivojlanishi, mashinasozlikda ta'mirlovchi yoki oddiy qishloq xo'jaligi asboblari ishlab chiqaruvchi korxonalarga nisbatan zamonaviy sohaslar — priborsozlik, aniq mashinasozlik kabilarning ko'pligi muhimdir.

Sanoatni hududiy tashkil etishda ham muayyan qonuniyatlar mavjud. Masalan, ba'zi sanoat tarmoqlari jumladan elektr energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoatlari katta rayon va majmua hosil qiluvchi salohiyatga ega. Bu ularning atrofida boshqa sanoat korxonalarining vujudga kelishida o'z aksini topadi. Ko'p hollarda arzon elektr ener-

giya manbaiga yaqin joyda rangdor metallurgiya, tog' kon sanoati rayonlarida og'ir mashinasozlik, aholi zich joylarda esa yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlangan bo'ladi.

Demak, yuqoridagi sanoat tarmoqlari asosida sanoat tugunlari, hududiy ishlab chiqarish majmualari barpo etiladi. Shunga o'xshash, qishloq xo'jaligining rivojlanishi va joylanishida ham tez-tez takrorlanib turadigan holatlar, ya'ni qonuniy aloqadorliklar bor. Chunonchi, qishloq xo'jaligining tabiiy (ayniqsa agroiklimiy) sharoitlarga bog'liqligi, uning o'z navbatida oziq-ovqat sanoati va u orqali aholi turmush darajasiga ta'siri hammaga ma'lum. Agrar soha tarmoqlari bilan aholi joylashuvi, yirik shaharlar atrofida o'ziga xos qishloq xo'jaligi «halqalarining» vujudga kelishi, agrosanoat majmualarining shakllanishi kabi vaziyatlar ham qonuniyat hisoblanadi. Shuningdek, paxtachilik bilan pillachilik, kartoshka yoki qand lavlagi yetishtiradigan rayonlarda go'sht chorvachiligi (ayniqsa cho'chqachilik), bug'doy yetishtiriladigan hududlarda parrandachilik, mo'tadil iqlim sharoitida sut chorvachiligi va u bilan bog'liq ishlab chiqarish korxonalarining joylanishi qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish va hududiy tashkil etishdagi qonuniyatlardir.

Transportda, odatda, ikki yirik markaz orasidagi aloqa yo'llari nihoyatda kuchli «arqon» (ingichka kanop yoki ipsimon emas), koridor shaklida bo'ladi; yirik markazdan chetga chiqqan sari yo'l holati va uning atrofidagi aholi manzilgohlarining katta-kichikligi ham o'zgarib boradi; yo'llar shahardan shaharga, turli xil konlarga — qazilma boyliklarga ulanadi. Har xil transport yo'llarinnig o'zaro joylashuvi hududni mustahkamlaydi, uning iqtisodiy qudratini, o'zlashtirilganlik darajasini yuksakligidan guvohlik beradi.

Iqtisodiy geografiyada transport yo'llari va shaharlar hudud, mamlakatning o'zagi, umurtqa pog'onasi, «qovurg'asini» tashkil etadi. Aynan ana shu shahar va yo'llar hududiy birlashmasiga qarab mamlakatning ichki iqtisodiy makoni, tabiiy sharoitini bilib olish mumkin. Masalan, agar yo'llar va shaharlar mamlakat yoki viloyatning chekkasida, atrofi bo'ylab joylashgan bo'lsa, demak, bilingki ularning ichki qismida ishlab chiqarish va aholini hududiy tashkil qilish uchun sharoit uncha qulay emas.

Dengiz (okean) transportining mamlakat ichidagi temir va avtomobil yo'llar, daryo transporti bilan bog'langanligi ham katta ahamiyatga ega. Chunki bunday sharoitda mamlakatning qulay transport geografik mavqei uning ichki imkoniyatlaridan keng foydalanishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan tashqari, tog'-kon sanoati joylashgan hududlar temir yo'l, neft-gaz sanoati rayonlarida quvur, agrosanoat rivojlangan joylarda avtomobil sanoati ustuvorroq ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, yirik shahar aglomeratsiyalarining vujudga kelishi ham yo'lovchi tashuvchi transport turlariga, xususan shahar atrofi elektrlashgan temir yo'l transportiga asoslanadi.

Iqtisodiyotning qolgan sohalariga *qurilish, aloqa, savdo, maorif, sog'liqni saqlash, kommunal xizmat ko'rsatish, fan, sport, san'at, turizm, soliq tizimi, boshqaruv* kabilar kiradi. Hozirgi davrda jahonning rivojlangan davlatlari «postindustrial», ya'ni industriyadan keyingi jamiyatga o'tmoqdalar. Bunday mamlakatlar milliy iqtisodiyotining eng muhim xususiyatlari shundaki, ularda *noishlab chiqarish, axborot, reklama, turizm, xizmat ko'rsatish, moliya tizimi* kabilarning ahamiyati yuqori bo'ladi.

Qurilish iqtisodiyot rivojlanishining garovidir; u boshqa xo'jalik tarmoqlari uchun zamin yasaydi va binobarin, yangi o'zlashtiriladigan rayonlarga oldinroq «kirib boradi». Mustahkam qurilish bazasi poydevor sifatida iqtisodiyotning qolgan tarmoqlarini barpo etishga xizmat qiladi. Masalan, Mirzacho'l yoki Qarshi dashtini o'zlashtirishda eng avvalo uning qurilish bazasi yaratilgan. Yirik elektr stansiyalarini barpo etish ham ana shunday omilga asoslanadi, stansiya qurilib bitirilgandan so'ng bunday infrastruktura sharoiti boshqa sanoat tarmoqlari va infrastruktura shahobchalari bilan birgalikda sanoat parklarini vujudga keltirishda zarurdir. Bunday tayyor sharoit sarmoyadorlarga ijaraga beriladi yoki sanoat korxonalarini ishga tushirish uchun sotiladi. Aynan ana shunday qulayliklar yaxshi investitsiya makonini shakllantirishga, xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar qurishga imkon beradi.

Aloqa tizimi transport bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga hozirgi zamon ilmiy-texnika yutuqlari masofadan turib (distansion) aloqa qilishga qulayliklar yaratmoqda. Aloqaning

turli zamonaviy xillari iqtisodiyotni tezkor rivojlantirish va boshqarish, shartnomalarni o'z vaqtida bajarish uchun zarurdir. Bundan tashqari, ular yangiliklarning diffuzion tarqalishiga, ommalashuviga yordam beradi.

So'nggi yillarda ijtimoiy sohalarning iqtisodiy ahamiyati oshib bormoqda. Ayniqsa, reklama, soliq tizimi, turizm tez rivojlanmoqda. Bejiz emaski, XXI asrni xalqaro turizm asri, deb atashmoqda, u jahon miqyosidagi eksport tizimida neft va mashinasozlik sanoatini orqada qoldirib oldingi o'ringa o'tishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ham *rekreatsiya* va *turizm* uchun imkoniyatlar yetarli. Buning uchun betakror tabiat manzaralari (landshaftlari), qadimiy va yangi shaharlar, tarixiy yodgorliklardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uning *maorif* va *sog'liqni saqlash* tizimini mavqei muhim. Sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash, kelajagi buyuk davlatning quruvchisi sifatida voyaga yetishi uning faqat jismoniy jihati-dangina emas, balki bilimli, madaniyatli, ma'naviy-ma'rifiy yetukligini ham nazarda tutadi. Xuddi shuning uchun ham O'zbekistonda maorif va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishga, Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturini amalga oshirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bunday tadbirlarni hayotga tadbiiq etishning iqtisodiy geografik tomonlari ham mavjud. Jumladan, ushbu ijtimoiy soha ob'ektlari turli omillarni e'tiborga olib, hududiy jihatdan to'g'ri hududiy tashkil etilishi kerak. Bu borada ularni ham o'ziga xos hududiy majmua shaklida joylashtirish katta iqtisodiy samara beradi.

Savdo va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohalari bozor iqtisodiyoti sharoitiga tezroq va osonroq moslashadigan tarmoqlardir. Shu sababdan ularni xususiyashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish tezroq amalga oshdi, ammo aynan mazkur sohalarni davlat tomonidan tartibga solish, boshqarib borish mexanizmidan samarali foydalanish ham muhim muammoga aylandi.

Albatta, zamonaviy bozor iqtisodiyoti an'anaviy sharqona bozorlarimizning o'zi emas, u ancha kengroq va murakkabroq tushunchadir. Gap bu yerda iqtisodiyotda bozor munosabatlarini, ya'ni erkin va ochiq iqtisodiyot, sog'lom raqobat, ishlab chiqarishga, taklifga nisbatan talabning ustu-

vorligini joriy qilish to'g'risida borishi kerak. Shu sababdan ham mamlakatimizda chinakam bozor munosabatlarini amalga oshirish unga tegishli bozor infrastrukturasi yaratish bilan birga kishilarning bunday sharoitga ma'naviy va moddiy jihatdan tayyor bo'lishi ham talab etiladi.

Iqtisodiy geografiyada, ayniqsa sobiq Ittifoq davrida moliya, bank masalalariga deyarli e'tibor berilmasdi. Vaholanki, rivojlangan, bozor iqtisodiyotining boy tajribasiga ega bo'lgan davlatlarda bu soha katta ahamiyat kasb etadi. Binobarin, mintaqaviy moliya, bank va soliq tizimining geografiyasini o'rganish ham zarurdir.

Shuningdek, fan, ilmiy tadqiqotlar, san'at kabi ijtimoiy sohalar ham iqtisodiyotda, iqtisodiy geografiyaning ijtimoiy geografiyaga aylanib borishida muhim ahamiyatga ega. Ularni hududiy tashkil qilish, madaniy geografiyani shakllantirish masalalari hozircha to'laligicha hal etilmagan. Davlat va ma'muriy boshqaruv tizimlari ham mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmasini to'g'ri tashkil etish, uning mintaqaviy siyosatining amalga oshirilishi, demokratik tamoyillarni hayotga tatbiq qilish bilan bog'liq holda olib boriladi.

Umuman, ijtimoiy sohalarning rivojlanishi va ularni joylashtirish har qanday davlatning asosiy vazifalaridandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mamlakatimizni bozor munosabatlariga o'tish davrining ustuvor tamoyillaridan biri ham aynan Respublika iqtisodiyoti rivojlanishining strategik yo'nalishlarini ijtimoiy maqsadlarga qaratish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, demografik vaziyatdan kelib chiqqan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, xalq xo'jaligi, iqtisodiyot barcha ishlab chiqarish hamda ijtimoiy tarmoqlarni mushtarak darajada tashkil etish va rivojlantirishga asoslanadi; mustahkam ishlab chiqarishsiz ijtimoiy sohalarni rivojlantirib, aholi turmush sharoitini yaxshilab bo'lmaydi. O'z navbatida, yaxshi ijtimoiy sharoit va barqarorlik iqtisodiyotni yanada yuksaltirishga qulaylik yaratadi. Demak, birini ikkinchisiga muqobil qilib bo'lmaydi, aksincha ularni birgalikda ko'rish to'g'riroq bo'ladi. Faqat milliy iqtisodiyoti mustahkam, mustaqil va xavfsiz, ijtimoiy va sog'lom, barqaror, demokratik prinsiplar keng yo'lga qo'yilgan davlatgina jahon hamjamiyatida faol

mavqega ega bo'la oladi, o'zining tashqi siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshira oladi. Mustaqil Respublikamiz ham aynan ana shunday yo'lni tanlagan, ana shunday maqsadlar sari rivojlanmoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi qanday?
2. Sanoatning tarmoqlar tarkibini O'zbekiston misolida tushuntirib bering.
3. Sanoat tarmog'i qanday belgilar asosida ajratiladi?
4. Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari qaysilar?
5. Sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanishi va joylanishidagi qonuniyatlar nimalardan iborat?
6. Transportning iqtisodiyotdagi o'rnini ta'riflab bering.
7. Ijtimoiy sohalar mohiyati va tarkibi qanday?

XII BOB

BOZOR MUNOSABATLARIGA O'TISH DAVRIDA IQTISODIY GEOGRAFIYA

Ishlab chiqarish kuchlari ishlab chiqarish vositalari (asbob-uskunalar, xom-ashyo va h.k.) sanoat va qishloq xo'jaligi hamda mehnat resurslarini o'z ichiga oladi. Odatda, ishlab chiqarish asosan sanoat, qishloq xo'jaligi, transport kabi makroiqtisodiy sohalardan tashkil topadi. Ammo ularning barchasini harakatga keltiruvchi ishchi kuchi, ya'ni inson hisoblanadi. Binobarin, aholi ijtimoiy ishlab chiqarishdek murakkab jarayonning markazidan o'rin oladi. Buni biz **demotsentrik prinsip** deb yuritishimiz mumkin.

Shu bilan birga ta'kidlash joizki, umuman aholi ishchi kuchi emas va u faqat iqtisodiy tushuncha sanalmaydi. Afsuski, ilgari aholi asosan bosh ishlab chiqaruvchi kuch sifatida baholanardi. Vaholanki, bizning sharoitimizda, hozirgi demografik vaziyatda faqat 48-50 foiz aholi mehnatga layoqatli yoshlardir, xolos.

Ijtimoiy ishlab chiqarish tizimi eng avvalo uch tarkibiy qismdan iborat. Bu ham bo'lsa, bevosita *ishlab chiqarish*, *taqsimot* va *iste'mol*dir. Bularning barchasi, albatta, ishchi kuchisiz bo'lmaydi. Ayni paytda ishlab chiqarilgan mahsulot bilan uni iste'mol qilish o'rtasidagi aloqadorlikni amalga oshirishda transportning ahamiyati katta. Shu sababli uni ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining «qon tomiri» yoki harakatga keltiruvchi omili darajasida qarash to'g'riroq bo'ladi.

Demak, ishlab chiqarish kuchlari keng va murakkab iqtisodiy tushuncha, uning tarkibi ishlab chiqarishning ob'yekti bilan sub'yekti, ya'ni ishchi kuchidan tashkil topadi. Aholining ishtiroki qisman, mehnat resursi doirasida kuzatiladi. Umuman aholi esa, u ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha hisoblanib, ishlab chiqarish jarayonining qoq o'rtasidan joy oladi. Sababi-aholi (mehnat resurslari) moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratuvchisi va ayni paytda ularning iste'molchisi hamdir.

Biroq, ishlab chiqaruvchilar ozroq, iste'mol qiluvchilar esa barcha aholidan (uning yosh va jinsidan qat'iy nazar) iborat.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimov o'tish davrining (ya'ni uning «o'zbek modeli») 5 ta asosiy tamoyilini ishlab chiqqan va ular hozirgi kunda bosqichma-bosqich hayotga tatbiq qilinmoqda. Shulardan biri ishlab chiqarishning ijtimoiy maqsadlarga qaratilishidir. Bu prinsip eng avvalo iqtisodiyot tizimida xalq iste'mol mollarini qay darajada ishlab chiqarish bilan belgilanadi.

Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotda **«joylashtirish»** tushunchasi juda ko'p ishlatiladi. Tarmoq yoki sohaviy iqtisodiyotida ko'proq «rivojlanish», taraqqiyot, o'zgarish kabilar tilga olinadi. Shu o'rinda qayd qilmoq lozimki, joylashtirish geografiyaning boshqa tarmoqlari, masalan, tabiiy geografiya uchun muhim emas, chunki iqlim, yer usti tuzilishi, tuproq, o'simlik yoki hayvonot dunyosi joylashtirilmagan, ularning hududiy xususiyatlari boshqa omil va qonuniyatlar bilan ifodalanadi.

Umuman rivojlanishning, har qanday hodisa yoki voqeelikning ajralmas, bir paytning o'zida (permanent) sodir bo'ladigan xususiyati yoki jihati mavjud. U ham bo'lsa joylanishidir. Zero, u yoki bu voqelik ma'lum vaqtda va aniq joyda yuzaga keladi-ki, biz bu yerda zamon va makon birligining guvohi bo'lamiz. Shundan kelib chiqqan holda e'tirof etish mumkinki, rivojlanish va joylanish bir borliqning, hodisaning ikki tomonidir yoki boshqacha qilib aytganda, **joylanish rivojlanishning hududdagi, makondagi in'ikosidir**. Binobarin, iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotda ushbu tushunchalarning bir joyda, qo'shaloq ishlatilishi an'ana bo'lib qolgan (masalan, paxtachilikning rivojlanishi va joylanishi, qora metallurgiya sanoatining rivojlanishi va joylanishi, temir yo'l transportining rivojlanishi va joylanishi va h.k.).

Ammo, yuqorida ta'kidlaganimizdek, joylanish va ayniqsa joylashtirish barcha hodisa yoki voqeeliklarga tegishli emas. Misol uchun, okeanda baliqni, yer ostida qazilma boyliklarni, atmosferada bulutlarni hech kim joylashtirmagan. Demak, joylashtirish deganda, uning kimdir (sub'yekt) tomonidan amalga oshirilganligi nazarda tutilganligi sababli baliq yoki ko'mirning geografiyasini boshqacha izohlash kerak. Shu bois,

geografiya faqat joylashuvigina emas, balki u hodisa va voqealarning hududiy tarkibi va tizimi, bir joyning ikkinchi joydan farqini o'rganadi.

Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot uchun ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish umumiy tushuncha, ob'yekt hisoblanadi. Hatto mintaqaviy iqtisodiyotni ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish haqidagi fan sifatida ta'riflaydilar. Qolaversa, sobiq Ittifoq davridagi iqtisodiyot universitetlari iqtisodiy geografiya kafedralarining nomlari avval ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga, undan keyin esa mintaqaviy iqtisodiyotga o'zgartirildi.

Mazkur fanlarda «ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish» bilan bir qatorda **«ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilish»** tushunchasi qo'llaniladi. Chindan ham bu ikki tushuncha bir-biriga juda o'xshash. Ayniqsa, «joylashtirish» hududiy tashkil qilishga yaqin, chunki bu ma'lum bir sub'yekt (shaxs, davlat) tomonidan amalga oshiriladi.

Hududiy tashkil qilish joylashtirish, joylanishning yuqori, mukammal shaklidir. Uning eng muhim xususiyati boshqaruv, nazorat (monitoring)da o'z ifodasini topadi. Shu sababli hududiy tashkil qilish umumiy ahamiyatga ega bo'lgan tizim yoki tizim-tarkib g'oyasiga asoslanadi.

Ma'lumki, har qanday tizimga, asosan murakkab tizimlarga quyidagilar xos:

- Ikki va undan ortiq element va qismlardan iborat bo'lish;

- Ichki va tashqi, tik va gorizontaal aloqalar;
- Ko'p bosqichlik, iyerarxialik;
- Mustaqil amal qilish, faoliyat ko'rsatish;
- Tartib va tarkiblilik;
- Boshqaruvchanlik va h. k.

Aynan ana shu jihatlarga ko'ra hududiy tashkil qilish joylashtirishga nisbatan ma'qulroq, afzalroq va amaliyroqdir. Masalan, talabalarining o'z xohishlaricha sinfda o'tirishlari yoki yangi uyga mebel va boshqa jihozlarni tartibsiz joylashtirish, bu tub mohiyati bilan o'rinlashtirish yoki hududiy tashkil qilish emas; bu jarayonni o'qituvchi yoki uy bekasi boshqaradi.

Boshqarish hamma vaqt *tartibni, tashkil qilishni, ma'lum maqsadga qaratilishni* nazarda tutadi. Binobarin, o'qituvchi

o'z darsini samarali o'tkazish maqsadida sinfni tashkil qiladi. Aniqrog'i talabalar o'tirishini, ya'ni kim-kim bilan va qayerda joylashishini sinfda tartibga soladi, boshqaradi, nazorat qilib boradi. Xuddi shunday, uy bekasi ham yangi uyga keltirilgan jihozlarni hududiy tashkil qiladi, tartibli joylashtiradi.

Yuqoridagi misollar qulayroq bo'lishi uchun ular soddaroq tarzda, kichik hududlar darajasida keltirildi. Bu o'rinda aytish mumkinki, eng avvalo ana shu kichik hududda yirik masshtabli tadqiqotlarni o'tkazish, «mikroiqtisodiyotni» chuqur o'rganib, so'ngra katta hududlarga o'tish kerak. Zero, «kichik kalit katta eshikni ochadi», deyishadi; kichikda kattani, kattada kichikni ko'ra bilish muhimdir.

Hududiy tashkil qilishda hudud o'zgarmas (constanta), bazis bo'lib xizmat qiladi; turli ob'yektlar — sanoat korxonalari, qishloq xo'jalik ekinlari, aholi va h.k. o'zlarining xususiyatlariga qarab ma'lum hududda joylashtiriladi. Bu yerda, hududda joylashtiriladi deyish mumkin, ammo hududiy joylashtirish uncha to'g'ri emas, chunki har qanday joylashtirish o'z-o'zidan ma'lumki hududiydir (to'g'ri, kamdan-kam hollarda, masalan avtobuslar qatnovini yoki dars jadvalini muayyan vaqt va soatlarda joylashtirish, taqsimlash mumkin).

Ayni paytda «hududni tashkil qilish» tushunchasi ham mavjud. U ko'proq rayon planirovkasida, sotsiologiyada yirik va o'rta masshtabli tadqiqotlarda qo'llaniladi. Bu yerda joylashtiriladigan ob'yektning emas, balki hududning xususiyati, imkoniyati («dili, tili, nafasi») hisobga olinadi. Boshqacha qilib aytganda, nimani qayerda joylashtirish emas, qayerda nimani joylashtirish nazarda tutiladi. Umuman olganda esa hududiy tashkil qilish bilan hududni tashkil qilishni o'zaro muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirish qulay va yaxshi samara beradi.

Hududiy tashkil qilish hududiy tarkib (struktura), hududiy tizim (sistema), iqtisodiy rayon tushunchalari bilan chambarchas bog'liq va ular mintaqaviy iqtisodiyot hamda iqtisodiy geografiyaning o'zak tushunchalarini tashkil qiladi.

Har qanday sistemaning ikki jihati, ya'ni uning xususiyligi va hududiylik borligidek, ishlab chiqarishni tashkil qilish ham ijtimoiy hamda hududiy shakllardan iborat. Ijtimoiy

tashkil qilish ixtisoslashuv, mujassamlashuv, kooperatsiya va kombinatlashuvdan iborat bo'lsa, hududiy tashkil qilishda sanoat markazi va tugunlari, sanoat parklari, texnopolislar, hududiy ishlab chiqarish majmualari mavjud. Ijtimoiy va hududiy shakllar turli xo'jalik tarmoqlarida har xil. Shuning uchun ularga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash katta ahamiyatga ega.

Bozor munosabatlari, «bozor» garchi sharqona mazmunga ega bo'lsa-da, uning hozirgi mohiyati butunlay boshqacha. To'g'ri, bozorlar (bizning an'anaviy tushunchamizga ko'ra) dastavval sharqda vujudga kelgan. Keyinchalik u O'rta Osiyo va Yaqin Sharq, so'ngra O'rta dengiz, u orqali Pireney yarim oroliga — Ispaniya va Portugaliyaga o'tgan. Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin «bozor» so'zi Atlantika okeanidan o'tib, Janubiy va Markaziy Amerikaga borib yetdi. Ana shunday evolyutsiya va geografiyaga ega bo'lgan bozor o'zimizga yangi ma'no kasb etgan holda «qaytib keldi».

Qadim-qadimda ham xalqlarimiz bozorni pul, pul muomalasi bilan uyg'unlashtirishgan. Darhaqiqat, hozirgi kunda bozor, bozor munosabatlari bu **pul** demakdir. Ammo bugungi sharoitda pul doimo harakatda, muomalada bo'lishi, qo'shimcha qiymat yaratishi, aylanishi kerak («pul pulni topadi», deyishadi).

Demak, pul harakatda bo'lishi shart. Bundan bozor munosabatlarining yana bir xususiyati kelib chiqadi, ya'ni **vaqt**. Bozor sharoitida vaqtning iqtisodiy qiymati nihoyatda oshadi, davr zichlashadi, intensivlashadi, chunki «vaqtning ketdi, naqding ketdi», deb bejiz aytishmagan.

Bozor munosabatlariga allaqachon o'tgan, bu borada boy tajribalarga ega bo'lgan rivojlangan mamlakatlarda vaqtdan samarali foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Yirik korxona yoki korporatsiyalar, firmalar o'zaro iqtisodiy aloqalarida, «oldi-berdi» munosabatlarida so'ralgan, buyurilgan narsani — ayni o'z vaqtida (just in time) yetkazib berish prinsipiga rioya qilishadi. Bu har ikkala tomon uchun ham ahamiyatli hisoblanadi.

Mazkur prinsipning amalga oshirilishi ishlab chiqarishni joylashtirish va tashkil qilishga ham ma'lum darajada ta'sir qiladi. Masalan, buyurilgan narsani o'z vaqtida va faqat ke-

rakli miqdorda yetkazib berilishi katta-katta omborxonalarni zarursiz qilib qo'yadi, transport tizimi va omiliga o'zgartirish kiritadi.

Rivojlangan mamlakatlarda asta-sekin mehnatni ko'p talab qiluvchi, bevosita tabiiy boyliklarni qayta ishlovchi, ekologik jihatdan xavfli korxonalar, turli ta'mirlovchi zavodlar ikkinchi (ko'pincha yangi industrial mamlakatlarga), ulardan esa uchinchi darajali mamlakatlarga ko'chmoqda. Arzon ishchi kuchining borligi an'anaviy sanoat tarmoqlarini o'ziga jalb qilmoqda, rivojlangan («postindustrial») mamlakatlarning iqtisodiyoti esa asosan *xizmat ko'rsatish*, jumladan *turizm iqtisodiyotiga*, *moliya funksiyalari*, *qimmatbaho qog'ozlar* va *pul bozori* kabi yangi omillarga tayanmoqda.

Bozor iqtisodiyotining eng muhim xususiyati *talab va taklif, iste'mol va ishlab chiqarish* munosabatlaridir. Vaholanki, avvalgi «sotsialistik planlashtirish» sharoitida bu prinsip aksincha edi. Binobarin, hozirgi kunda talab, iste'mol taklif va ishlab chiqarishga ko'ra ildamroq, oldinda boradi va bu iqtisodiy rivojlanishni harakatga keltiradi.

Aynan ana shunday sharoitda ishlab chiqarishni ijtimoiy va hududiy tashkil qilish mutlaqo o'zgaradi. Ma'lumki, ilgari mahsulotlarning turi oz, talab ham cheklangan edi. Ishlab chiqariladigan mahsulot muayyan bir andozada (standartda) ko'plab, konveyer usulida yaratilardi. Bu usul jahon miqyosida amerikalik sanoatchi **G. Ford** nomi bilan «*fordizm*» deb yuritiladi. U XX asr o'rtalarida «Ford» (T) markali avtomobillarni ko'plab ishlab chiqib, jahon bozorini monopoliya tarzida egallagan edi.

G. Ford aytgan ekan: «Men sizga istagan rangli avtomobil sotishim mumkin. Faqat bitta shartim bor — bu mashina albatta qora rangda bo'lishi kerak». Bundan ayonki, Ford firmasi konveyer usulida faqat bir rangli, ya'ni qora mashinalar ishlab chiqargan.

Hozirgi kunda vaziyat butunlay boshqacha: iste'mol mollariga talab xususiylashmoqda (individuallashmoqda) va bu talab vaqt davomida tez-tez o'zgarib turmoqda. Shu bois, endigi sharoitda yoppasiga konveyer usulida bir tur va ko'rinishdagi mahsulot keraksiz bo'lib qoldi. Bunday holat jahon adabiyotida «*postfordizm*» deb yuritilmoqda.

Shunday qilib, avvallari «miqdor», «miqyos» iqtisodi bo'lsa, bugungi kunda «sifat», «har xillik» iqtisodi oldinga chiqmoqda. Demak, xo'jalik tizimini, majmuasini turli yo'nalishlar bilan boyitish, diversifikatsiya jarayonini rivojlantirganlar yutadi. Faqat bir turdagi mahsulotni ko'plab miqdorda ishlab chiqarganlarning bozori «kasod» bo'lmoqda.

Biz yuqorida bozor munosabatlariga xos xususiyatlardan *pul, vaqt, talab* va *taklif* to'g'risida aytib o'tdik. Lekin bularning barchasi ham bozor iqtisodiyotining tub mohiyatini to'laligicha ifodalamaydi. **Sabab** — bu yerda *raqobat, raqobat muhiti* yetishmayapti. Mahsulot arzon, sifatli, ko'rimli, xaridorgir bo'lishi uchun ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat zarur. Biroq, bu raqobat erkin, sog'lom, madaniy bo'lishi talab etiladi.

Raqobat uchun mulkchilik turli shaklda bo'lishi, erkin va ochiq iqtisodiyot yuritish lozim. Binobarin, o'tish davrida xususiylashtirish va nodavlat sektorini rivojlantirishga ahamiyat beriladi. Bu davrda eng avval savdo, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, qishloq xo'jaligi, yengil va oziq-ovqat, qurilish materiallari sanoati osonroq «nodavlatlashadi». Shuning uchun bo'lsa kerak, hozirgi vaqtda ko'proq tog'kon, yoqilg'i-energetika sanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan viloyatlarda (Navoiy, Qashqadaryo, Toshkent) xususiylashtirish darajasi past. Ayni chog'da agrosanoat majmui rivojlangan hududlarda (Sirdaryo, Xorazm, Namangan va h.k.), bu jarayon tezlik bilan amalga oshmoqda.

Mulkchilikning turli shakllariga keng yo'l ochish, iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish maqsadida davlat antimonopol, ya'ni monopoliyaga qarshi siyosat olib boradi. Shu bilan birga u ilgariidek ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishni qat'iy rejalashtirmaydi (chunki, endi barcha mulk uniki emas), balki tartibga solib boradi. Ammo bu tizimga bosqichma-bosqich o'tib boriladi, zero buning uchun moddiy, ma'naviy, huquqiy shart-sharoitlar muhayyo bo'lishi shart.

O'tish davri prinsiplaridan birida davlatning asosiy islohotchi, tashkilotchi kuch sifatida saqlanib qolishi qayd etilgan. Darhaqiqat, davlatning bunday vazifasi qolaveradi, faqat uning amalga oshirilish yo'llari biroz o'zgaradi. Davlat o'z

tasarrufida bo'lgan sohalarga bevosita, qolganlariga esa bilvosita, ya'ni moliya-kredit, soliq, narx-navo siyosati orqali ta'sir qiladi. Demak, «joylashtirish», «hududiy tashkil qilish» tushunchalarining qat'iyligi ancha yo'qoladi, chunki endi hamma korxonalarni ham davlat rejalashtirmaydi. Binobarin, hozirgi sharoitda joylashtirish, hududiy tashkil qilishning «egasi», sub'yekti nafaqat davlat, balki alohida jismoniy shaxs, oila, jamoa, kichik va o'rta tadbirkorlar hisoblanadi.

O'tish davrida rivojlanayotgan mamlakatlarda erkin iqtisodiy mintaqalarni (EIM) yaratishga katta e'tibor beriladi. Ularning ham shakli va turi ko'p; EIMlar bevosita sanoat ishlab chiqarishiga, eksport-import jarayoniga, xizmat ko'rsatish, savdo-sotiqqa (ofshor) ixtisoslashgan bo'lishi mumkin.

EIMlarni tashkil qilishda avvalambor qulay iqtisodiy geografik o'rin, infrastruktura tizimi, transportning rivojlanganligi hamda soliq, bojxona sohasidagi yengilliklar, imtiyozlar talab etiladi. O'z navbatida yaratilgan EIMlar milliy va mintaqaviy iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatadi, ishlab chiqarishni joylashtirishga, hududlar rivojlanishini jonlantirishga ko'mak beradi, yangi texnologiyalarni kiritishda nihoyatda ahamiyatli bo'ladi.

O'tish davrida ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishda chet el sarmoyalarini, firmalarni jalb etish ham muhim. Buning uchun qulay *investitsiya muhiti* yaratilishi, xorijiy investorlarni qiziqtiruvchi shart-sharoitlar muhayyo bo'lishi zarur. Ikkala tomon uchun manfaatli bo'lgan qo'shma korxonalarni qurish esa mintaq va milliy iqtisodiyotni mustahkamlashda, jahon bozoriga chiqishda katta ahamiyatga ega.

Mavjud jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'tish davrida yengil, xususan to'qimachilik sanoatini ustuvor darajada rivojlantirish yaxshi natija beradi. Sababi — ushbu sanoat korxonasini qurishda, asbob-uskunalar uchun katta mablag' talab qilinmaydi, mahsuloti esa barchaga va hamma vaqt kerak, pul oboroti (aylanishi) esa tez kechadi. Biroq shunday bo'lsa-da, to'qimachilik sanoatiga urg'u berish asosida barqaror iqtisodiyotni shakllantirish ancha vaqtni o'z ichiga oladi. Shuning uchun, bunday an'anaviy yo'lni *evolyutsion yo'l* deb atash mumkin.

Shu bilan birga mashinasozlik sanoatini ham o'tish davri iqtisodiyotini shakllantirishda ahamiyati katta. Bu, garchi «revolyutsion» yo'l bo'lsa-da, u biroz tavakkalli va kafolat-sizdir. Uning muvaffaqiyati uchun tegishli shart-sharoit, qulay raqobat makoni bo'lishi zarur.

O'tish davrida ko'pchilik hollarda «kichik» daraja ma'qul: *kichik korxona, kichik tadbirkor, kichik shahar* va h.k. Chindan ham kichik korxonalar harakatchan, ixcham, kasod bo'lgan tarzda ularning yo'nalishini (ixtisoslashuvini) osonlikcha o'zgartirish mumkin; bunday korxonalarni boshqarish ham oson. Biroq, kichik korxonalar mahsuloti asosan mahalliy bozorni to'ldiradi, to'yintiradi, ularni mintaqaviy va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi pastroq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, keyinchalik, xo'jalik tarmog'ining xususiyatidan kelib chiqqan holda, kattaroq korxona va tashkilotlarni qurish ham maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, yirik korxonalarda hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatlari kengroq. Qolaversa, mamlakat milliy iqtisodiyotini, qudratini behisob mayda korxonalar emas, balki zamonaviy yirik korxona va korporatsiyalar belgilaydi.

Xulosa qilib, yana bir holatni ta'kidlashimiz joiz. Bu ham bo'lsa, o'tish davrida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishdagi hududiy tafovutlarni saqlab qolinishi va hatto kuchayishidir. Chunki, raqobat faqat mulk egalari, xo'jalik tarmoqlari o'rtasidagina emas, balki hududlar orasida ham mavjud bo'ladi (ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishida). Shuningdek, bu davrda hududlar xo'jaligining individuallashuvi, mustaqilligining kuchayishi natijasida rayonlararo iqtisodiy integratsiya jarayonlari biroz zaiflashadi. Shu bois, hududlar orasidagi xo'jalik aloqalarini rivojlantirish mamlakatning geosiyosiy va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgi va shartlari nimalardan iborat?
2. «Bozor»ning an'anaviy sharqona va hozirgi zamon mohiyatini tushuntirib bering.
3. Raqobat uchun qanday shart-sharoitlar kerak?

4. Bozor munosabatlari ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Ishlab chiqarish va ishlab chiqarish kuchlari nima?
6. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha ekanligini tushuntirib bering.
7. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish va joylashtirish o'rtasida qanday o'xshashlik va farqlar mavjud?
8. Sistema (tizim) g'oyasining mohiyati va uni hududiy tashkil qilishda qo'llanishi nimada o'z ifodasini topadi?

XIII BOB

IQTISODIYOTNI HUDUDIIY TASHKIL ETISHNING SHAHARLAR RIVOJLANISHI BILAN ALOQASI VA EKOLOGIK MUAMMOLAR

Ma'lumki, shaharlar ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelgan. Dehqonchilikdan hunarmandchilik va savdoning ajralib chiqishi ushbu vazifa bilan shug'ullanuvchi maxsus aholi manzilgohlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Ular tovar ayirboshlash va vositachi markaz sifatida qulay geografik joyda rivojlanib borgan. Shaharlar dastlab davlat maqomiga teng bo'lgan (polis-shaharlar: Afina, Rim, Bog'dod, Konstantinopol yoki Vizantiya). O'zimizning o'lkamiz taraqqiyotini ham Buxoro-Samarqand «musobaqasisiz», Toshkent, Qo'qon, Xiva, kabi qadimiy markazlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shaharlarning keyingi rivojlanishi yana o'sha ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimotining kengayishi bilan bog'liq bo'lgan. Ularning jamiyat va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish hamda boshqarishdagi ahamiyati, ayniqsa, XIX-XX asrlarda kuchaydi. Hozirgi davrda shaharlar qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan aholining yashash joyi hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan ular sanoat, transport, ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan esa fan-texnika, aholiga xizmat ko'rsatish markazidir. Shuningdek, shaharlarning siyosiy ahamiyati ham katta.

Shaharlarning ishlab chiqarishni hududiy shakli sifatida yuqori darajadagi mujassamlashuvga ega. Ularning kattakichikligi va funksiyasi, ya'ni bajaradigan vazifasi ham aynan ishlab chiqarishning joylanishga va ixtisoslashuvi bilan bog'liq.

Rivojlangan mamlakatlarda bozor munosabatlarining shakllanishida shaharlar muhim rol o'ynagan. Ularning bozor infrastrukturasi, *bank-moliya markazi* ekanligi ham ma'lum. Bunday davlatlarda urbanizatsiya darajasi juda yuqori — hatto 90%dan oshadi. Demak, ularni to'la *shaharlashgan mamlakatlar*, deb atalsa xato bo'lmaydi.

Odatda, 75-90 % shahar aholisiga ega bo'lgan davlatlar milliy iqtisodiyoti yuksak darajada rivojlangan, industrial yo'nalishli mamlakatlar hisoblanadi. Agar bu ko'rsatkich taxminan 50-75% bo'lsa, bunday davlatlar iqtisodiyoti ham rivojlangan va xo'jalik tuzilmasi industrial-agrar bo'ladi; 30-50 %-li esa rivojlanayotgan agrar-industrial, 30%-dan past iqtisodiyoti zaif agrar davlatdir. Ko'rinib turibdiki, urbanizatsiya darajasi bilan mamlakat va rayonlar iqtisodiyotining rivojlanganligi orasida qonuniy aloqadorlik mavjud.

Darhaqiqat, har qanday davlatning iqtisodiy xaritasida eng avvalo shaharlar ko'zga tashlanadi. Shaharlar va yo'llar mamlakatlar xo'jaligi hududiy tarkibi, milliy iqtisodiyotning o'zagini aks ettiradi. Bu jihatdan, ayniqsa, yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarning ahamiyati katta. Aynan ana shularda mamlakatning *iqtisodiy qudrati, fan-texnika salohiyati, infrastrukturasini, siyosiy kuchi* mujassamlanadi.

Shaharlarning ikki asosiy funksiyasi bor: *shahar hosil qiluvchi va shaharga xizmat qiluvchi*. Har ikkalasi ham ishlab chiqarish tarmoqlarining joylashuvi, mujassamlashuvi bilan bog'liq. Masalan, shahar hosil qiluvchi funksiyaga tashqi *transport, sanoat, fan-texnika, turizm, dam olish* va hokazolar, ikkinchisiga ichki yo'lovchi transporti, shahar aholisiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar kiradi. Demak, birinchisining ahamiyati asosan tashqariga, ikkinchisi — ichkariga qaratilgan bo'ladi.

Shaharlarning vujudga kelishi va joylanishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular eng avvalo ishlab chiqarish tarmoqlaridir. Masalan, dastavval shaharlar hunarmandchilik va savdo tarmoqlarini joylashtirish asosida vujudga kelgan. Keyinchalik, mayda va «katta» sanoat, turli xil transport, fan-texnika kabilar shaharlar rivojlanishiga ta'sir etgan.

Qadimda shaharlar karvon yo'llari, kema qatnaydigan va sug'orma dehqonchilik qilish imkoniyatini beradigan daryo bo'ylarida, tepaliklarda, muhim harbiy-strategik mavqega ega bo'lgan joylarda qurilgan. Hozirgi kunda ular har xil qazilma boylik konlari, dam olish maskanlari, universitet, ilmu fan, bank-moliya tizimi asosida ham tashkil bo'lmoqdalar.

Umuman shaharlarning joylanishiga ta'sir etuvchi omillarni bir necha guruhga bo'lish mumkin. Ular: *tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy* va *siyosiy* omillardir. Chunonchi, shaharni qurish

uchun joy yaxshi tanlangan, uning mikrogeografik o'zni, tabiiy sharoiti — yer usti tuzilishi, suv va boshqalar qulay bo'lishi talab etiladi. Ayrim shaharlar ana shu sharoitlarni hisobga olinmaganligi sababli yaxshi rivojlanmay qolgan. Masalan, 60-yillarda barpo etilgan Yangiyer shahri Sirdaryo viloyatining markazi bo'lishi kerak edi (nomi ham yangi o'zlashtirilgan, tashkil etilgan mazmunni anglatadi). Biroq, amalda bunday bo'lmadi, sabab — bu yerdagi kuchli shamol («Xovos shamoli») hisobga olinmagan edi.

Yurtimizda ko'pgina qadimiy shaharlar borki, ular turli noqulay tabiiy sharoitlar ta'sirida rivojlanishdan to'xtab qolgan va hozirgi kunda xarobalarga aylanib qolgan (Nasaf, Axbi, Afrosiyob, Pop, Tuproqqal'a va h.k.). Ularda suv toshqini, zilzila, surilma, yer osti suvi yuqoriligi tufayli cho'kish kabi noxush hodisalar bo'lgan.

Dunyoning ba'zi shaharlari siyosiy omil asosida vujudga kelgan. Bunga Braziliyaning yangi poytaxti Braziliya, Pokistonning Islomobod shaharlarini misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, shaharlar ilmiy fan, universitetlar rivojlanishi va joylanishi negizida ham paydo bo'ladi (Tartu, Dubna, Pushino, Pulkovo, Ulug'bek va boshqalar).

Shaharlarda ishlab chiqarishning mujassamlashuv darajasi juda yuqori. Buni ilmiy adabiyotlarda *urbanistik mujassamlashuv* deyiladi. A. Veberning aglomeratsiya samaradorligi ham aynan ana shunday mujassamlashuv natijasida vujudga keladi.

Hududiy urbanistik mujassamlashuv tushunchasi ham mavjud (I.M. Mayergoyz). U mamlakat ichki qismining katta shaharlar (ya'ni har birida aholi soni 100 ming kishidan ziyod) bilan ta'minlanganlik holatini anglatadi. Masalan, Farg'ona va Toshkent viloyatlarining hududiy urbanistik tarkibi yaxshi, chunki ularning har qaysisida 3 tadan katta shahar mavjud. Ayni vaqtda Sirdaryo viloyatida bu daraja o'ta past — hatto viloyat markazi Guliston ham katta shaharlar qatoriga kirmaydi.

Ko'pincha mintaqalar iqtisodiyotini tahlil qilishda ularning ichki tafovutlari va shaharlar tavsifiga oxirgi o'rin ajratiladi. Vaholanki, mamlakat yoki rayonlar xo'jaligi, uning tarkibi va ixtisoslashuvi, rivojlanganlik darajasini o'rganishda uni shaharlar to'ri va tizimidan boshlash ham mumkin. Huddi

shu o'rinda mamlakat mintaqaviy siyosatining uning urbanistik siyosati bilan uyg'unlashib ketishi, aloqadorligini ham ta'kidlash joiz.

Shaharlarning klassifikatsiyasi, ya'ni katta-kichikligi bo'yicha taqsimlanishi mamlakat yoki rayon xo'jaligining hududiy tashkil etilganlik va rivojlanganlik xususiyatlarini aniq ifodalab beradi. Yuqorida keltirilgan misolimizda, Toshkent va Farg'ona viloyatlari turli bosqichdagi shahar joylariga ega. Ayni paytda ularda sanoat ishlab chiqarishining joylashuvi va mujassamlashuvi ham rivojlangan. Sirdaryo viloyatida esa shaharlar to'ri va tizimi yaxshi rivojlanmagan. Chunki sanoat va boshqa shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning o'zlari ham xuddi shunday darajada; ushbu viloyat hududining «iqtisodiy sig'imi» yoki salohiyati ancha past bo'lib, bu yerda ko'zga ko'rinadigan ishlab chiqarish markaz yoki qutblari juda oz.

Shaharlar iyerarxiyasining mukammalligi ishlab chiqarish kuchlarini yaxshi hududiy tashkil qilinganligining ko'rsatkichidir. Agar aholi joylashuv tizimi *monotsentrik*, ya'ni asosan bir markazga qaratilgan bo'lsa, u holda ishlab chiqarish ham notekis joylashgan bo'ladi. Buni biz Lotin Amerikasi yoki Afrika mamlakatlari misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Sababi — bu mamlakatlarning ko'pchiligida ishlab chiqarishning asosiy qismi ularning poytaxt yoki port shaharlarida mujassamlangan.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'lishicha, shaharlar bilan ishlab chiqarishning joylashuvi va mujassamlashuvi orasida kuchli aloqadorlik mavjud bo'lib, bu aloqadorlik ikki tomonlamadir. Chunki, dialektik nuqtai nazardan har qanday ta'sir ozmi-ko'pmi aks ta'sir bilan birga sodir bo'ladi. Shaharlar ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish asosida vujudga keladi, yiriklashib boradi, ular shahar joylarning murakkab tizimi — aglomeratsiya va megalapolislarga aylanadi. Bu esa ishlab chiqarish mujassamlashuvining rivojlanib borishi, uning bir shakldan ikkinchi shaklga o'tishi orqali amalga oshadi. Shu bilan birga katta va yirik shaharlar o'zlarining infrastruktura jihatidan yaxshi ta'minlanganligi (bu yerda malakali ishchi ko'p, fan va texnika rivojlangan, iqtisodiy geografik o'rin ham qulay) tufayli o'zlari ishlab chiqarishni joylashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi, ya'ni ta'sir aks ta'sirga o'tadi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarining o'ziga xos va o'ziga mos shahar hosil qilish qudrati bor. Masalan, temir yo'l yoqasida ko'proq kichik shaharlar vujudga keladi, konserva, vino yoki paxta tozalash zavodlari ham xuddi shunday shaharlarning moddiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Ayni vaqtda yirik mashinasozlik zavodlari, metallurgiya kombinatlari nisbatan kattaroq shaharlar rivojlanishini ta'minlaydi.

Shaharlar sanoat markazi, shahar aglomeratsiyalari tunganlarini aks ettiradi. Ularning hududiy ishlab chiqarish majmualarining, iqtisodiy rayonlar shakllanishidagi roli ham sezilarli. Jumladan, iqtisodiy rayonlashtirishning muhim omillaridan biri — bu yerda rayon hosil qiluvchi markazning borligidir. Agar bunday markaz shakllanmagan bo'lsa hudud ham iqtisodiy jihatdan hozircha rivojlanmagan, o'zlashtirilmagan. Demak, bu hudud alohida iqtisodiy rayonni tashkil etmaydi. Aksincha, agar ma'lum hududda bunday markazlar soni ko'p va ular bir biridan uzoqroqda joylashgan bo'lsa, u holda bu yerda keyinchalik shunga muvofiq bir nechta iqtisodiy rayon shakllanishi mumkin («bir qozonda ikki qo'chqorning kallasi qaynamaydi», deyishadi).

O'zbekiston va O'rta Osiyo sharoitida shaharlarning to'ri va hududiy tizimining vujudga kelishida gidrografik omillarning ta'siri ham yuqori. Bu borada shaharlarning kattakichikligi bilan ularning suv resurslari hajmi o'rtasida qonuniy aloqadorlik mavjud.

Qadimda daryo va daryochalarning quyilish qismida yoki deltasida suv miqdoriga mos holda shaharlar paydo bo'lgan, ko'pgina soylar o'zlarining shaharlari, vohalari bilan ajralib turgan. Masalan, So'x daryosi Qo'qonga, Isfarasoy-Konibodomga, Chortoqsoy va Namangansoy — Namanganga, Kosonsoy — Kosonsoy va To'raqo'rg'onga, Shohimardonsoy Marg'ilonga hayot bag'ishlagan.

Buxoroi Sharifning vujudga kelishi, Sharq islom dinining **qubbati** (markazi) maqomida mashhur bo'lishi va, qolaversa, shaharning rivojlanishidagi qiyinchilik va muammolar ham qisman uning Zarafshon daryosining quyi qismida joylashganligi bilan bog'liq. Ayni vaqtda Samarqandning bu daryoning yuqori qismida joylashganligi uni Amir Temur imperiyasining poytaxt qilib olinishida muhim omillardan biri bo'lgan.

Shunday qilib, ishlab chiqarishni shaharlarsiz qarab bo'lmaydi. Qolaversa, shaharlar, jumladan, poytaxt shaharlar va ularning bozorlari orqali mamlakat aholisi va xo'jaligi, iqtisodiyotining ixtisoslashuvi, yurtning boyligi va butligi, milliy xususiyatlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Dastavval «ekologiya» tushunchasi nemis olimi **Ernst Gekkel** tomonidan 1868 yilda ishlatilgan. U ekologiyani zoologiya fanining bir yo'nalishi sifatida ta'riflab, hayvon organizmlarining va barcha hayvonlarning o'zaro hamda tashqi muhit bilan munosabati mazmunida talqin qilgan. Demak, bu yerda ekologiya yoki munosabat uch darajada nazarda tutilgan: 1) hayvon (aniqrog'i, Gekkel misolida — qurbaqa) ichki organizmlarning o'zaro munosabati; 2) shu turdagi hayvonlarning o'zaro munosabati; 3) ana shu hayvonlarning tashqi muhit bilan munosabati. Keyinchalik ekologiya ilmiy asoslari **Ch. Darvin** tomonidan chuqurroq rivojlantirilgan.

Zoologik ekologiya asta-sekin o'simlik ekologiyasiga o'tgan va u to'la ma'nodagi biologik ekologiya yoki bioekologiyaga aylangan. So'ngra amerikalik (Chikagolik) tibbiyot olimlari «Inson ekologiyasi», «Ekosistema» tushunchalarini kiritib, ularni inson organizmi va salomatligi nuqtai nazaridan ishlatgan. Ayni vaqtda shaharlar rivojlanishi natijasida «urboekologiya» tushunchasi ham vujudga kelgan. O'z navbatida urboekologiya va inson ekologiyasi asosida ijtimoiy ekologiya shakllangan bo'lib, u rasmiy ravishda 70-yillarda tan olingan.

Shunday qilib, ekologiya evolyutsion o'zgarishi zooekologiya → fitoekologiya + bioekologiya → inson ekologiyasi + urboekologiya → ijtimoiy ekologiya shaklida sodir bo'lgan. Hozirgi kunda ekologiya yo'nalish va turlari juda ko'payib ketgan (geoekologiya, bioekologiya, geologik ekologiya, iqtisodiy ekologiya, hatto ximik va matematik ekologiya, huquq ekologiyasi va h.k.). Natijada, aytish mumkinki, bugungi kunda hamma ekolog, lekin ayni vaqtda aniq, umumiy ekologiya o'zi yo'qdek. Chunki, biror bir kishini ekologiya bo'yicha har tomonlama mutaxassis darajasida e'tirof etish qiyin.

Omma orasida esa «Ekologiya» tushunchasi ko'proq atrof-muhitning ifloslanishi, zarar va zaharlanishi bilan uyg'unlashib ketadi. Vaholanki, biz yuqorida ko'rganimizdek, ushbu

atamaning ma'nosini faqat bir tomonlama, salbiy ruhda talqin qilish noto'g'ridir. Biroq, shu bilan birga tan olish lozimki, chindan ham ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va mujassamlashuvi, shaharlar va urbanizatsiya taraqqiyoti tabiat va inson (jamiyat) orasidagi muvozanatni buzdi, ekologik muammo global, olamshumul ahamiyat kasb etib, u hatto urush va tinchlik muammosidan ham oldinga chiqib oldi. Shuning uchun hozirgi sharoitda ijtimoiy hayotning biror bir sohasi yo'qki, u ekologiya bilan bog'liq bo'lmasa.

Hududiy mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish tarmoqlarining ko'payib borishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi va boshqalar tabiatga *texnogen* va *antropogen* ta'sirni kuchaytirdi. Oqibatda Yer yuzida tabiiy sharoiti o'zgarmagan joyning o'zi deyarli qolmadi. Madomiki, barcha hududlar ekologik vaziyati buzilgan ekan, u holda bu vaziyatning darajasi, holati to'g'risida gap yuritish talab etiladi.

Atrof-muhitning ifloslanishiga eng avvalo ishlab chiqarish tarmoqlarining joylanishi ta'sir etadi. Bu xususda sanoat ishlab chiqarishi oldinda turadi. Ammo barcha sanoat tarmoqlarining ekologik jihatdan «xavfsizligi» bir xil emas. Shu nuqtai nazardan sanoat tarmoqlarini alohida ko'rib chiqamiz.

Tog'-kon sanoati natijasida texnogen landshaftlar vujudga keladi, «bedlendar» (yomon yerlar) paydo bo'ladi, joy relyefi, geomorfologiyasi buziladi. Bunday sanoat rayonlarida shakllangan shaharlar yaxlit hududiy birlikka ega emas, ularda transport va boshqa aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil qilish murakkablashadi. Shuningdek, tog'-kon sanoati rayonlarida yer osti bo'shliqlari vujudga keladi, ayniqsa, temir rudasi, qo'ng'ir ko'mir, turli tuz konlari va boshqalarni ochiq usulda (kar'yerlarda) qazib olishda landshaftning tabiiy «basharasi» buziladi, qimmatbaho va serhosil tuproq, unumdor ekin maydonlari qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketadi.

Elektr-energetikaning ekologik xususiyatlari ham o'ziga xos. Masalan, suv elektr stansiyalari (GES), umuman olganda, ekologik jihatdan toza, bezarar korxona hisoblanadi. Ular faqat katta yer maydonlarini suv omborlari uchun talab qiladi, xolos. Qolgan masalalarda esa GESlar atrof ekologiyasini yaxshilaydi. Ayni vaqtda issiqlik elektr stansiyalarining ekologik oqibatlari ancha salbiy. Xususan, shahar ichkarisidagi

TESTlar, yirik shaharlar yaqinida joylashgan IESlar atrofga yomon ta'sir qiladi — zaharli gazsimon tutunlar atmosfera havosini ifloslantiradi, yoqilg'i yondirilgandan qolgan kullar esa sun'iy tepaliklarni hosil qiladi. Shuning uchun katta quvvatga ega bo'lgan issiqlik elektr stansiyalari joyning relyefi, shamol yo'nalishi va boshqa meteorologik omillarni hisobga olgan holda qurilishi kerak. Tadqiqotlarga ko'ra, respublikamizdagi yirik Sirdaryo, Yangi-Angren kabi IES atroflarining havosi va suv tarkibi o'zgargan, tuproq qatlami, ekin maydonlar va hayvonot dunyosi ancha zarar ko'rgan.

Qora va rangli metallurgiya ham ekologik nuqtai nazaridan uncha «toza» emas. Yirik qora metallurgiya korxonalari atrofida katta miqdorda shlaklar hosil bo'ladi (domna pechini chiqindisi), shahar havosi va suvi ifloslanadi. Ayniqsa, rangli metallurgiyaning tabiatga salbiy ta'siri kuchli. Jumladan, yirik tog'-metallurgiya kombinatlari yaqinida radioaktiv ifloslanish xavfi vujudga kelishi ham mumkin.

Ma'lumki, rangdor metallar odatda kompleks holda uchraydi. Ularni qazib olish va qayta ishlashda gazsimon chiqindilar ko'p ajraladi. Masalan, mis yoki qo'rg'oshin eritish zavodlaridan katta hajmda oltingugurt gazi chiqadi, uni qayta ishlash asosida oltingugurt kislotasini olish mumkin. Umuman, qora va rangli metallurgiyada ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash (utilizatsiya qilish) iqtisodiy va ekologik jihatdan o'ta muhimdir.

Sanoat tarmoqlari ichida ximiya sanoatining suv, havo va tuproqqa, inson salomatligiga ta'siri juda kuchli. Xususan, sintetik tola, kauchuk, ammiak, qishloq xo'jaligi zararkunandalari uchun turli gerbitsid va zaharli moddalar, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish ekologik tomondan xavflidir. Shuning uchun bo'lsa kerak, O'zbekistondagi yirik ximiya sanoati markazlarida — Chirchiq, Olmaliq, Navoiy, Farg'onada ekologik vaziyat uncha sog'lom emas. Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyatidagi Sho'rtan, Muborak gaz ximiyasi sanoat markazlarida ham bu vaziyat yaxshilanishi talab etiladi.

Albatta, har qanday iqtisodiy jihatdan mustaqil davlat o'zining qudratli industriyasi, shu jumladan ximiya sanoati korxonalariga ega bo'lishi kerak. Qolaversa, respublikamiz iqtisodiyotining agrosohasi uchun ham u zarur. Binobarin, bunday korxonalar mumkin qadar zamonaviy, chiqindisiz,

ekologik sof texnologiya bilan ta'minlanishi va ular barcha sharoitlarni atroflicha o'rgangan va baholangan holda to'g'ri joylashtirilishi lozim.

Mashinasozlik zavodlarining ekologik xavfi uncha yuqori emas. Ammo ular yirik GESlar kabi katta yer maydonini talab qiladi. Shu bois bunday korxonalarining ayniqsa, sug'orma dehqonchilik rayonlarida joylashtirilishi puxta asoslashni talab qiladi.

Tsellyuloza-qog'oz sanoatining atrof muhitni, eng avvalo suvni, tsement sanoati esa shahar havosini chang va chiqindilari bilan ifloslantiradi. Bularga nisbatan yengil hamda oziq-ovqat sanoati korxonalarining ekologik ta'siri kamroq. Biroq, paxta tozalash, konserva, vino zavodlarining yaqin atroflarida ekologik muhit o'zgarishini ham inkor etish noto'g'ri.

Shunday qilib, sanoat tarmoqlarining ekologik xavfini 10-balli shkalada quyidagicha baholashimiz mumkin: Ximiya sanoati — 10, rangdor metallurgiya — 9, issiqlik elektr stansiyalari — 8, qora metallurgiya — 7, tsement sanoati — 6, tsellyuloza-qog'oz sanoati — 5, charm sanoati va jun yuvish — 4, oziq-ovqat — 3, paxta tozalash zavodlari — 2, mashinasozlik va metallni qayta ishlash — 1. Bu baholar, albatta, juda qat'iy emas va ular tegishli mutaxassis — ekspertlar tomonidan yanada aniqlashtirilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishning ekologik oqibatlari ularning hududiy tashkil qilinishi va mujassamlashuvi bilan bog'liq. Dehqonchilik, xususan paxtachilikda ishlatiladigan mineral o'g'itlar, defoliant, qishloq xo'jalik zararkunandalarga qarshi ishlatiladigan kimyoviy moddalar suv va havoni ifloslantiradi. Bulardan tashqari, yana boshqa noxush ekologik holatlar ham mavjud. Biz bu o'rinda paxta yakkahokimligi asoratida Orol va Orolbo'yi mintaqasining muammosi, Mirzacho'l, Qarshi dashtlari kabi o'zlashtirilgan sug'orma dehqonchilik rayonlarida vujudga kelgan tuproqning ikkilamchi sho'rlanishini unutmasligimiz kerak. Mazkur muammolarning keskinligi, hududiy qamrovi sanoat joylashuvining ekologik oqibatlaridan aslo qolishmaydi. Demak, sug'orma dehqonchilikni rivojlantirishda gidromeli ratsiya, agrokimyo masalalarini ham hisobga olish kerak.

Chorvachilikning tabiiy muhitga ta'siri chorva mollarning turiga bog'liq. Ayniqsa, cho'chqachilikning ta'siri kuchli.

Masalan, 100 000 boshli cho'chqachilik fermasi 1 mln. aholiga ega bo'lgan shahar ekologiyasini buzishga qodir. Boshqa chorvachilik fermalari ham atrof-muhit tabiatini buzadi.

Transport, xususan shahar transportining atmosfera havosini buzilishida roli katta. Avtomobillar sonining ko'payishi, ularga mos holda yo'llarning o'z vaqtida kengaymasligi va magistrallashmasligi shahar havosini ifloslantirishga sabab bo'ladi. Shuningdek, transport shovqini ham aholi oromini buzadi. Bunday holat avvalo guzar va chorrahalarda, vokzal va aerodrom, aeroport atroflarida juda keskin. Yuzaga kelgan noxush ekologik vaziyat shahar aholisi orasida o'ziga xos kasalliklarning ko'payishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlaridan tashqari atrof-muhit tozaligini buzishda *antropogen omil*ning ta'siri ham sezilarli. Gap bu yerda aholining ekologik fikrlashi va ekologik madaniyati to'g'risida bormoqda. Ma'lumki, axlatxonalarining to'planib qolishi natijasida, ayniqsa, yozning issiq kundalarida shahar mavze va mahallalarida qo'lansa hidlar ko'payadi. Shuningdek, turli dam olish maskanlari, bozor va vokzallarning ekologik holati ham yaxshilanishi kerak.

Umuman olganda, barcha ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda ekologik bilim talab qilinadi. Ekologik fikrlash hamma vaqt uzoqni o'ylashni, «yetti o'lchab bir kesish»ni nazarda tutadi. Barchaga ma'lum bo'lgan va «ekologiya» tushunchasi bilan uyg'unlashib ketgan «Orol» muammosidan tashqari, respublikamizning o'zida ishlab chiqarishni ekologik jihatdan noto'g'ri joylashtirilganligi xususida juda ko'p misollar keltirsa bo'ladi. Masalan, 2,5 mln. aholiga ega bo'lgan Toshkentning yonginasida joylashgan Chirchiq shahrida ximiya sanoati korxonalari, poyafzal fabrikasi, o'tga chidamli va qiyin eruvchi metallar kombinati va boshqalar bor. Natijada bu sanoat markazi va uning atrofining ekologik holati yaxshi emas. Deyarli shunga o'xshagan vaziyat, shuningdek, Navoiy, Farg'ona, Olmaliq, Andijon, Ohangaron kabi shaharlarda ham kuzatiladi.

Chiqindisiz texnologiyani joriy qilish, energiya ishlab chiqarish sikli bo'yicha sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlarini tashkil etish katta ahamiyatga ega. Odatda, xom ashyoni ko'p talab qiluvchi sanoat korxonalarida chiqindi (xuddi shunday

«suvtalab» korxonalarda ham) ko'p hosil bo'ladi. Binobarin, birinchi navbatda ana shunday tipdagi korxonalarni kombinat shaklida uyushtirish, xom ashyodan atroflicha foydalanish, ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash zarur.

Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti albatta ekologik mezonlar bilan muvofiqlashtirilishi kerak. Shu maqsadda geoekologik ekspertiza va monitoringni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, nafaqat joylashtiriladigan korxonaning ekologik xususiyati, balki shu joyni o'zining imkoniyati, ekologik sig'imi hisobga olinishi lozim. Zero, hudud o'ziga to'g'ri kelmagan sohani qabul qilavermaydi, zo'rlab joylashtirilgan korxona yoki tarmoq uchun u albatta o'z o'chini oladi. Shuning uchun ham tabiat o'ziga nihoyatda nozik va to'g'ri munosabatni talab qiladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Hozirgi «ekologiya» tushunchasi, uning dastlabki talqinidan qanday farq qiladi?
2. Sanoat tarmoqlarining ekologik xavfliligi bo'yicha guruhlariga ajratish va uni asoslab bering.
3. «Resurs uchun to'lov» tushunchasi nimani anglatadi?
4. O'zbekiston hududini ekologik jihatdan qanday rayonlashtirish mumkin?
5. Shaharlarning ishlab chiqarishni hududiy tashkil etilishida qanday o'rni bor?
6. Ishlab chiqarish mujassamlashuvi va shaharlar rivojlanishi orasidagi aloqadorlikni O'zbekiston misolida tushuntirib bering.
7. Mamlakat yoki iqtisodiy rayon xo'jaligini shaharlar orqali qanday ta'riflash mumkin?
8. Shaharlar joylanishiga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?

XIV BOB

IQTISODIY GEOGRAFIYA VA MINTAQAVIY IQTISODIYOT

Jamiyat taraqqiyoti va shunga mos ravishda fanlarning rivojlanishi, ularning ichki turlanishi va ayni paytda yangilarining vujudga kelishi bilan sodir bo'lmoqda. Bu borada turli fanlar qirrasida shakllanayotgan yangi yo'nalishlar katta imkoniyat va integratsion salohiyatga ega. Jumladan, iqtisodiy geografiya va iqtisodiy va sotsial geografiya ham fanning eng muhim qismlari bo'lgan tabiiy va ijtimoiy (gumanitar) fanlar oraliq'idan o'rin olgan. Binobarin, u ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlar tizimiga kiradi. To'g'ri, avvalroq iqtisodiy geografiya (IG) iqtisodiyot fanlar turkumiga mansub bo'lgan, chunki u vaqtda asosiy e'tibor tarmoqlarga, ularning iqtisodiy ta'riflariga qaratilgan edi. Keyinchalik esa, ayniqsa, **N.N. Baranskiy** tomonidan rayonlar yo'nalishini kuchaytirishi, shubhasiz, iqtisodiy geografiyani yanada geografiylashtirdi. Bunga dastavval Germaniyada, so'ngra Rossiyada rivojlangan statistikaning mamlakat va rayonlarni tasvirlovchi va tavsiflovchi yo'nalishi («Opisatel'naya statistika») ham sabab bo'ldi.

Iqtisodiy geografiya o'zining evolyutsion taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. U avvalroq tavsiflovchi funksiyani bajargan bo'lsa, keyinchalik iqtisodiy geografiyaning analitik xususiyati kuchaydi, hodisa va voqealar faqat tasvirlanmasdan, ular ilmiy tahlil asosida ta'riflandi va tavsiflandi. Mazkur fan rivojlanishining uchinchi bosqichi sintez, ya'ni tahlili natijalarini umumlashtirish va baholash (diagnostika) bilan bog'liq bo'ldi. Hozirgi kunda esa iqtisodiy geografiyada bashorat va boshqaruv (Hududiy menejment), jamiyatni va ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilish funksiyalari ham rivojlanmoqda.

Shunga mos ravishda iqtisodiy geografiya va uning turkum fanlari u yoki bu voqelikni alohida-alohida tahlil qilish

bilan bir qatorda, ularning hududiy majmua shaklidagi qonuniyatlarini ham o'rganadi. Chunonchi, shaharlar geografiyasida alohida shaharlarni o'rganishdan shaharlar aglomeratsiyasiga o'tish, sanoat geografiyasida —sanoat korxonasi va sanoat tarmoqlaridan sanoat tuguni va majmualariga ko'tarilish ana shu bilim jarayonini ko'rsatadi. Fan rivojlanishidagi bunday mantiqiy yo'nalish (yoki F.Bekon metodi) shuningdek transport, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasida ham kuzatiladi.

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy geografiya ancha boy va an'anaviy tarixga ega. Unga ko'ra mintaqaviy iqtisodiyot (MI) fan sifatida ancha keyinroq shakllandi. Mazkur yo'nalishning yoki rayonlar (regionlar) haqidagi fanning asoschisi amerikalik olim, Pensilvaniya universitetining professori **Uolter Izard** hisoblanadi. U Nyu-Yorkda nashrdan chiqqan «Joylashtirish va mintaqaviy iqtisodiyot» (1956) hamda «Regional tahlil metodi: Regionlar to'g'risidagi fanga kirish» (1960) nomli asarlarida regionlar to'g'risidagi fan yoki regionika va uning alohida qismi mintaqaviy (regional) iqtisodiyot masalalarini keng va atroflicha yoritdi. Uolter Izard regionlar to'g'risidagi fanlarning Xalqaro assotsiatsiyasi (uyushmasi) ni tashkil qildi va boshqardi.

U. Izardning mintaqaviy iqtisodiyoti, albatta, qisman bo'lsa-da, undan oldin yaratilgan nazariy g'oyalar, chunonchi **I. Tyunen, A. Veber, A. Lyosh, V. Kristaller** singari nemis iqtisodchilarining asarlarini hisobga olgan holda vujudga kelgan. Shuningdek, bu yerda **Perru, Budvil, Laungard, Predyol, Guver** kabi G'arbiy Yevropa olimlarining ilmiy asarlari ham ahamiyatlidir. Ayni paytda muallif rayonlarning ichki va rayonlararo iqtisodiy aloqalarini tahlil qilishda o'zining safdoshi **V. Leontyev**ning harajat — ishlab chiqarish («zarat-vipusk» metodidan keng foydalangan.

Modomiki, mintaqaviy iqtisodiyot uchun eng muhim masala ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish ekan, bu muammo fanda dastavval nemis olimlari tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Iogann Tyunen ishlab chiqarishga, xususan qishloq xo'jaligini shahar atrofida joylashtirishga hududiy omillar ta'sirini batafsil o'rgangan. («Tyunen xalqalari»). Uning vatandoshi Alfred Veber esa «shtandort» nazariyasining chinakam asoschisi hisoblanadi. U XIX asr

boshlarida alohida sanoat korxonasini joylashtirishga ta'sir etuvchi transport, ishchi kuchi, aglomeratsiya omillarini chuqur tahlil qilgan. Keyinchalik «shtandort», ya'ni ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish g'oyasi butun xo'jalik tarmoqlari (A. Lyosh) va hatto aholiga xizmat ko'rsatish sohalariga nisbatan ham (V. Kristaller) tadqiq qilingan. Bunday tadqiqotlar natijasida hududiy iqtisodiyot, hududiy omillar, aglomeratsiya, mujassamlashuv, iyerarxiya, iqtisodiy landshaft, markaziy o'rinlar kabi tushunchalar paydo bo'ldi va ular hozirgi maxsus ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanilmoqda.

Demak, dastavval AQSH da rasman vujudga kelgan mintaqaviy iqtisodiyotning negizi, nazariy ildizi Yevropa va xususan Germaniyada ishlab chiqilgan ilmiy g'oyalarga borib taqaladi. Bunday tadqiqotlar esa keyinchalik ham iqtisodiy geografiyaga, ham mintaqaviy iqtisodiyot (geoiqtisod) ga asos bo'lib xizmat qildi.

Dastlabki davrlarda bu ikki nihoyatda o'zaro yaqin va qo'shni bo'lgan ikki fan bir ma'noda talqin qilinardi, Germaniya va Peterburgda tashkil etilgan iqtisodiy geografiya kafedralari ham asosan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalari bilan shug'ullanardi. Lekin o'sha paytda iqtisodiy geografiya, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'proq iqtisodiyot fanlari tarkibiga kiritilgan edi, chunki statistik va tarmoq yo'nalishlari kuchli edi.

Sobiq Ittifoq davrida Davlat Bosh planining raisi akademik **N.N. Nekrasov** yetmishinchi yillarda o'zining «Mintaqaviy iqtisodiyot» («Regionalnaya ekonomika») kitobini nashr ettirdi. U ayni paytda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, hududlarni iqtisodiy rayonlashtirish muammolari bilan mashg'ul edi. Bu tadqiqotlarda iqtisodchilar bilan birgalikda iqtisodiy geograflar yoki asosiy ma'lumoti iqtisodiy geografiya bo'lganlar ham faol qatnashardi (masalan, professor **Z.M. Akromov** hamda ushbu maqola muallifi turli yillarda mazkur kengashda ishlagan). O'rni kelganda aytish kerakki, Sobiq Ittifoqda aynan ana shu Kengash ishlarida hozirgi «Mintaqaviy iqtisodiyot» shakllandi va rivojlanib bordi. Chunonchi, O'zbekiston FA qoshidagi mazkur kengash olimlarining faoliyati tufayli Ittifoqda ilk bor hududlar iqtisodiy

rivojlanish muammolarini kompleks o'rganish ilmiy yo'nali-shi vujudga kelgan edi.

Bu xususda yana bir masalani ta'kidlash joiz: biz yuqorida geografiyada rayonlar yo'nalishining rivojlanishiga e'tibor qaratgan edik. Mazkur yo'nalishning kuchaytirilishi (xuddi tabiiy geografiyada landshaftshunoslikka urg'u berilganidek) oqibatida an'anaviy iqtisodiyot tarmoqlarining tahlili ancha zaiflashib qoldi va bu xusudagi yuzaga kelgan xavf to'g'risida **I.M. Mayergoyz, A.Ye. Probst** va boshqalar qayg'urishgan edi. Binobarin, rayonlar yo'nalishining yana tarmoq tahlili bilan to'ldirilishi, uyg'unlashuvi zaruriyati tug'ildi.

Bundan tashqari, sobiq Ittifoq mintaqaviy siyosatida 70-yillarida hududiy ishlab chiqarish majmualariga (G'arbiy Sibir, Janubiy Yoqutiston, Orenburg, Timan-Pechora, Janubiy Tojikiston, Pavlodar-Ekibastuz va h.k.) katta aha-miyat berildi; Baykal-Amur magistrali ta'sirida qator yangi majmualarning shakllanishi ham ko'zda tutilgandi. Shubhasiz, bunday ob'yektiv shart va sharoitlar, «ijtimomiy buyurtma» mintaqaviy yoki mintaqalar iqtisodiyotini vujudga kelishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Mintaqaviy tadqiqotlar sobiq Ittifoq Fanlar Akademiya-sining Sibir bo'limida — Novosibirskda ham keng ko'lamda olib borilgan. Ular asosan **A.G. Aganbegyan, A.G. Granberg M.K. Bandman, R.I. Shniper** singari mintaqaviy iqtisodchilar, T.I. Zaslavskayaga o'xshash mintaqaviy sotsiologlar tomonidan olib borilgan. Ayni paytda bunday ilmiy ishlar Ukrainada ham amalga oshirilgan. Jumladan, Polshada hududlarning iqtisodiy rivojlanish ishlari bo'yicha maxsus komitet tuzilgan bo'lib, unda iqtisodchilar va iqtisodiy geograflar faoliyat ko'rsatishgan (S. Leshitskiy, S. Zavadskiy va boshqalar).

Shunday qilib, avvallari MI va IG orasida deyarli farq yo'q edi, olimlar ham bunga e'tibor berishmasdi. Axir, sohasi iqtisodiy geograf bo'lgan N.N. Kolosovskiy, N.N. Baranskiy, I.M. Mayergoyz, T.M. Kalashnikova va boshqalar tomonidan yaratilgan yoki rivojlantirilgan hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari, xalq xo'jaligining hududiy tarkibi yoki tizimi, energiya ish-lab chiqarish tsikllari kabi ayni chog'da iqtisodchilarniki ham bo'lib qoldi va unga hech kim e'tiroz bildirmasdi.

Biroq yuqorida tilga olingan N.N. Nekrasov o'zining asarida mintaqaviy iqtisodiyotni ta'riflab, an'anaviy, iqtisodiy geografiyani asosan tabiiy komplekslar va ularni xo'jalik jihatdan baholovchi fan sifatida qaradi va uni nohaq kamsitdi, uning tadqiqot doirasini cheklab qo'ydi. Balki shuning uchun bo'lsa kerak Yu.G.Saushkin o'zining so'nggi asarida «iqtisodiy geograflar o'zlarining erishgan muhim ilmiy yutuqlarini yo'qotib qo'ymoqdalar va bu haqda men kimga arzimni aytishimni bilmayman» deb noiloj va achinib yozgan edi.

N.N. Nekrasovning bunday fikri ko'pgina iqtisodchi va geograflar orasida anchagina shov-shuv va qizg'in bahs munozaralarga sababchi bo'ldi. Pirovard natijada «yarashilgan» (kompromiss) xulosa chiqarildi: mintaqaviy iqtisodiyot — bu geografiyalashtirilgan iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya esa iqtisodiy lashtirilgan geografiya, deb murosaga kelishildi. Boshqacha qilib aytganda, MI aniq iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya qirrasidagi fan sifatida tan olindi.

Ammo shunga qaramasdan, yuqoridagi bahs va munozaralar ayrim salbiy oqibatlarga ham olib keldi. Ehtimol, bunga N.N.Nekrasovning obro' va amali ham ta'sir qilgan bo'lsa kerak. Chunonchi, o'sha davrda xalq xo'jalik turkumidagi oliygohlarda, jumladan Toshkent xalq xo'jalik institutida mavjud bo'lgan iqtisodiy geografiya kafedralarining nomlari to'g'ridan to'g'ri «Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish» ga o'zgartirildi, ularning ayrimlari esa hozirgi kunda «Mintaqaviy iqtisodiyot» nomini olishdi¹. Qizig'i shundaki, kafedralar nomi o'zgartirilsa, ularda ishlovchi mutaxassislar va o'qiladigan fanlar mazmuni deyarli o'zgarmay, ilgariligicha qoldi, kadrlar hay'ati esa asosan ko'proq tayanch ma'lumoti iqtisodiy geografiya bo'lgan mutaxassislardan shakllangan (bundan o'zimizning Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti yoki moliya instituti ham istisno emas).

Ko'rinib turibdiki, IG va MI orasida katta yoki jiddiy farq yo'q. Ammo, mintaqaviy iqtisodiyot masalalari bilan iqtisodiy geograflar sohaviy iqtisodchilarga ko'ra ko'proq va

¹ Shuningdek Oliy Attestatsiya Komissiyasi tizimida avvalgi 08.00.04- ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, rayonlar iqtisodiyoti ixtisosi 08.00.12-mintaqaviy iqtisodiyotga o'zgartirilgan va uni 11.00.02-iqtisodiy va sotsial geografiyaga turdosh maqomida rasman tan olingan.

osonroq shug'ullanishga qodir, layoqatli. Zero, geografiyannig bosh tamoyili *hudud, hududiy-iqtisodiy* munosabatlar hisoblanadi.

Dalil sifatida aytish mumkinki, geografiya fanlari doktori **T.G. Morozova** (Moskvada Butunrossiya sirtqi moliya-iqtisodiyot instituti «Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv» kafedrasining mudiri) boshchiligida deyarli bir vaqtda ham «Mintaqaviy iqtisodiyot» (1998), ham «Rossiyaning iqtisodiy geografiyasi» (1999) darsliklari yozildi va nashr ettirildi. Ta'kidlash joizki, bu kitoblarning ichki tuzilishi va tarkibi, mazmun va mundariyasi juda bir-biriga o'xshash. Bunday holat biz bir vaqtlar bildirgan fikrimizni yana bir bor isbotlaydi, ya'ni iqtisodiy geograf ayni vaqtda ham iqtisodchi, ham geograf bo'lmog'i kerak; bu uning betakror va jozibali xususiyati, mazmun, mohiyati va maqsadidir. Shu ma'noda iqtisodiy-geografiyadan iqtisodchi chiqishi mumkin va amalda bu juda ko'p uchraydi, ammo iqtisodchidan (mabodo u xohlagan taqdirda ham) geograf chiqishi o'ta mushkul va amrimaholdir.

Biz yuqorida IG va MI ning egizak fanlar ekanligini, ularning bir-birlariga qondosh va qarindoshligini, ular o'rtasida «Xitoy devorining» yo'qligini asoslashga urinib ko'rdik. Ammo shunga qaramay, o'xshashlik mutloq bir xillilik, yagonalik emas. Binobarin, bu fanlar orasida qisman bo'lsa-da (yupqa parda yoki «dokadek») chegara, farq mavjud. Aks holda ular mustaqil fan va ixtisoslik sifatida rasman tan olinmasdi, e'tirof ham etilmasdi. Mazkur fanlar o'rtasidagi o'xshashliklar va tafovutlar quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

1. MI va IG ning tadqiqot ob'yektlari bir ishlab chiqarishning ma'lum hududda joylanishi. Biroq, birinchisi uchun eng muhimi ishlab chiqarishning, aniqrog'i ishlab chiqarish tarmoqlarining iqtisodiy jihatdan hududiy joylanishi bo'lsa, ikkinchisi uchun esa ishlab chiqarish kuchlarining hududiy tarkibi va tuzilmasi, hududiy tashkil etilishi ustuvorroq ahamiyatga ega.

2. MI muayyan, alohida rayon yoki hududlarda ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirilishi iqtisodiyot nuqtai nazaridan tahlil etadi va baholaydi. IG — esa turli mamlakat yoki rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining joylashuv

xususiyatlari va hududiy tafovutlarini, ularga ta'sir etuvchi omil hamda sharoitlarni hisobga olgan holda o'rganadi.

3. MI — da tahlil hududdan tarmoqqa, IG da tadqiqot tarmoqdan hududga tomon olib boriladi; birinchisida hududiy tizimdan tarmoq tarkibiga, ikkinchisida tarmoq tizimidan hududiy tarkib yo'nalishiga urg'u beriladi. Lekin iqtisodiy geografiyada bu zanjir an'anaviy tarzda uzunroq: tarmoq → hudud (rayon) → tarmoq; vaholanki, mintaqaviy iqtisodiyotda u asosan hudud (rayon) → tarmoq shakliga ega.

4. Tan olish kerak: MI — torroq bo'lsa-da, u chuqurroq va binobarin, amaliyotga yaqinroq fandir. Iqtisodiy geografiya esa tadqiqot predmeti, qamrovining kengligi sababli u ko'proq tasvirlovchi va tavsiflovchi fan, ayrimlar nazarida esa hatto nohaq ravishda faqat o'quv predmeti sifatida e'tirof etiladi. Demak, iqtisodiy geograflar uchun iqtisodiy bilimlar va hisob-kitoblarni kuchaytirish (ayniqsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida), chuqurlashtirish, konstruktiv, ya'ni amaliy yo'nalishlarni rivojlantirish muammolari dolzarbdir. Mintaqaviy iqtisodiyot uchun esa hududiy omillarni, ishlab chiqarish bilan hudud o'rtasidagi munosabatlarni, jumladan, tabiatdan foydalanish iqtisodiyotni, geoekologik va iqtisodiy rayonlashtirish muammolarini ham o'rganish talab etiladi.

5. MI — asosan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish haqidagi fan, hozirgi zamon iqtisodiy geografiyasi esa bir vaqtning o'zida u ham sotsial geografiyadir yoki rasmiy ravishda iqtisodiy va sotsial geografiyadir. Binobarin, bu fan iqtisodiy masalalar bilan birga ijtimoiy jabhalarni ham o'rganadi, vaholanki MI asosan iqtisodiyot bilan shug'ullanadi. Ammo bu fan ham ichki jihatdan murakkab, u mintaqaviy moliya, infrastruktura, mintaqaviy siyosat masalalarini o'z qamroviga oladi.

6. Iqtisodiy geografiyada rayonlashtirish g'oyasi muhimdir; mintaqaviy iqtisodiyot esa ana shu rayonlashtirish jarayonining natijasi — alohida rayon iqtisodiyoti bilan qiziqadi. IG da ko'p bosqichli hududiy mehnat taqsimoti va shunga mos ravishda turli darajadagi hududiy bozorlar o'rganiladi. MI da asosan rayon ichidagi mehnat taqsimoti va rayon (mintaqa) bozori tahlil etiladi; iqtisodiy geografiya ham ichki, ham rayonlararo iqtisodiy munosabatlar va

integratsion jarayonlar bilan ko'proq shug'ullanadi. Yuqoridagilar shuni ko'rsatadiki, IG MI ning nazariy metodologik asosi hisoblanadi.

7. Har ikkala fan uchun ham ishlab chiqarish kuchlarini oddiy joylashtirishdan ko'ra ularni ma'lum maqsad yo'lida hududiy tashkil qilish muhimroq. Hududiy tashkil qilish esa *tartib va tarkib, uyushganlik va boshqaruv* demakdir. Ana shu ma'noda turli darajadagi hududiy ishlab chiqarish majmualarini shakllantirish asosida iqtisodiy (va iqtisodiy geografik) samaradorlikni amalga oshirish mumkin. Bu samaradorlikka (uni *aglomeratsion samaradorlik* deb ham ataydilar) o'zaro hududiy uyg'unlashuv, qo'shnichilik va masofani — transport harajatini qisqartirishi, tejamkorlik asosida erishiladi.

8. Mazkur fanlar uchun tabiiy sharoit va qazilma boyliklarning oddiy joylanishi emas, balki ularning turlanishi va ayniqsa hududiy birliklari, birlashmalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, A.A. Mins ta'kidlaganidek, tabiiy resurslarning hududiy birligi («территориальные сочетания природных ресурсов») qo'shimcha samaradorlikka yoki bizning iboramizcha «*ikki karra ikki to'rt emas, balki besh*» bo'lishiga olib keladi.

9. Mintaqaviy iqtisodiyot va Iqtisodiy geografiyaning rayon va mamlakatlar tahlilida shaharlar va yo'llar o'sha joy xo'jaligining «qovurg'asi» hisoblanadi. Ammo IG da hudud ta'rifida shaharlarga o'tilsa, mintaqaviy iqtisodiyot va mintaqaviy siyosat, shaharlar urbanizatsiya siyosati bilan chambarchas bog'liq, zero, o'sish qutb va markazlari, «rivojlanish o'qlari» va yo'laklari hudud iqtisodiyotini shakllantiradi va jonlantiradi.

10. Mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiy geografiyaga ko'ra amaliyroq, chunki u mintaqaviy siyosat (hududiy siyosat emas!) bilan uzviy aloqador. Har qanday mamlakatning demografik, fan-texnika, ijtimoiy-iqtisodiy, tashqi siyosati bo'lganidek uning mintaqaviy siyosati ham mavjud. Bu siyosatning, ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni davlat tomonidan tartibga solish, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasini (tafovutni) mumkin qadar kamaytirish va qisqartirish, ishsizlikning ko'payishini oldini olish, makroiqtisodiy

barqarorlikni ta'mirlash kabi muammolarni hal etishda ayniqsa kattadir.

Mintaqaviy siyosat hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlani-shini boshqarishga, urbanizatsiya va ekologiya muammolarini hal etishga, joylarni infrastruktura jihatdan o'zgartirishga, rayonlarning integratsion faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan bo'ladi.

Shunday qilib, IG va MI orasida juda ko'p o'xshashlik-lar va ayrim farqlar, ularning ikkisi uchun umumiy bo'lgan muammolar (urbanizatsiya, tabiiy resurslardan foydalanish, ekologiya, infrastruktura, rayonlashtirish va h.k.) mavjud. Modomiki mintaqaviy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya oraliq, qirraviy fanlar ekan, ular nazariy va g'oyaviy, amaliy-konstruktiv hamda metodik va uslubiy jihatlardan o'ta mustahkam va puxta bo'lishlari kerak. Aks holda ularga o'ngdan ham, so'ldan ham «hujum» qilish xavfi saqlanib qolaveradi. Binobarin, mazkur fanlarni bir-biridan uzoqlash-gandan ko'ra, ularni yanada yaqinlashtirmoq, iqtisodchi va geograflarni hamkorlikda umumbashariy va strategik masalalarni hal etishga jalb qilmoq afzalroq va ahamiyat-liroqdir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot fanlarining o'xshashlik tomonlari nimada?
2. Mintaqaviy iqtisodiyot asoschilari kimlar?
3. Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot fanlarining rivojlanish xususiyatlari qaysilar?
4. O'zbekistonda ushbu fanlarga hissa qo'shgan olimlarni bilasizmi?
5. Iqtisodiyot va mintaqaviy iqtisodiyot fanlarining rivojlanishidagi asosiy muammolar qaysilar?

ADABIYOTLAR

1. **Karimov I.A.** O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: «O'zbekiston», 1997.
2. **Asanov A.** Sotsial-iqtisodiy geografiya: termin va tushunchalar izohli lug'ati. — T., 1990.
3. **Asanov A., Nabixonov M., Safarov I.** O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. — T.: «O'qituvchi», 1994.
4. **Baranskiy N.N.** Методика преподавания экономической географии. — М.: Просвещение, 1990.
5. **Vitver I.A.** Избранные сочинения. М.: MGU, 1998.
6. **Golubchik M.M.** Политическая география мира. Учебное пособие. — Смоленск, 1998.
7. **Maksakovskiy V.P.** Географическая культура. Учебное пособие. — М., 1998.
8. **Mashbis Ya.G.** Основы страноведения. Книга для учителей. — М.: Просвещение, 1999.
9. **Nabiyev E., Qayumov A.** O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. — T., 2000.
10. **Ro'ziyev A., Abirqulov Q.** O'zbekistonning iqtisodiy geografiyasi. — T., 2001.
11. **Saushkin Yu.G.** Географическая наука в прошлом, настоящем, будущем. — М.: Просвещение, 1980.
12. **Saushkin Yu.G.** Избранные труды. — Смоленск, 2001.
13. **Soliyev A., Mallaboyev T.** Iqtisodiy va sotsial geografiya kursida ayrim qonuniyatlarni o'rganish metodikasi. — T., 1988.
14. **Soliyev A.** Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari. — T., 1996.
15. **Soliyev A., Mahamadaliyev R.Y.** Iqtisodiy geografiya asoslari — T., 1996.
16. **Soliyev A., Qarshiboyeva L.** Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. —T., 1999
17. **Soliyev A., Safarov I., Tillaboyeva M.** Akademik litseylar uchun iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari kursi bo'yicha tajribaviy o'quv dasturi. — T., 1999.

MUNDARIJA

So'z boshi	3
I bob. Iqtisodiy geografiya fanining ob'yekti, predmeti va vazifalari	5
II bob. Iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalari	13
III bob. Iqtisodiy geografiya fanining tarixi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	24
IV bob. Iqtisodiy geografiyada tabiat va jamiyatning aloqadorligi	32
V bob. Siyosiy geografiya va jahon siyosiy xaritasi	40
VI bob. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari	52
VII bob. Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar	61
VIII bob. Tabiiy sharoit, tabiiy resurslar va ijtimoiy hayot	74
IX bob. Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotda hududning o'rni	84
X bob. Aholi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi	95
XI bob. Iqtisodiyot tarmoqlari va ularni joylanish qonuniyatlari	117
XII bob. Bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodiy geografiya	127
XIII bob. Iqtisodiyotni hududiy tashkil etishning shaharlar rivojlanishi bilan aloqasi va ekologik muammolar	137
XIV bob. Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot	148
Adabiyotlar	157

Abdusami Soliyev, Iranqul Safarov

**IQTISODIY VA SIYOSIY
GEOGRAFIYA ASOSLARI**

*Akademik litsey va kasb-hunar
kollejlari uchun darslik*

"Talqin" nashriyoti, 2003. Toshkent, Navoiy, 30.

Muharrir *S. Mirzaho'jayev*
Badiiy muharrir *J. Gurova*
Musahhih *M. Akromova*
Komputerda tayyorlovchi *Ye. Gilmutdinova*

"Talqin" nashriyoti, 2003. Toshkent, Navoiy, 30.

Bosishga ruxsat etildi 04.06.2003 y. Bichimi $84 \times 108^{1/32}$.
Tayms garnituras. Ofset bosma. Shartli b.t. 8,4. Nashr b.t. 9,2
Adadi 5000. Buyurtma № 109.

"Arnaprint" MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent, H. Bayqaro, 51.

65.04
C70

Soliyev A., Safarov I.

Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari: Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik / Mas'ul muharrir: Z.M. Akramov. — T.: «Talqin», 2003. — 160 b.

Sarlavhada: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish instituti.

1. Muallifdosh.

BBK 65.04ya722+66.0ya722